

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**

KUYLIYEV BOBUR TULKINOVICH

**GLOBAL AXBOROT MAKONIDA JAMOATCHILIK FIKRINI
MANIPULYATSIYA QILISHNING MA’NAVIY-SIYOSIY
TEXNOLOGIYALARI**

MONOGRAFIYA

Toshkent – 2025 yil

UO‘K:

KBK:

Mas’ul muharir:

f.f.n., professor N.E.Muxamadiyev

Taqrizchilar:

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent A.Sh.Shukurov

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent D.Xo'jayev

Global axborot makonida jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishning ma'naviy-siyosiy texnologiyalari. Monografiya / Kuyliev B.T.; - Toshkent 2025. 136 bet.

Monografiya zamonaviy global axborot makonida jamoatchilik fikrini shakllantirish va boshqarishning siyosiy texnologiyalarini chuqur ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda axborot urushi, dezinformatsiya, feyk yangiliklar, kiberpropaganda, bot tarmoqlar kabi manipulyativ usullar va ularning mexanizmlari o'rganilgan hamda bu texnologiyalar orqali siyosiy jarayonlarga ta'sir o'tkazishning nazariy asoslari yoritilgan. Monografiyada global va milliy miqyosdagi axborot kampaniyalari tahlil qilinib, axborot manipulyatsiyasining milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va davlat suverenitetiga tahdid sifatidagi jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, jamiyatning axborot urushlariga qarshi immunitetini shakllantirish yo'llari, media savodxonlikni rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Monografiya siyosatshunoslar, jurnalistlar, axborot xavfsizligi mutaxassislari, shuningdek zamonaviy axborot jarayonlarini ilmiy asosda o'rganishga qiziquvchi keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. JAMOATCHILIK FIKRINI MANIPULYATSIYALASH SIYOSIY TEXNOLOGIYALARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI	14
1.1-§. Siyosiy manipulyatsiya fenomenining konseptual tahlili	14
1.2-§. Jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash fenomenining tuzilmaviy elementlari.....	29
1.3-§. Siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarining axboriy sotsiopsixologik konsepsiyalari	45
Bob bo'yicha xulosalar.....	58
II INTERNET KOMMUNIKATSIYA MAKONIDA BOB. JAMOATCHILIK FIKRINI MANIPULYATSIYALASHNING SIYOSIY TEXNOLOGIYALARI.....	60
2.1-§. Zamonaviy siyosiy internet kommunikatsiyasining tuzilmasi va shakllanish bosqichlari	60
2.2-§. Siyosiy internet kommunikatsiya shakllarining manipulyativ xususiyatlari.....	73
2.3-§. Internetda qo'llaniladigan zamonaviy siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarining tasnifi.....	85
Bob bo'yicha xulosalar.....	102
III INTERNETGA XOS SIYOSIY KOMMUNIKATIV VA BOB. MANIPULYATIV XUSUSIYATLARNING EMPIRIK TAHLILI	104
3.1-§. Internetning o'zbek segmenti siyosiy faollikni namoyon qilish platformasi sifatida.....	104
3.2-§. Zamonaviy internet kommunikatsiyasining siyosiy manipulyativ imkoniyatlari	117
Bob bo'yicha xulosalar.....	129
XULOSA.....	131
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	136

KIRISH

Jahonda internet va ijtimoiy tarmoqlar, sotsial media global axborot makonida ma'lumot olish va tarqatishning asosiy manbaiga aylanib borayotgan bugungi murakkab davrda siyosiy texnologiyalarni tatbiq qilgan holda, jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish demokratik jarayonlar, siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Bu esa o'z navbatida dezinformatsiya yaratish va tarqatish, muayyan kuchlarning nufuzini oshirish yoki tushirish, maqsadli reklama, feyk xabarlar, botlar kabi ko'plab usul va vositalarni qo'llagan holda, siyosiy aktorlarning jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish, buning uchun turli guruhlarining tasavvurlarini manipulyator maqsadiga muvofiq ravishda shakllantirishda qo'llaniladigan texnologiyalarni tadqiq etishni taqozo qiladi. Shu ma'noda sohaga oid qonunchilik va kiberxavfsizlikni ta'minlash vositalarini takomillashtirish, keng jamoatchilikning axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda mediasavodxonlik darajasini oshirish, matbuot erkinligi va ommaviy axborot vositalari mustaqilligini mustahkamlashni o'z ichiga oluvchi jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish uchun siyosiy texnologiyalardan foydalanishga qarshi kurashish strategiyalari va mexanizmlarini ishlab chiqish borasidagi nazariy ishlanmalarni tadqiq etishga qaratilgan izlanishlarga zarurat tobora ortmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalashda siyosiy texnologiyalarning qo'llanilishi jarayoni psixologik, mantiqiy, kognitiv, sotsiologik, lingvistik shuningdek sotsial media, reklama, piar texnologiyalar tadqiqotlari metodologiyasi asosida o'rganilmoqda. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda ijtimoiy media va raqamli platformaning roli, raqamli jamiyat muhitida ongni manipulyatsiyalashning axboriy texnologiyalar va usullarini qiyosiy tahlil qilish, axborot texnologiyalari vositasida jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayonida davlat va nodavlat aktorlari ishtirokining ahamiyati, jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash fenomenining demokratik jarayonlar, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy taraqqiyotga destruktiv ta'siri, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda mediamanipulyatsion texnologiyalarga qarshi

kurashish samarador usullarini ishlab chiqish kabi jihatlariga alohida diqqat qaratilmoqda. Bu esa jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalashning siyosiy usul va texnologiyalarini milliy hamda jahon tadqiqotlarini qiyosiy tahlil qilish asosida siyosiy fanlar tadqiqot metodlariga tayangan holda o'rganish, shuningdek uni takomillashtirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ShHT majlisida kibermakondagi tahdidlarga qarshi axborot xavfsizligi sohasidagi ekspertlar forumini ta'sis etish bo'yicha tashabbusning ilgari surilishi, "2022 — 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish Strategiyasi"ning¹ qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqi, ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi, har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinish huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarni tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqi², har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega ekanligi, Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yilishi³, borasidagi me'yorlarning mustahkamlab qo'yilishi ham davlatining axborot siyosati hamda kiberxavfsizlik sohalariga oid kompleks tadqiqotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Bu, o'z navbatida, tadqiqotchi va olimlar oldiga mazkur

¹ <https://lex.uz/docs/6411327> (murojaat vaqti: 24.09.2024)

² <https://lex.uz/docs/6445145#6445423> (31-modda) (murojaat vaqti: 08.10.2024)

³ <https://lex.uz/docs/6445145#6445423> (33-modda) (murojaat vaqti: 08.10.2024)

yoʻnalishdagi davlat siyosatini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini dolzarb qilib qoʻyadi.

I-BOB. JAMOATCHILIK FIKRINI MANIPULYATSIYALASH SIYOSIY TEXNOLOGIYALARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash fenomeni sohalararo tadqiqot predmeti bo'la olishini nazarda tutgan holda, ayni kategoriyaning o'rganishga qaratilgan turli izlanishlar tahlili asosida uni tadqiq etishga qaratilgan metodologik yondashuvlar evolyutsiyasining o'ziga xos jihatlari ochib berish talab qilinadi. Bundan kelib chiqqan holda, mazkur bobda uning turli ijtimoiy-gumanitar fan sohalaridagi talqinlarini qiyosiy tahlil qilish orqali jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash fenomenining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Qolaversa, manipulyatsiya, murakkab tuzilmaga ega fenomen ekanligiga alohida diqqat qaratilib, uning ta'sirni rejalashtirish, ta'sir jarayonini tashkil etishda talab qilinadigan zaruriy vositalarni hamda manipulyatsiya obyekti haqidagi tegishli ma'lumotlarni jamlash, ta'sirni manipulyatsiya obyektiga manzilli yo'naltirishni tashkil qilish, ta'sir ko'rsatish, vaziyatni tashkil qilish va manipulyatsiya obyektini ta'sir uchun tayyorlash, aniqrog'i uni manipulyatsiya maydoniga olib kirish kabi elementlari tizimli tahlil qilinadi.

1.1. Siyosiy manipulyatsiya fenomenining konseptual tahlili

“Manipulyatsiya” atamasi qadimgi lotin tilidan “manus” qo'l (“manipulus” hovuch, siqim. “Manus” va “ple” so'zlari esa to'ldirmoq) degan ma'noni anglatadi. Yevropa tillaridagi lug'atlarda mazkur atama biror-bir obyektga muayyan maqsadda murojaat qilish (masalan, shifokorning qo'l orqali boshqaruvi, aniqrog'i, mijozni qo'l ishtirokida biror narsadan xabardor qilish) ma'nosida qo'llaniladi. Oksford ingliz tili lug'atida manipulyatsiya atamasining ma'nosi “kishilarga sezdirmasdan ta'sir o'tkazish, ularni beparvolik bilan boshqarish, yashirin boshqaruv akti” sifatida tushuntiriladi. Ko'rinib turibdiki, “manipulyatsiya” atamasi metaforik hususiyatga ega bo'lib, leksikologik jihatdan ko'chma ma'noda qo'llaniladi.

Shunday qilib, manipulyatsiya lug‘aviy ma’noda narsalar bilan qo‘l orqali chaqqon munosabatga kirishish, ko‘chma ma’noda esa, kishilarni sezdirmasdan boshqarish degan ma’noni anglatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida manipulyatsiya atamasi quyidagicha tushuntiriladi: (“manipulyatsiya fransuzcha manirulatio, manurulus hovuch” noqonuniy operatsiya; faol savdo fikrini uyg‘otish yoki oldi sotdi-da qimmatli qog‘oz bahosini tushirish yoki oshirish uchun oldi-sotdi qilingan qimmatli qog‘oz)⁴. Atamaga berilgan mazkur etimologik izohdan ko‘rinadiki, manipulyatsiya ayni lug‘atda ham masalaning asl mohiyatini bo‘rttirib yoki kamaytirib ko‘rsatish orqali manipulyatorning maqsadiga erishishni anglatadi.

Yuqoridagi mulohazalar tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, mazkur atama manipulyatsiya sifatidagi o‘zining dastlabki genezis paytidanoq boshqaruv usullari jamlanmasi, aniqrog‘i ustomonlik bilan amalga oshiriladigan hatto yashirin boshqaruv usullari yig‘indisini anglatgan. Kara Murza manipulyatsiyani hukmronlik texnologiyasi, aniqrog‘i “xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda kichik maosh evaziga o‘zlarining shaxsiy axloqi, mafkuraviy mansubligi va badiiy dididan qat’iy nazar yuz minglab xodimlar tomonidan qo‘llaydigan ulkan texnologiya”⁵ sifatida ta’riflaydi. Kara Murzaning ta’kidlashicha, bu “hech kim undan pinhon qola olmaydigan, har bir uygacha kirib boradigan texnologiyadir”⁶. U garchi o‘ta ilmiylikka da’vo qilmasada, Kara Murza o‘z tadqiqoti natijalaridan kelib chiqqan holda manipulyatsiyaning universallik, hamma joyda mavjudlik, kommunikativ jarayonlarga kirib borishlik, inson faoliyatiga oid ijtimoiy va individual amaliyotda yashirin xususiyat kasb etish singari belgilarni ajratib ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqotchi manipulyatsiyani “ommaning fikri, intilishlari, kayfiyati, psixik holatini manipulyatsiya vositaga ega bo‘lgan kishilar maqsadlariga muvofiq tarzda dasturlash”⁷ deb tushuntiradi.

⁴ https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf (murojaat vaqti: 03.02.2024)

⁵ Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. М., 2007. С. 12.

⁶ O‘sha yerda. 14-bet

⁷ Кара-Мурза С.Г. Указ. Соч. С. 16.

Manipulyatsiyaga “psixologik” nuqtai-nazardan yondashib, uni shaxsni yashirin tarzda majburlash sifatida talqin etgan V.Grachev va I.Melniklar ayni hodisani, “ijtimoiy boshqaruv shakllaridan biri sifatida tavsiflaydilar”⁸. Mazkur tadqiqotchilar ayni fenomenni kishilik jamiyati taraqqiyoti bosqichlariga muvofiq tarzda ko‘rib chiqib, uning boshlang‘ich nuqtasini qadimgi Xitoydagi Si qirolligi davriga borib taqaydilar. Bundan kelib chiqqan holda mualliflar manipulyativ amaliyotning boshlang‘ich ildizlari yangi va eng yangi davr sivilizatsiyasiga borib taqaladi degan yondashuvni inkor qiladilar. Ularning fikriga ko‘ra manipulyativ ta’sir o‘tkazish amaliyoti vaqt o‘tishi bilan siyosiy, diplomatik va harbiy singari maxsus sohalardan tor shaxslararo munosabatlar miqyosiga qadar kengayib borgan. Bugungi kunda esa ayni amaliyot keng jamoatchilik ongini manipulyatsiyalash darajasigacha o‘sib bordi. Mualliflar o‘zlaring mazkur fikrlarini qadimgi Xitoy va qadimgi Yunon sivilizatsiyalaridan tortib, yangi va eng yangi davr G‘arb madaniyati namunalari misol keltirish orqali dalillaydilar. V.Grachev va I.Melnikovlarning tadqiqotlari natijalarini umumlashtirilsa, ular manipulyatsiya mazmunini quyidagi tavsifiy belgilar orqali tushuntirishga intilganlari ma’lum bo‘ladi.

“Birinchi turli usul va vositalarni qo‘llagan holda shaxslarni yashirin majburlash yo‘li bilan o‘zaro ta’sirga kiritirish va ijtimoiy boshqaruvga nisbatan o‘ziga xos yondashuv”;

“Ikkinchi o‘ziga xos psixologik ta’sir turi”⁹.

V.P.Pugachev esa manipulyatsiya tushunchasini keng va tor ma’noda talqin qiladi. Keng ma’noda manipulyatsiya “individlar, guruhlar, butun boshli jamiyatlarga rasmiy e’lon qilingan maqsadlarga zid bo‘lgan niyatda amalga oshirilgan yashirin ko‘rinishdagi har qanday ta’sirni”¹⁰ anglatadi, tor ma’noda manipulyatsiya “boshqa kishilar yoki OAVlar yordamida vaziyatni bevosita yoki bilvosita tarzda butunlay o‘zgartirishni anglatadi. Bunda manipulyatsiyalovchi va

⁸ Грачев Г.В, Мельник И.К. Манипулирование личностью: организация, способы и технологии информационно-психологического воздействия. М., 2002. С.68-83.

⁹ Грачев Г.В, Мельник И.К. Указ. Соч. С.82

¹⁰ Пугачев В.П. Управление свободой. М., 2005. С. 85.

manipulatsiyalanuvchi o'rtasidagi ta'sir o'zida kishilar ruhiyati va psixikasini yashirin tarzda boshqarish orqali ularni harakatga keltirish yoki harakatsizlantirish maqsadini namoyon qiladi. Bularning barchasi manipulyatorning shaxsiy xohishi yoki muayyan davrdagi dolzarb intilishlarga bo'ysundirilgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga ta'sir obyektining istalgan xulq-atvori (manipulyator xohlagan) tabiati noma'lumligicha qoladi"¹¹. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan muallif "manipulyatsiya har qanday vaziyatda ongli ravishda amalga oshiriladigan muayyan maqsadga yo'naltirilgan ta'sir"¹² hisoblanishini ta'kidlab o'tadi.

Qolaversa, uning fikriga ko'ra, manipulyatsiya ijtimoiy boshqaruv shakllaridan biri bo'lgan tarixiy fenomendir.

Ijtimoiy-gumanitar fan sohalariga oid tadqiqotlarda manipulyatsiya tushunchasi mazmunini uning tuzilmaviy tashkillashishi, funksional xususiyatlari, elementlarining tizimli aloqalaridan kelib chiqqan holda ta'riflovchi yagona bir ma'noli yondashuv mavjud emas. Buni mazkur fenomenning turli ijtimoiy-gumanitar fan sohaları tomonidan xilma-xil nuqtai-nazardan tadqiq etishi bilan izohlash mumkin.

Bundan kelib chiqqan holda manipulyatsiya tushunchasining mazmunini ochib berishga qaratilgan yondashuvlarni ikki guruhga tasniflash mumkin:

1. Empirik amaliy yondashuv. Ayni yondashuv boshqa yondashuvlarga nisbatan tarafdorlari ko'pligi bilan ajralib turadi. Mazkur yondashuv tarafdorlari manipulyatsiyani reklama, marketing, ritorika, biznes muzokaralar hamda turli xildagi kommunikatsiyalar sohasiga oid amaliy bilimlar nuqtai-nazaridan tushuntirishga intiladilar. Bu yondashuvga ko'ra manipulyatsiya kommunikativ jarayonlar nuqtai-nazaridan ko'rib chiqilib, u amaliy hamda vaqtda cheklangan xarakter kasb etadi. Garchi oqibati samarador bo'lsa-da, bu yondashuv tarafdorlari manipulyatsiya jarayonlarini salbiy ma'noda baholaydilar.

2. Psixologik yondashuv. O'z-o'zidan ma'lumki, mazkur yondashuv tarafdorlari ham ilgari surgandek psixologik ta'sir jamoatchilik fikrini

¹¹ Пугачев В.П. Указ. Соч. С.85-86.

¹² O'sha yerda. 85-bet.

manipulyatsiyalash jarayonining fundamental asosi hisoblanadi. Ayni yondashuv nuqtai-nazaridan manipulyatsiyani tadqiq etgan olimlar qatoriga R.R.Garifullina, Ye.L.Dotsenko, S.A.Zelinskiy, G.Shiller va E.Sxostromalarni kiritish mumkin.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bugungi kunga kelib, individual, shaxsiy hamda ijtimoiy-psixologik paradigmaga tayanuvchi manipulyatsiya nazariyalari ilmiy hamjamiyat tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Jumladan, psixologik reduksionizm yondashuviga ko'ra manipulyatsiya fenomeni shaxs psixikasi bilan determinlanuvchi hamda uning tuzilmasida amal qiluvchi hodisa sifatida tahlil etiladi.

Ayni yondashuv tarafdori bo'lgan S.G.Zelinskiy "manipulyatsiya fenomenini psixologiya va psixoterapiya sohasi tadqiqot doirasiga kiritgan holda uni ong bilan determinlanuvchi natijada esa xulq-atvorni shakllantiruvchi shaxs psixologiyasining fundamentini tashkil qiladigan ong osti sohasida tatbiq qilinuvchi hodisa sifatida tavsiflaydi"¹³.

"Psixologiya fanlari taraqqiyoti mobaynida manipulyatsiya fenomeni tufayli ayni sohada yangicha manipulyativ texnologik strategiya yondashuvi hamda manipulyativ psixologiya, shuningdek psixologik illyuzionizm deb ataluvchi tadqiqot sohalari yuzaga keldi"¹⁴.

Bundan tashqari manipulyatsiya fenomeni lingvistik tadqiqotlar doirasida ham o'rganiladi. Ayni sohadagi aksariyat tadqiqotlarda jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayonida til bajaradigan funktsiya va rollari tahlil etiladi. Bunga ko'ra til manipulyatsiyani qo'llash jarayonining substansional asoslaridan biri hisoblanadi.

I.V.Knyazova falsafiy tadqiqotlarda esa manipulyatsiya mantiq argumentlash nazariyasi hamda ijtimoiy falsafa sohalari nutqai-nazaridan tadqiq etiladi. Jumladan, N.Nepryaxin, I.V.Knyazova kabi tadqiqotchilar ayni fenomenni mantiqiy hamda ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tadqiq etganlar. Jumladan

¹³ См. Гарифуллин. Р.Р. Иллюзионизм личности как новая философско-психологическая концепция. Казань, 1997. С.41.

¹⁴ Зелинский С.А. Указ соч. С.14-15; Его же. Манипулирование личностью и массами. СПб., 2008. С. 19-21, 151.

I.V.Knyazovaning fikriga ko'ra "manipulyatsiya fenomeni ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tadqiq etilganda "noaniqlik", "yashirinlik", "hukmronlik", "tartibga solish", "boshqaruv", "nazorat", "majburlash", "hokimiyat", "diffuziyaviylik", "shaxssizlik", "irratsionallik" va "transagressivlik"¹⁵ singari tushunchalar bilan o'zaro aloqador tarzda tahlil etilishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, ayni tushunchalar o'zaro aloqadorlikda manipulyatsiya kategoriyasining falsafiy mazmunini tashkil qiluvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Falsafiy, xususan ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda manipulyatsiya kishilik jamiyati vujudga kelgan davrlardan buyon u bilan immanent tarzda mavjud bo'luvchi ijtimoiy tartibot va boshqaruv shaklini ifoda etadigan sotsial tizim sifatida olib qaraladi. Bu jarayonda hokimiyat manipulyatsiyaning ijtimoiy asosi vazifasini bajarib, hokimiyatni amalga oshirish texnologiyasi o'laroq namoyon bo'ladi. Jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash bilan o'zaro aloqadorlikda qo'llaniladigan hokimiyat kategoriyasining mazmuni M.Fuko tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra: moddiy, fizik hamda jismoniy xususiyat kasb etadi. Hokimiyat ontologik ma'noda universal haqiqatdir. Hech bo'lmaganda har qanday holatda ham u o'zini hokimiyat bilan aynanlashtiradi. Parmenid, Dekart va Gegellar fikrlash bu mavjud bo'lishni anglatishini ta'kidlab o'tishgan. Shu ma'noda hokimiyat o'z mazmunini namoyon qilish hamda amalga oshirish uchun eng avvalo muayyan bilimga zarurat sezadi. O'zining bilim hokimiyati konsepsiyasini yaratishda Platon ta'limotidagi g'oyalar olami hamda stoizimdagi logos tushunchalariga tayangan M.Fuko postmodernizm metodologiyasidagi platonizmga qarshi kayfiyat tendensiyasini yengib o'tishga muvaffaq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda M.Fuko ta'limotida bilim va hokimiyat tushunchalari ontologik va gnoseologik asoslarga ko'ra birlashtiriladi. Ontologik nuqtai-nazardan u real hokimiyat gnoseologik nuqtai-nazardan esa ayni hokimiyatni bilim bilan ta'minlovchi hamda ayni bilimlarni konseptual shaklda tizimlashtiruvchi ratsionallikka tayanadi. M.Fuko Hegel ta'limotidan kelib chiqqan holda aql va

¹⁵ Князева И. В. К вопросу о манипуляции общественным сознанием [Текст] / И. В. Князева // Гуманитарные знания в современном образовательном процессе : сб. науч. статей. - Воронеж, 2009. - С. 127-133.

aqlsiz dialektikasiga diqqat qaratadi. Aqlsizlikni xoas bilan aynanlashtirgan holda, aql to'g'rirog'i bilim hokimiyati uni tanqid orqali tartibga solishi hamda nazorat qilishi zarurligini ta'kidlab o'tadi. Natijada bilim hokimiyati majburiy xulq-atvor standartlarini shakllantiradi. Bunda falsafadagi an'anaviy tartib va tartibsizlik (xoas va kosmos) dualizmidan kelib chiqqan holda bilim hokimiyati xaotik mavjudlikka ega bo'lgan individni xulq-atvor me'yorlari va standartlari yordamida majburiy tartibga soladi. Shu ma'noda fan vositasida bilim hokimiyati ijtimoiy hayot sohalarini barchasidagi avval erkin bo'lgan barcha nuqtalarni tartibga solishga aniqrog'i ilmiy standartlar asosida boshqarishga intiladi. Ko'rinib turibdiki, ayni hodisani Fuko manipulyativ ta'sir ko'rinishida tushunadi. Bunda manipulyatsiya jamiyatning ijtimoiy institutlari, qolaversa, oila, maktab boshqa ta'lim muassasalari singari vositalariga tayangan holda amalga oshiriladi. Shu tariqa manipulyatsiya vositasida inson hayoti muayyan modelga solinib, muayyan mavjudlik sharoitlariga moslashtiriladi. Bundan kelib chiqadiki, fan yordamida tartiblashgan makonni nazorat qiluvchi hokimiyat shu tarzda AKTlar hamda videokuzatuv singari texnik vositalarni ham o'z ichiga qamrab oluvchi yashirin raqobat, testlar, imtihonlar kabi turli shakllarda amalga oshiriladi.

Bunda inson haqidagi aprior bilimlar tuzilmasi o'laroq foydalaniladigan tibbiyot, lingvistika, sotsiologiya, psixologiya fanlari natijalari insonni boshqarish va tuzatish (ilmiy standartlar asosida modellash) obykti sifatida qaraladi.

Yuqorida ham ta'kidlanganidek, manipulyatsiya fenomeni ijtimoiy-gumanitar fan sohalararo tadqiqot predmeti bo'lib, uning o'ziga xos jihatlari siyosiy fanlar doirasida ham o'rganiladi. Manipulyatsiya fenomeni siyosiy nuqtai-nazardan A.Vere, R.Gudin, U.Rikerlarning ishlarida maxsus tadqiq etilgan.

Manipulyatsiya fenomenini siyosiy nuqtai-nazardan tadqiq etgan S.N.Blend manipulyativ boshqaruv tushunchasini qo'llab, uni siyosiy ta'limotlar tarixida chuqur o'rganiluvchi makiavellizm ta'limoti bilan aynanlashtiradi. Manipulyativ boshqaruv tushunchasining qamrovi haqida gapirib S.N.Blend, uning hajm nuqtai-nazaridan siyosiy jarayonlar boshqaruvchi kategoriyasiga nisbatan cheklangan xarakter kasb etishini ta'kidlab o'tadi. "Siyosiy jarayonlar boshqaruvi shaxsning

motivatsion sohasiga qaratilgan umumiy yo‘nalish bo‘lib, manipulyativ boshqaruv esa ayni jarayonning muhim va ajralmas elementi hisoblanadi”¹⁶. Shu ma’noda tadqiqotchi manipulyatsiyani siyosiy jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos shakli sifatida tushuntiradi. O‘zining mazkur mulohazalari mantig‘idan kelib chiqqan holda S.N.Blend, manipulyatsiya fenomeni yoki manipulyativ boshqaruvni “kommunikativ jarayonlarning obyekti sifatidagi ommaning paydo bo‘lishi bilan”¹⁷ bog‘laydi. Shuningdek, u manipulyativ ta’sirga uchrovchi olomon, zararli g‘oyalarning mavjudligi, qolaversa, til ideokratik funksiyasining faollashuvi kabilarni manipulyatsiyani amalga oshirish talab qilinadigan zaruriy va muhim sharoit sifatida tavsiflaydi. Albatta, Blendning manipulyatsiyani tushuntirish borasidagi siyosiy yondashuvi birmuncha yutuqlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklardan ham holi emas. Jumladan, manipulyatsiya tushunchasini “makiavellizm” ta’limoti bilan aynanlashtirish birmuncha bahsli hisoblanadi. Negaki, manipulyatsiya yashirin ta’sir instrumenti sifatida kompleks xarakter kasb etib, u siyosiy sohadan tashqari ijtimoiy faoliyatning boshqa yo‘nalishlarida ham keng qo‘llanilishi mumkin. Qolaversa “makiavellizm” ta’limoti “maqsad vositani oqlaydi”¹⁸ tamoyiliga tayanuvchi noqonuniy va noaxloqiy xatti-harakatlarni nazarda tutadi. Ammo manipulyatsiya har doim ham axloqiy va huquqiy me’yorlarni chetlab o‘tishni anglatmaydi. Aksincha u ko‘p holatlarda o‘zi qo‘llanilayotgan davr va sotsiomadaniy muhitdagi huquqiy va axloqiy me’yorlar doirasida tatbiq qilinadi. Boshqacha qilib aytganda ayni jihat uning g‘arazli maqsadini niqoblashga xizmat qilgan holda manipulyativ ta’sir jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar tomonidan manipulyatsiya hodisasini aks ettirishga qaratilgan ta’riflarga diqqat qaratilsa, uning tushuncha sifatidagi quyidagi muhim jins (umumiy) belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Birinchidan, bu jismoniy zo‘ravonlik hamda zo‘ravonlik tahdididan holi ma’naviy psixologik ta’sir turidir.

¹⁶ С.Н. Бленд. Массы и манипуляция. - М., 2005.

¹⁷ Лисова С.Ю. Манипуляция массовым сознанием в политической рекламе (региональный аспект). Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. М., 2004.

¹⁸ Бачинин В.А. Политология. Энциклопедический словарь. СПб., 2005; С.134.

Bunda manipulyator uchun inson ruhi, ongi hamda shaxsning psixik tuzilmasi ta'sir obyekti bo'lib xizmat qiladi. Sotsiolog Gerbert Frankening "Manipulatsiyalanadigan odam" (1964 y.) asari to'g'ridan-to'g'ri ong manipulyatsiyasini tadqiq etishga qaratilgan dastlabki asarlardan sanaladi. Tadqiqotchi mazkur asarda manipulyatsiyani quyidagicha ta'riflaydi: "manipulyatsiya deganda ko'p hollarda yashirin tarzda amalga oshiriladigan natijada u yo'naltirilgan shaxsga zarar keltiradigan psixik ta'sir tushuniladi"¹⁹.

Ikkinchidan, manipulyatsiya bu u yo'naltirilgan obyekt tomonidan faktlar payqalmaydigan yashirin ta'sirdir. G.Shiller ta'kidlaganidek: "Manipulyatsiya muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun u oshkor bo'lmasligi, aniqrog'i, yashirin qolishi kerak. Manipulyatsiya muvaffaqiyati kafolatlanishi uchun u yo'naltirilgan shaxs yoki ijtimoiy guruh sodir bo'layotgan hodisalarni tabiiy va zaruriy (qochib bo'lmas) deb qabul qilmog'i lozim. Qisqa qilib aytganda, manipulyatsiya jarayoni sezilmaydigan darajadagi soxta voqelikni talab qiladi"²⁰. Manipulyatsiyalashga urinish akti fosh etilib, u haqidagi ma'lumotlar keng tarqalib ketganda harakat doirasi qisqartiriladi. Aks holda bunday vaziyatlarda manipulyatorga jiddiy zarar yetish ehtimoli ortadi. Bunday vaziyatlarda manipulyatsiyalashga urinish fakti fosh qilinganda ham istiqboldagi bosh maqsad oshkor bo'lmasligi uchun manipulyatsiyalash jarayoni yanada chuqurroq maxfiylashtiriladi. Shu ma'noda ma'lumotning o'ta maxfiy va sirli ko'rinish kasb etishi manipulyatsiyaning muhim belgilaridan sanaladi.

Uchinchidan, manipulyatsiya uni amalga oshirish maxsus malaka va professional bilim talab etadigan ta'sirdir. Mahalliy miqyosda bo'lsa-da, ijtimoiy ongni manipulyatsiyalash ko'zda tutilganda ham mutaxassislar yoki muayyan tadqiqot va instruksiylarda ko'rsatilgan bilim talab qilinadi. Shu tariqa ijtimoiy ongni manipulyatsiyalash muayyan texnologiyaga aylanib, ayni texnologiyani qo'llay olish malakasiga ega mutaxassislar, ushbu sohada kadrlar tayyorlash tizimi, ilmiy tadqiqot muassasalari, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar shakllandi.

¹⁹ Herbert W.Franke. Der manipulierte Mensch: Grundlagen der Werbung und der Meinungsbildung. Brockhaus, 1964. 17-6.

²⁰ Шиллер Г. Манипуляторы сознания. М., 1980. 12-6.

Hokimiyat texnologiyasining bir qismi manipulyatsiyaning muhim belgilaridan biri sanaladi. Buni do'st yoki sherikning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish ma'nosida tushunmaslik lozim.

Siyosiy manipulyatsiyalarning mohiyati, mazmuni va shakllari I.L.Vikentev, A.I.Vlasov, D.A.Volkogonov, Ye.A.Dotsenko, L.G.Ionin, S.Kara-Murza, A.N.Kochergin, A.I.Kovler, G.Churchil, G.Shillerlarning ishlarida chuqur tadqiq etilgan. Mazkur ishlarning tadqiqi siyosiy manipulyatsiyalarning obyekti, subyekti, maqsadi va vazifalari, zamonaviy OAV vositalari va texnologiyalaridan foydalangan holda axborot miqdorini oshirishda, o'ziga xos reklama siyosatini shakllantirishda, mish-mishlarni bo'rttirishda, salbiy baholarda, ijtimoiy ritorikada, ijtimoiy-siyosiy afsonalar hamda ijtimoiy-siyosiy imijlarning shakllanishi va tasdiqlanishida ifodalangan protsessual manipulyatsiyalashning tavsifiy xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi.

Shunga muvofiq tarzda ijtimoiy-siyosiy miflarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-siyosiy imij shakllanishini tadqiq etish manipulyatsiyalash shakllari va usullariga xos muhim yo'nalish hisoblanadi. Ma'lumki imij atamasi birinchi bo'lib, E.Bernayz tomonidan keng ilmiy iste'molga kiritilgan. P.S.Gurevich, A.F.Gusal, N.A.Karnaupov, V.M.Shepellar ijtimoiy-siyosiy imijning mohiyatini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarida uning gabitar, moddiylashgan, muhitiy, verbal, xarizmatik va kenistetik elementlarini ajratib ko'rsatganlar. Yuqoridagi tadqiqotlar natijalariga ko'ra yaxlit imij ommaviy ongni manipulyatsiyalash maqsadida maxsus texnologiyalar asosida yaratiladi.

Ijtimoiy-siyosiy miflarning fundamental nazariy asoslari V.I.Garaj, R.A.Zobov, V.N.Kelasev, I.M.Chudinov va boshqalarning ishlarida chuqur tadqiq etilgan. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, manipulyatsiya oldindan rejalashtirilgan maqsadga erishish uchun kimgadir aniq yo'naltirilgan ta'sir demakdir. Manipulyatsiyaning roli va ahamiyati, siyosiy texnologiyalarning keng qo'llanilishi, shuningdek "ommaviy ong" kategoriyasi va hodisasini o'rganish natijasida tushunila boshlandi. Manipulyatsiyaning muvaffaqiyatlilik darajasi ta'sir

ko'rsatish vositalari hajmining kengligi, ulardagi moslashuvchanlik xususiyatining yuqoriligi hamda xilma-xilligiga bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, manipulyatsiyalar siyosatshunoslikka oid ishlarda muayyan g'oyani ilgari surish vositasi ma'nosida qo'llaniladi. Bunda birinchi bo'lib, axborot bilan ishlash muammosi, qolaversa, axborot bilan ishlash jarayoni hamda manipulyatsiya obyekti, ta'bir joiz bo'lsa "nishon"ni shakllantirish masalasi ilgari suriladi. Ommaviy-siyosiy ongni manipulyatsiyalashda inson faoliyatining shakllari, qoidalari, uning tasavvurlari hamda munosabatlarini belgilab beradigan axborot va aloqa jarayonini nazorat qilish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Manipulyatsiyani ta'riflashga qaratilgan xilma-xil nazariy- metodologik yondashuvlar mavjud. G.V.Grachev mazkur tushunchani: "Zo'ravonlik yo'li bilan amalga oshirilmaydigan, ma'naviy ta'sir yoki sirli hukmronlik shakli sifatida"²¹ ta'riflaydi. D.A.Volkogonov ayni atamaning mazmunini, "kishining ma'naviy holati ustidan hukmronlik, uning ichki dunyosi o'zgarishi jarayonlarini boshqarish"²² deb tushunadi. U manipulyator ko'zlagan maqsadlarga mos keluvchi stereotiplarni ongga joylanganda manipulyatsiya amalga oshadi deb hisoblaydi. Volkogonov fikriga ko'ra, "manipulyatsiya psixologik urush mexanizmlarining asoslaridan biri hisoblanadi"²³. A.I.Vlasov, manipulyatsiya – bu "boshqalarning irodasiga zid tarzda hokimiyatni yashirin ravishda qo'llashdir"²⁴ deb hisoblaydi. V.Riker "Siyosiy manipulyatsiya san'ati" asarida manipulyatsiya yordamida g'alaba qozonishga imkon beradigan dunyo tuzilishi haqida yozadi. R.Chaldini fikricha, "manipulyatsiya bu yolg'on vositasida muayyan xulq-atvorning namoyon bo'lishiga turtki berish demakdir"²⁵. Y.L.Dotsenkoga ko'ra manipulyatsiyalash,

²¹ Грачев Г.В., Мельник И.К. Манипулирование личностью: организация, способы и технология. М., ИФ РАН, 1999. 82-б.

²² Волкогонов Д.А. Психологическая война - М.,1983. 127-б.

²³ Волкогонов Д.А. Психологическая война - М.,1983. 128-б.

²⁴ Власов А. И. Политическая манипуляция. М.,1982. 56-б.

²⁵ Чалдини Р. Психология влияния. СПб., 1999. 14-б.

“boshqalarga nisbatan vosita, obyekt yoki qurol sifatida munosabatda bo‘lishni anglatadi”²⁶.

Mashhur amerikalik olim Gerbert Shiller manipulyatsiyani “fikrlar, maqsadlar, hissiyotlar, munosabatlar va xulq-atvorni yashirin tarzda majburiy dasturlash”²⁷ sifatida tavsiflaydi. Yana bir amerikalik olim E.Sxostr, “manipulyatsiya boshqani obyektlar va narsalar sifatida foydalangan holda eksplutatsiyalash, boshqarish va nazorat qilish”²⁸ degan mulohazani ilgari suradi.

1921-yilda V.M.Bexterev “Jamoaviy refleksologiya” deb nomlangan asarini chop ettirdi. U “psixologik zararlanish” ta’siri ostidagi ommaviy singdirish hodisasini tasvirlab bergan. Bexterev singdirish hodisasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ongni manipulyatsiyalash jarayoni bilan bog‘lagan holda, uni mazkur aktda “Men” ya’ni subyektning bevosita ishtirokisiz yot g‘oyalarning ongga tahdidi sifatida tushuntiradi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yondashuvlar va mulohazalarni tahlil qilgan holda ayni tushunchaning psixologik ta’rifini keltirish mumkin: “manipulyatsiya boshqalarda o‘zining xohishiga zid bo‘lgan muayyan harakatni sodir etishga maxfiy ravishda undash orqali bir yoqlama g‘alabaga erishish maqsadida foydalaniladigan psixik ta’sir turidir”²⁹.

Ma’lumki, manipulyatsiya fenomeni birinchi navbatda siyosatshunoslikka oid tadqiqotlarda chuqur o‘rganib chiqilgan. Chunki bu atama dastlab ko‘chma ma’noda siyosat sohasida qo‘llanilib, asta-sekin ommaviy ong bilan bog‘liq barcha muammolarga nisbatan tatbiq etila boshlandi.

Siyosiy manipulyatsiya tushunchasi o‘z hajmida shaxslararo va ommaviy manipulyatsiyalarni birdek qamrab oladi. Birinchi holatda manipulyator shaxslararo darajada qo‘llaniladigan manipulyatsiya usullaridan tashkil topuvchi muayyan texnikaga murojaat qiladi. Ommaviy manipulyatsiyalash jarayonida esa manipulyator manipulyativ texnologiyalardan foydalanadi.

²⁶ Доценко Е.Л. Манипуляция: психологическое определение понятия // Психологический журнал т. 14 № 4 1993. 34-б.

²⁷ Шиллер Г. Манипуляторы сознания. М., 1980. 44-б.

²⁸ Шостр Э. Человек манипулятор. М., 1998. 77-б.

²⁹ Бехтерев В.М. Коллективная рефлексология - Пг., 1921. 68-б.

Shaxslararo manipulyatsiya alohida shaxslarga qaratilgan bo'lsa, ommaviy siyosiy manipulyatsiyalar butun boshli xalqlarga yo'naltiriladi. Zero, ommaviy manipulyatsiyani amalga oshirishda manipulyatorlar imkon qadar kengroq aholi qatlamini qamrab olishga intiladilar. Shu tariqa ijtimoiy ongda ozchilik, ayrim hollarda yakka shaxsning irodasi sun'iy va yashirin tarzda ommaning irodasi degan tasavvur shakllantiriladi.

E.Kanetti o'zining "Omma va hokimiyat" nomli asarida, "inson tabiati unda katta qo'rquv hissini uyg'otadi"³⁰ degan fikrni ilgari suradi. Uning mazkur kitobi inson tabiatidagi ayni qo'rquv hislarining mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Uning fikriga ko'ra, "birgina kishi butun boshli insoniyat tabiatidagi ezgulikni barbod qilishga qodir"³¹. Muallif aynan bir kishi va u yo'q qiladigan minglab kishilar o'rtasidagi ziddiyatni tushunarsiz deb hisoblaydi. Bu esa asarda kelajakka bo'lgan pessimizm ruhining ustunlik qilishiga olib keladi.

Y.P.Avverin fikriga ko'ra, ommani texnologik manipulyatsiyalash deganda "kommunikantning muayyan maqsadga erishish yo'lida boshqaruv effektlari yordamida jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish nazarda tutiladi"³². Siyosiy manipulyatsiyalar nafaqat salbiy, balki ijobiy ma'no kasb etishi ham mumkin. Masalan, ommaning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, aniqrog'i uning siyosiy faollik darajasini oshirish maqsadida ham qo'llanilishi mumkin.

Bundan kelib chiqqan holda mazkur tadqiqotda, siyosiy manipulyatsiya kategoriyasining keng ommaga, kishilarni o'zlarining manfaatlariga zid ravishda, manipulyator manfaatlariga muvofiq o'ylash va harakat qilishga majburlovchi ommaviy psixologiya xususiyatlaridan foydalangan holda targ'ibot-tashviqot vositasida yashirin ta'sir o'tkazish shaklidagi ma'nosi nazarda tutiladi.

Manipulyatsiyalash maqsadga muvofiq tarzda axborotni buzib ko'rsatish demakdir. Shuning uchun bu jarayonda tasavvurda hosil qilinadigan olamlar bilan bog'liq axborotni ramzlashtirish alohida o'rin tutadi. Axborotni obyektivlashtirish kodifikatsiyalash orqali amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida "shaxsni nazorat

³⁰ Канетти Э. Масса и власть - М., 1997 г. 8-б.

³¹ O'sha asar. 9-б.

³² Аверин Ю.П. Люди управляют людьми: модель социологического анализа. М., 1996. 85-б.

qilish” imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Axborotni kodifikatsiyalash deganda uni tuzilmasini hosil qilish, mavqeini o‘zgartirish hamda axboriy sxemalar yaratish tushuniladi. Bu kishilar ongiga axborotning tarkibiy komponentini tushunishgacha bo‘lgan bosqichda mavjud bo‘lishi talab qilinadigan elementlarni singdirish imkonini beradi. Shu ma’noda axboriy kodifikatsiya ijtimoiy va individual amaliyotni me’yorlashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, kishilar ongini shakllantirgan holda aniq belgilab qo‘yilgan maqsad sari qat’iy yo‘naltiradi. S.Kara-Murza fikri bilan aytganda, “kodifikatsiya voqelikdagi xoasni ramzlar yordamida tartibga keltirish bilan aloqador”³³. Bu soddalashtirilgan, tushunishga oson olam manzarasini yaratgan holda reallikni unifikatsiyalash va gomogenlashtirish orqali amalga oshiriladi. Axborotni kodifikatsiyalash, formallashtirish va unifikatsiyalash yordamida tushunish borasidagi ziddiyatlarni minimallashtiradi.

Kodifikatsiyalash xilma-xillik va tanlash imkoniyatini cheklagan holda o‘z obyektini soddalashtirib, shaffof hamda shaxs kamolotining har qanday bosqichidagi odam uchun tushunarli shaklga keltiradi. “Shu tariqa kodifikatsiyalash natijasida olam sodda, oqilona, tushunish uchun qulay, nazorat qilish uchun oson ko‘rinish kasb etadi. Oqibatda esa olam ham odam ham prognozlash mumkin bo‘lgan, barqaror, aqlga muvofiq va formallashtirilgan shaklga o‘tadi”³⁴.

Bundan kelib chiqqan holda manipulyatsiya muayyan siyosiy jarayon yoki hodisalarni kishilar uchun tushunarli bo‘lgan ramzlar bilan belgilab ramziy hokimiyat hosil qilish orqali axborotni manipulyator nuqtai-nazaridan qayta ishlash demakdir. Ramziy hokimiyat, S.Kara-Murza ta’kidlaganidek, “nafaqat dunyo qiyofasini, balki ijtimoiy makondagi mavqeini, “o‘z obrazini” manipulyatsiya qilish bilan ham bog‘liq”³⁵. U baholar va tasavvurlarni o‘zgartirishga da’vo qiladi. Aniqrog‘i, reallikni hosil qilish uchun tanlangan so‘zlar, tushunchalar voqelikni ular ifoda etgan darajada “shakllantiradi”. Bunda

³³ Кара - Мурза С. Манипуляция сознанием М., 2000. 41-6. - <http://probib.narod.ru/>

³⁴ Власов А. И. Политическая манипуляция. М., 1982. 21-6.

³⁵ Кара - Мурза С. Манипуляция сознанием М., 2000. 33-6. - <http://probib.narod.ru/>

tanlab olingan soʻzlar va ramzlar strategiya va identiklikning asosi boʻlib xizmat qiladi.

Mish-mishlar, gʻiybat, baholash, gʻayritabiiy fikrlar, afsonalar, obrazlar yordamida jamoatchilik fikriga taʼsir oʻtkazib, eski munosabatlarni yangilari bilan almashtirgan holda yangi voqelik yaratiladi. Ramziy hokimiyat olam oʻzgarsa, uni shakllantirish usullari, natijada esa ijtimoiy guruhlarining tarkibi va identifikatsiyasi ham oʻzgaradi degan tamoyilga asoslanadi. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ramziy hokimiyat bu, zarur guruhlarini shakllantirish, muayyan dunyo manzarasini oʻzgalar ongiga singdirish, “oʻzini tan oldirishga qodir” hokimiyatdir. P.Burde ramziy hokimiyatni “soʻzlar orqali narsalarni hosil qiladigan hokimiyat”³⁶ deb tushuntiradi.

Yuqorida ilgari surilgan mulohazalar tahlillari va natijalarini umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, axborotni qayta shakllantirish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

1. Axborotni buzib koʻrsatish (reallikka nomuvofiq tarzda, subyektiv pozitsiyaga tayangan holda talqin qilish);
2. Maʼlumotni yashirish (materiallarni saralagan holda (manipulyator maqsadiga muvofiq tarzda) taqdim etish);
3. Manipulyator maqsadiga muvofiq tarzda maxsus tayyorlangan materialni taqdim etish orqali manipulyatsiyalash;
4. Manipulyator maqsadiga mos xulosalar chiqarishga undash (manipulyator istagan xulosalarni manipulyatsiya obyektlarining xulosasi sifatida koʻrsatishga urinish)
5. Maʼlumotni taqdim etish vaqti bilan bogʻliq manipulyatsiya.

Shunday qilib, jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayonining oʻzi uning oqibatlari hamda manipulyator maqsadlari maxfiy boʻlgan yashirin taʼsir usulini anglatadi. Bu miqlar yaratish, axborotni niqoblashga qaratilgan jarayonlar hamda operatsiyalarni qoʻllash orqali amalga oshiriladi.

³⁶ Лаптев Л.Г. Политический менеджмент: сущность, содержание, современные технологии. М., 2000. 33-б.

1.2 Jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash fenomenining tuzilmaviy elementlari

Manipulyatsiya, murakkab tuzilmaga ega bo'lib, u o'z ichiga quyidagi elementlarni qamrab oladi: ta'sirni rejalashtirish, ta'sir jarayonini tashkil etishda talab qilinadigan zaruriy vositalarni hamda manipulyatsiya obyekti haqidagi tegishli ma'lumotlarni jamlash, ta'sirni manipulyatsiya obyektiga manzilli yo'naltirishni tashkil qilish, ta'sir ko'rsatish vaziyatini tashkil qilish va manipulyatsiya obyektini ta'sir uchun tayyorlash, aniqrog'i uni manipulyatsiya maydoniga olib kirish.

Manipulyatsiya jarayonlarini tashkil qilishda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlar shart-sharoitlarini nazorat qilishga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi. Ta'sir ko'rsatish joyini to'g'ri tanlash yoki uni maxsus hosil qilish, qolaversa, u bilan bog'liq sensor komplekslar manipulyatsiyani tashkil etishning jismoniy sharti sifatida ko'rsatish mumkin. Zero, ayni ta'sir ko'rsatish joyidagi madaniy fon madaniy manbalar, urf-odatlar, til, me'yorlar, idrok etish stereotiplari va hukm chiqarish strategiyalari bilan belgilanadigan muloqot holatining xususiyatlarini nazarda tutish zaruratini o'z ichiga oladi. Manipulyatsiya uchun tanlangan joyning ikkinchi elementi bo'lgan ikkinchi kontekst mikro va makro sotsial darajalardagi real va shartli o'zgaruvchan munosabatlarni nazarda tutadi.

G.V.Grachev, I.K.Melnik, Y.L.Dotsenko va L.G.Ionin kabi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, manipulyatsiyaga tayyorlanish adresatda undan kutiladigan reaksiyalar ehtimolini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni yaratish bilan bog'liq. Bunday omillar qatoriga adresat (manipulyatsiya obyekti) holatini o'zgartirish, tashqi ta'sirga qarshi kurashuvchanlik darajasini pasaytirish orqali unga moyilligini oshirish, o'z-o'ziga ishonchi va bahosini beqarorlashtirish, himoyaga bo'lgan, o'z-o'zini identifikatsiyalash, o'z-o'zini ihotalash ehtiyojlaridan foydalangan holda manipulyativ ta'sir darajasini oshirish kabilarni kiritish mumkin. Ayni omillar natijasida manipulyativ ta'sir umumiy va kompleks xarakter kasb etadi.

Qolaversa, manipulyatsiyani qo'llash jarayoni standart yoki nostandart ijtimoiy vaziyatlarni yaratish hamda "ta'sir nishoni"ni (manipulyatsiya obyektidagi ta'sir ko'rsatiladigan jihat) aniq belgilab olish kabi jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Bundan kelib chiqqan holda "ta'sir nishonlarini" aniqrog'i manipulyatsiya obyektidagi ta'sir qilish nuqtalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Shaxsda faollikni yuzaga keltiruvchi ta'sir nishonlari. Ular qatoriga ehtiyojlar, qadriyatlar, qiziqishlar va ustanovkalarni kiritish mumkin.

2. Shaxsdagi faollikni tartibga soluvchi ta'sir nishonlari. Ular o'z ichiga ma'noviy maqsadli operatsional ustanovkalar, me'yorlar, dunyoqarash, maslak, o'z-o'ziga bo'lgan baho va e'tiqodlarni qamrab oladi.

3. Kognitiv komplekslar ta'sir nishonlari. Ular obrazlar va olam manzaralari, aniq va noaniq bilimlar, axboriy mo'ljallar kabilardan iborat.

4. Operatsional komplekslar ta'sir nishonlari. Unga tafakkurlash usuli, argumentlash tavsifi, tanqidiylik darajasi, xulq-atvor uslubi, odatlar, ko'nikmalar, mahoratlar, malakalar va mo'ljal o'la bilish kabilarni kiritish mumkin.

5. Ruhiy holat ta'sir nishonlari. Fonli, funksional va emotsional ruhiy holatlardan iborat³⁷.

Manipulyativ ta'sir nafaqat individual yoki muayyan guruh qolaversa, ommaning siyosiy ongiga ham yo'naltirilishi mumkin. Bundan kelib chiqqan holda ommaviy siyosiy ongga manipulyativ ta'sir o'tkazish obyekt bilan turli darajadagi aloqalarni o'rnatishni talab qiladi. Bunday aloqalar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: emotsional aloqa (hamdardlik, tashvishga sheriklik xususiyatini namoyon qilish); belgiga ko'ra aloqa (hokimiyat ramzlari); operatsional aloqa (samarador teskari aloqani o'rnatish); predmetli aloqa (axborot maydoni mazmunini tushuntirish) va boshqalar.

Aloqalar ularni boshqarish va o'zaro ta'sirga kirishish uchun psixologik makon yaratishni nazarda tutadi. Mazkur psixologik makonda ro'y beradigan istalgan voqea kommunikatorlardan biri tomonidan boshlanib, maxsus

³⁷ Капа - Мурза С. Манипуляция сознанием М., 2000 - <http://probib.narod.ru/>

tashkillashtirilgan holda yo‘naltiriladi va nazorat qilinadi. Bu esa o‘z navbatida maqsadga muvofiq psixologik, axboriy bosimlarni yuzaga keltiradi.

Ayni jarayonda psixologik ta’sirning o‘rni beqiyos bo‘ladi. Manipulyativ jarayonning psixologik jihatlarini G.M.Andreev, L.Y.Gozman, Y.Shestopal, G.T.Deligentskiy, V.N.Ivanov, S.Kara-Murza va V.Odayniklar kabi tadqiqotchilarning ishlarida chuqur tahlil etilgan. Auditoriyani yengib o‘tish, undagi manipulyator ta’sir kuchini alohida ajratib ko‘rsatishga xizmat qiluvchi ta’sir texnikalarini qo‘llagan holda psixologik bosim o‘tkazish ko‘p hollarda manipulyatsiyalash jarayoni samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Axboriy bosim yoki axborot urushlari quyidagi usullarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi: chinligini isbotlash deyarli imkonsiz bo‘lgan, barchaga birdek ma’lum mulohazalarni argument sifatida keltirish; umumlashtirish, tezisni kengaytirish va umumlashtirish; masalani noaniq, go‘yoki umume’tirof etilgan shaklda ifodalash (tezisning noaniqligi, mantiqiy tuzoqni qo‘llash); ismlar, harakatlar va vaziyatlarni bo‘rttirib ko‘rsatish; kommunikativ sabotaj; fikrning ikki ma’noliligi; harakat subyektini almashtirish; neytral tushunchalarni emotsional bahoga boy tushunchalar bilan almashtirish; yolg‘on analogiya; mavzularga ko‘ra kishilar e’tiborini tez-tez chalg‘itish. Yuqorida sanab o‘tilganlar natijasida manipulyatsiya obyektining reaksiyasi (muayyan voqeaga nisbatan munosabati), uning o‘z-o‘ziga bo‘lgan bahosi, o‘zligini anglash yo‘nalishi va qadriyatini mo‘ljallarining o‘zgarib, manipulyator maqsadlariga muvofiq ko‘rinishga o‘tadi. Mazkur texnika yordamida o‘zaro tushunish, o‘zaro bir-birini aynanlashtirish illyuziyasini hosil qilish orqali axboriy omillar yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida ommaning siyosiy ongini oson boshqarish va nazorat qilishga imkon yaratadi.

Ko‘plab tadqiqotchilar, jumladan Kara-Murzaning fikriga ko‘ra: “manipulyatsiyaning emotsional va ratsional modellarini farqlash mumkin”³⁸. Psixologik modelda individ yoki guruhning muayyan ruhiy stimullarga nisbatan reaksiyasidan umumli foydalaniladi. Bunda manipulyatsiya kishilarda reaksiya uyg‘otuvchi stimullarni saralab olish orqali amalga oshiriladi. Ratsional modelning

³⁸ Кара - Мурза С. Манипуляция сознанием М., 2000 - [http ://probib.narod.ru/](http://probib.narod.ru/)

mohiyatini esa puxta o'ylangan, chuqur mantiqiy mushohadaga asoslanuvchi yolg'on tashkil etadi. Mazkur model quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi: ochiq ma'lumotlarni qisqartirish va ularni bo'laklarga ajratish; maxfiylikdan foydalanish, ataylab ma'lumotni yashirish; faol propagandani amalga oshirish, tendensiyalashgan axborotni tarqatish; taqdim etilgan ma'lumotni adekvat tarzda o'zlashtirish hamda to'g'ri baholash imkonidan mahrum qiluvchi axboriy qayta yuklash usuli. Bu esa ma'lumotni auditoriya tomonidan manipulyator taqdim etgan shakl va talqindagina qabullashga majbur qiladi.

Siyosiy ongni manipulyatsiyalash jarayonlarini tashkil qilishda siyosiy imijlarga ham alohida e'tibor qaratiladi. "Imij" tushunchasi PR asoschilaridan biri Edvard Bernayz tomonidan keng ilmiy iste'molga kiritilgan. Uning 1955-yilda yozilgan "Kelishuv injeneringi" nomli asari ayni masala tadqiqiga bag'ishlangan. Olim imij atamasini reputatsiya yaratish jarayonlarida qo'llashni taklif qiladi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda imij so'zi obraz degan ma'noni anglatadi. Shunga ko'ra muayyan kishining imiji haqida gap ketganda uning boshqalar tasavvuridagi obrazi nazarda tutiladi. Obraz deganda esa odatda nafaqat kishining vizual tashqi ko'rinishi yoki qiyofasi, balki uning tafakkur tarzi, qadriyatlari, xatti-harakatlari ham tushuniladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, imij tushunchasi nafaqat alohida shaxslar, balki ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar hatto mamlakatlarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Shaxsiy va professional imijlarni farqlash mumkin. Professional imij deganda individning professionalligi haqidagi kishilarda shakllangan tasavvur nazarda tutilsa, shaxsiy imij deganda esa individ bajaradigan ijtimoiy roldan qat'iy nazar u ega bo'lgan shaxsiy fazilatlar tushuniladi. Qolaversa, ijobiy va salbiy imij turlarini ham ajratish mumkin. Imijning ayni o'zaro qarama-qarshi ko'rinishda tasniflanishi tabiiy ravishda muayyan ijtimoiy guruhning biror-bir obyektga nisbatan ijobiy yoki uning aksi bo'lgan bahosidan kelib chiqadi. Shu ma'noda imijni birmuncha subyektiv xarakter kasb etishini ta'kidlab o'tish lozim.

Imijni shakllantiruvchi ma'lumotlar uning asosini tashkil etadi. "Imijni shakllantiruvchi ma'lumotlarni olish jarayonida o'z xususiyatiga ko'ra bevosita yoki bilvosita amalga oshirilishi mumkin"³⁹.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bevosita imij shakllantiruvchi ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri aloqa orqali hosil qilinadi. Bevosita imij shakllantiruvchi ma'lumotlar sirasiga kishi ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlari va tashqi ko'rinishi haqidagi axborotlarni kiritish mumkin. Bilvosita imij shakllantiruvchi ma'lumotlar vositachi kanallar va kishi faoliyati natijasida qabul qilinadi. Ma'lumki, kishining xulq-atvori nafaqat ongli balki ong osti ma'lumotlari bilan ham shartlanadi. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki atrofdagilarda biror-bir kishi, ijtimoiy guruh, mamlakat haqidagi tasavvurni shakllantirish uchun nafaqat ularning ongi balki ong ostiga ham ta'sir ko'rsatiladi. Bu esa imij shakllantirish texnologiyalarining muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek imij shakllantiruvchi ma'lumotlar chin yoki yolg'on, rasmiy yoki norasmiy, hujjatlashtirilgan (yozma ifoda etilgan) yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Rasmiy bilvosita imij shakllantiruvchi ma'lumotlar hujjatlar to'plami yoki og'zaki rasmiy bayonotlar ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Norasmiy bilvosita imij shakllantiruvchi ma'lumotlar esa afsonalar, mish-mishlar, uydirmalar ko'rinishida tarqatiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki "hoh rasmiy hoh norasmiy bo'lsin imij shakllantiruvchi ma'lumotlar chin yoki yolg'on bo'lishi ham mumkin"⁴⁰.

Zamonaviy psixologiya tamoyillaridan kelib chiqilsa, rasmiy xabarlarga nisbatan aholining ishonchi past bo'lgan an'anaviy jamiyatlarda mish-mishlar eng ko'p samara beradigan bilvosita imij shakllantiruvchi ma'lumot hisoblanadi. Sodaroq qilib aytganda, uzoq vaqt mobaynida totalitar rejimlar amal qilgan hududlarda ayni stereotip keyinchalik ham saqlanib qoladi. Albatta, ayni vaziyatni bartaraf qilish birmuncha vaqt talab qiladi. Zero, bunday mish-mishlarga nisbatan

³⁹ Ионин Л.Г. Идентификация и инсценировка // Социологические исследования, 1995, № 4.

⁴⁰ Грушин Б.А. Массовое сознание: опыт определения и проблемы исследования. М., 1968.

tanqidiy munosabatni shakllantirish uchun jamoatchilik fikri hamda ijtimoiy ong tubdan yangilanishi, unda ratsionallik elementlarining ortishi lozim. Kishilar psixologik ustanovkalariga mos ravishda shakllantirilib, tarqatilgan mish-mishlar jamoatchilik tomonidan oson va tez qabul qilinadi.

Biror-bir narsa, hodisa, kishilar, ijtimoiy guruh, mamlakatlar haqidagi fikrni hech qanday ma'lumotsiz ham shakllantirish mumkin. Masalan, muayyan ijtimoiy guruh haqidagi fikrni shakllantirish borasida so'z ketganda kishida avvalo o'sha guruh bilan muayyan munosabat shakllangan bo'lishi lozim. Umumiy guruh bilan o'rnatilgan munosabat keyingi bosqichda uning har bir alohida a'zosi bilan o'rnatiladi. "Bunday fikr shakllanishining psixologik mohiyati guruh a'zolari bilan yo'lga qo'yilgan shaxsiy munosabatlar hamda ularning muayyan darajada tez-tez tasdiqlanib turishida namoyon bo'ladi"⁴¹.

Yuqoridagi mulohazalar tahlillarini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, zamonaviy siyosatchining imiji deganda, uning turli-hil ijtimoiy guruhlar tasavvurida maxsus shakllantirilgan obrazi yoki qiyofasi tushuniladi. "Tabiiyki, mazkur obraz o'z-o'zidan emas, balki siyosatchining o'zi hamda uning imijmeykerlari tomonidan puxta o'ylangan holda amalga oshirilgan xatti-harakatlar natijasida shakllanadi"⁴². Maxsus ishlab chiqilgan siyosatchi obrazi sifatidagi yetakchining imiji asosini tashkil qiluvchi psixologik ta'sirga ega xususiyatlardan iborat elementlarni uch guruhga tasniflash mumkin. A.Gusal va S.Nedbaevskiylarning ta'kidlashicha, - "birinchi guruhga liderning jismoniy, psixofiziologik, xarakter, o'ziga xos qaror qabul qilish uslubi singari tavsifiy belgilardan tashkil topuvchi personal xususiyatlari kiradi. Lider obrazining tashkil qiluvchi elementlarning ikkinchi guruhiga uning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi, ijtimoiy holati kabilardan iborat bo'lgan ijtimoiy tavsifiy belgilari kiradi. Uchinchi guruhga esa yetakchi aks ettiradigan majoz elementini kiritish

⁴¹ Дженусов А.И. Различие структур и уровней развития политической культуры / Социально-гуманитарные знания, 1999, № 4.

⁴² Зайцевский П.Г. Избирательные технологии. М., 1999.

mumkin”⁴³. Unga ko‘ra siyosiy yetakchi kelajakdagi yangicha hayot hamda unga erishish yo‘lida qo‘llaniladigan harakatlar va chora-tadbirlar jamlanmasining ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda siyosiy yetakchi imijini yaratishni mazkur elementi qo‘llanilganda ro‘y berayotgan siyosiy hodisalar yetakchi shaxsi bilan aynanlashtiriladi. Mamlakat siyosiy kuchlarining konkret shaxslar bilan aynanlashtirilishi uning fuqarolar ongida shaxsiy munosabatlar darajasida oson qabul qilinadigan shakl kasb etishiga olib keladi. Natijada mamlakatda ro‘y berayotgan barcha siyosiy jarayonlar uchun mas’uliyat siyosiy yetakchiga yuklanadi. Shu ma’noda siyosiy yetakchi o‘z tarafdorlari uchun muayyan ideal muxoliflari uchun esa ro‘y bergan qiyinchiliklarning ramziga aylanadi.

Jamoatchilik fikrini shakllantirishda siyosiy yetakchining shaxsiy imiji bilan bir qatorda uning korporativ imiji ham hal qiluvchi o‘rin tutadi. Sodaroq qilib aytganda, siyosiy yetakchi mansub bo‘lgan tashkilot yoki uning jamoasi imiji jamoatchilik fikrini o‘zgartirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Omma tomonidan siyosiy imijni qabullash jarayoni bir qancha xususiyatlarga ko‘ra amalga oshiriladi. Siyosiy yetakchi obrazi borasidagi jamoatchilik fikrini shakllantirishda yolg‘on tasavvurlarning ham o‘rni beqiyosdir. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy yetakchi xususida uydirmalar va mish-mishlar tarqatish imkoniyati qanchalik keng bo‘lsa, shunga mutanosib ravishda uning ijobiy xislatlarini bo‘rttirib ko‘rsatish hattoki, ayni shaxsiyatda mavjud bo‘lmagan fazilatlarni ham nisbat berish ehtimoli shunchalik baland bo‘ladi. Agar jamoatchilik fikrida siyosatchi haqida salbiy tasavvurlar shakllanib ulgurgan bo‘lsa, mish-mishlar va uydirmalar ularning yanada ortishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy imijmeykerlik sohasida siyosatchining xususan ommaga yaxshi tanish bo‘lmagan siyosatchining qiyofasini yaratish jarayoniga birmuncha noan’anaviy tarzda yondashiladi. Aniqrog‘i, siyosatchi imijini yaratishda uning shaxsiy va professional sifatlari emas, unda omma ko‘rishni istaydigan fazilatlar jamlanadi. Ammo shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, biror-bir shaxsiyatga

⁴³ Гуцал А.Ф., Недбаевский С.Л. Портрет политического лидера в историческом интерьере // Стратегическая панорама, 1999, № 1-2.

mutlaqo bog‘lanmagan, umuman personallashmagan, faqatgina konstrukdan iborat siyosiy imijni yaratish imkonsiz. Bu esa o‘z imijini yaratayotgan siyosiy yetakchi hamda uning imijmeykerlari oldiga omma e’tiborini tortuvchi xususiyatlar hamda shaxsiy fazilatlarni o‘zaro muvozanat asosida sintezlash vazifasini qo‘yadi. Soddarroq qilib aytganda, siyosiy yetakchi o‘z imiji orqali ham omma e’tiborini torta olishi kerak, ham ayni jozibador xususiyatlarni o‘z shaxsiy fazilatlari orqali namoyon qila olishi kerak. Siyosiy yetakchi imijini yaratishda nafaqat uning shaxsiy sifatlari qolaversa, u hech qachon voz kechmaydigan hatto voz kechishni istamaydigan siyosiy maslaklariga ham alohida diqqat qaratish talab qilinadi. Shuningdek, siyosatchi hamda uning imijini yaratishda ishtirok etuvchi mutaxassislar jamoatchilik fikri hamda ommaning joriy davrdagi orzu-intilishlarini ham hisobga olishlari lozim. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, ilgari surgan g‘oyalari omma tomonidan qo‘llab-quvvatlaniladigan siyosiy yetakchilarning imiji muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan hisoblanadi.

Zamonaviy imijmeykerlik tadqiqotlari natijalariga e’tibor qaratilsa, jamoatchilik fikrini muvaffaqiyatli tarzda manipulyatsiya qila olgan siyosiy yetakchi imijlari u amal qiladigan sotsiomadaniy muhitda yashovchi ommaning orzu-umidlari hamda intilishlari bilan chambarchas aloqador bo‘ladi. Siyosiy yetakchi imijining jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayoniga oid element sifatidagi muvaffaqiyati qadriyatlar tizimi, siyosiy madaniyat darajasi va xususiyatlari, ijtimoiy ongdagi ustanovkalar va stereotiplar kabi bir qator zaruriy omillarga bog‘liq. Muayyan siyosiy yetakchi obrazining jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi jarayonlarini aniq tasavvur qilish uchun eng avvalo joriy vaqtdagi ommaviy ong holati, xususan alohida ijtimoiy guruhlar tomonidan mazkur imijni qabul qilish masalalari chuqur o‘rganilishi lozim.

Siyosiy imij bilan bir qatorda siyosiy miflar jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayoni tuzilmasining muhim elementi sanaladi. Siyosiy miflar jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayon tuzilmasi elementi sifatida E.Kassirer, A.Rozenberg va P.Sorokin izlanishlarida chuqur tadqiq etilgan. Ayni

tadqiqotlar tahlillari natijalaridan kelib chiqqan holda siyosiy miflarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Siyosiy miflar o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, aksincha ular ataylab, ongli ravishda, maqsadga muvofiq tarzda yaratiladi.

2. Siyosiy miflar manipulyatorlar tomonidan ongli ravishda kultlashtirilgan hamda ommaviy ong tomonidan o‘zlashtirilgan ijtimoiy orzu-umid va intilishlarga asoslanadi.

3. Siyosiy miflar manipulyator oldidagi istalgan axloqiy to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qiluvchi o‘zaro bir-birini istisno qiladigan hushyor hisob-kitob hamda mutaassib e‘tiqod xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

4. Siyosiy miflar jamoatchilik ongini manipulyatsiyalashning emotsional modeli tuzilmasiga xos elementi bo‘lganligi tufayli ularni ratsional dalil va isbotlar bilan bartaraf qilish imkonsiz. Shu ma’noda siyosiy miflarni gnoseologik nuqtai-nazardan noilmiy bilim shakliga kiritish mumkin.

Ammo joriy siyosiy voqeliklar bilan uzviy aloqadorlik kasb etganligi tufayli siyosiy miflarni to‘laqonli yolg‘on bilim deyish mumkin emas. Ta’bir joiz bo‘lsa, ularni “yarim haqiqatlar” deb atash mumkin. Ayni xususiyat tufayli ijtimoiy-siyosiy miflar ro‘y berayotgan siyosiy jarayonlarni oqlashga, ularning to‘g‘ri amalga oshayotganligini jamoatchilikka tushuntirishdagi samarador siyosiy manipulyatsiya texnologiyasi vazifasini bajaradi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ijtimoiy-siyosiy miflar o‘z mazmunida muayyan ziddiyatlarni ham aks ettiradi. Bir tomondan ular birmuncha barqaror xususiyat kasb etadi. Mazkur barqarorlik quyidagilarga asoslanadi:

– ommaviy ong va mifning o‘zaro shartlanganligi. Unga ko‘ra bir jihatdan mif omma ongida hosil qilinib, u tomonidan qo‘llab-quvvatlanilsa, boshqa jihatdan ommaviy ongning o‘zi ham ayni paytda mifga tayanadi;

– jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalashning siyosiy texnologiyalari tuzilmasining ayni elementi qo‘llanilayotgan sotsiumdagi intellektual madaniy tadrijiy taraqqiyot darajasidan qat’iy nazar ibtidoiy ong elementlarining

yashovchanlik xususiyati mif va xulq-atvorni idrok etish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi;

- odamlarning o'z siyosiy qiziqishlari va uning mifologik xarakterni aniqlashga qodir emasligi;

- ijtimoiy-siyosiy miflarning kishilar hayotiga ma'no baxsh etish xususiyatiga ega ekanligi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, siyosiy rejimlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy ongda uzoq muddat davomida muqim tarzda amal qiluvchi miflar ham mavjud bo'lib, ular kishilar uchun muayyan qadriyatlar tizimi hamda xulq-atvor shakllarini belgilab beradi.

Boshqa tomondan esa siyosiy miflar dinamik xususiyat kasb etadi. Ular bir muddat yo'q bo'lib ketishi, ehtiyojga qarab yana qayta paydo bo'lishi ham mumkin. Qolaversa, siyosiy miflar yashovchanlik xususiyatiga ega bo'lib, istalgan davrda boshqa asoslarga ko'ra yana qayta tiklanishi mumkin. Buni quyidagi holatlar bilan bog'liq ravishda izohlash mumkin. Birinchidan, istalgan mifni yaratish jarayoni eng avvalo jamoaviy ommaviy ong mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Zero, ayni ommaviy ong orqali siyosiy miflar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi jamoaviy xohish-istaklar o'zlashtiriladi. Ikkinchidan, miflar vujudga kelishi uchun jamiyatda ularga muvofiq psixologik holat jumladan, ijtimoiy tarang vaziyat mavjud bo'lishi taqozo qilinadi. Boshqacha qilib aytganda jamiyatda mazkur mifga ishonish istagi mavjud bo'lgan vaziyatdagina ommani dushmanlar, halokatlar kabilarga ishontirish mumkin.

Qolaversa, ijtimoiy-siyosiy miflar o'ziga xos maxsus texnologiyalar orqali ishlab chiqiladi. Aniqrog'i, ijtimoiy-siyosiy miflarning yaratuvchilari mazkur jarayonning puxta o'ylangan algoritmini ishlab chiqqan holda o'z rejalari va strategiyalarini ayni ketma-ketlikka qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiradilar. Ijtimoiy badiiy miflardan farqli ravishda siyosiy miflar to'laqonli ratsionallashtiriladi.

Ijtimoiy-siyosiy miflar yaratishning ko'plab usullari mavjud. Agar yuqorida aytilganidek, siyosiy miflar yaratilayotgan va tatbiq qilinadigan davrda mamlakat

muayyan inqrozni boshdan kechirmayotgan bo'lsa, siyosiy yetakchilar sun'iy tarzda omma e'tiborini muayyan muammolarga qaratadilar. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bunda siyosiy mif yaratuvchilari imkon qadar o'zlari hal qila olishlari mumkin bo'lgan muammolarni tanlab oladilar. "Dushman obrazi"ni shakllantirish ham siyosiy mif yaratishning o'ziga xos usullaridan biri sanaladi.

Shuningdek, nutq transformatsiyasi ham ijtimoiy-siyosiy miflar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sodaroq qilib aytganda, u miflarni bayon qilish usulini belgilab beradi.

Umuman olganda har qanday makon va zamonda siyosiy hokimiyatlar o'z maqsadlarini amalga oshirishda siyosiy miflardan unumli foydalanadilar. Ammo ular o'rtasidagi farq ulardan foydalanish darajasiga qarab belgilanadi. Siyosiy miflar yaratuvchi manipulyatorlarning destruktiv va konstruktiv maqsadlariga muvofiq tarzda miflar ham ayni yo'nalish va mazmunda bo'lishi mumkin. Konstruktiv siyosiy miflar siyosatchilarga o'zlarining asosiy funksiyalarini amalga oshirishda qo'llaniladigan mexanizm sanaladi. Zero, har qanday siyosat o'zi amal qiladigan sotsiumdagi ziddiyatlarni bartaraf qilish, xilma-xil guruhlar intilish va manfaatlarini muvofiqlashtirish va shu asosda kishilarni o'zaro integratsiyalashga intiladi. Mazkur vazifani bajarishda davlatning yuksak nufuzi hamda kuch-qudrati haqidagi siyosiy miflardan keng foydalaniladi. Garchi siyosiy miflar orqali davlat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini nazorat qilayotgandek taassurot qoldirishga urinsa-da, hech bir hukumat barcha narsani birdek nazorat qilishga qodir bo'lmaydi. "Hatto huquqiy davlatlarda ham korrupsiya, jinoyatchilik singari illatlar u yoki bu darajada mavjud bo'ladi"⁴⁴.

Ammo ayni yo'nalishda tarqatilgan miflarning afsona ekanligi ma'lum bo'lib qolsa, u nafaqat davlat hokimiyati, balki butun boshli jamiyat uchun katta xatarga aylanishi mumkin. Negaki, aslida kuchsiz va yuqori nufuzga ega bo'lmagan hukumatlar bunday vaziyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni hamda ijtimoiy tizimning to'laqonli amal qilishini ta'minlashga imkon topa olmasliklari mumkin. Bundan farqli ravishda kuchli davlat shunga mos tarzda uning nufuzli

⁴⁴ Кара - Мурза С. Манипуляция сознанием М., 2000 - <http://probib.narod.ru/>

hukumati kishilar hamjihatligini ta'minlash, shuningdek ularni istalgan ishga safarbar qilish jarayonini katta qiyinchiliklarsiz amalga oshira oladi. Tarixiy taraqqiyot konstruktiv siyosiy miflarga bo'lgan ishonch aksariyat hollarda jamiyatdagi muvozanat hamda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilganligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, mamlakatda qonun ijrosi yaxshi ta'minlangan sharoitda har qanday ko'rinishdagi siyosatni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bunday vaziyatlarda qonunning katta qudratga ega ekanligi haqidagi siyosiy miflar yaxshi samara beradi. Bunda qonun yoki buyruqlar jozibador hamda qo'rqituvchi kuchiga ega bo'ladi. U hamisha kishilarda "amal qissammikan, amal qilmasammikan" shaklida ifodalanuvchi ziddiyatli reaksiyalar hamda emotsional munosabatni yuzaga keltiradi. Bu esa o'z navbatida kishi yoki jamoa oldiga tanlov erkinligi yoki uning mavjud emasligi muammosini ko'ndalang qo'yib, unda baho, fikr, mulohaza, ishonch yoki shubhadan iborat ongning turli xil holatlari, rozilik yoki norozilik, chin dildan amal qilish yoki shunchaki taqlid qilish kabilarni yuzaga keltiradi.

Ayni vaziyatda bu shakldagi siyosiy miflarning yaxshi jihati shunda ko'rinadiki, u aholining muayyan qismida siyosiy qaror va buyruqlarni bajarish istagini uyg'otadi. Qonun kuchi haqidagi siyosiy miflarning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, u muayyan hal qilinmagan, hatto ayrim hollarda hal qilish umuman rejalashtirilmayotgan muammolarning go'yoki haqiqiy yechimini ko'rsatadi. "Shu ma'noda ayni shakldagi siyosiy miflar omma tasavvurida muvaffaqiyatsiz faoliyat olib borayotgan siyosatchilar manfaatlari uchun xizmat qiladigan davlat byurokratik apparatining samarador ishlayotganligi haqidagi taassurotlar uyg'otadi"⁴⁵.

Shuningdek, siyosiy miflar siyosatdonlar tomonidan muayyan murakkab iqtisodiy va ijtimoiy mummolarni hal qilishda inson resursini muvaffaqiyatli safarbar qilish uchun ham keng qo'llaniladi. Biror-bir mamlakat muayyan sotsial

⁴⁵ Дубин Б.В., Толстых А.В. Феноменальный мир слухов // Социс, 1995, № 1.

utopiyalarni qurishga, aholining keng jalb qilinishi xususan sobiq sovet mamlakatida kommunizm qurish haqidagi mif buning yaqqol misoli bo'la oladi.

Siyosiy miflarning ijobiy jihatlaridan yana biri shundaki, u kishilar xulq-atvorini boshqargani holda ularga muayyan yo'nalish berib, kundalik hayotda mo'ljal olishga o'rgatadi. Jumladan, siyosiy miflar orqali raqobatga va bozor munosabatlariga moslashish, biror-bir siyosiy voqea, masalan saylovlar jarayonida faol bo'lish kabi ko'plab ko'nikmalarni kasb etgan holda ularni maishiy darajada amalga oshirishga undaydi. Konstruktiv siyosiy miflar haqida yuqorida ilgari surilgan mulohazalar tahlillarini yaxlitlagan holda shuni aytish mumkinki, ular jamiyat funksiyalarining o'z me'yorida amal qilishiga ko'maklashib, xilma-xil ijtimoiy-siyosiy keskinliklarning oldini olib, shunga o'xshash murakkab muammolarni jismoniy kuch qo'llamasdan hal qilishga imkon yaratadi. Siyosiy miflarning xilma-xil pozitiv maqsadlarni amalga oshirishda ko'rsatadigan yordamidan qat'iy nazar ularni progressiv hodisa sifatida baholash qiyin. Negaki, ular keltirgan muvaffaqiyatlar zamon nuqtai-nazaridan qisqa muddatli bo'lib, ertami-kechmi ular mohiyatida yotgan yolg'on fosh bo'lib ketadi.

Siyosiy miflarning ijobiy yoki salbiy jihatlaridan qat'iy nazar ularning jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayonida unumli qo'llaniladigan quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, siyosiy miflarning manipulyativ ta'siri natijasida ijtimoiy olamning qonuniyatlari, soddaroq qilib aytganda, jamiyat taraqqiyoti mantig'i buziladi. Zero, xuddi moddiy borliqda bo'lgani kabi ijtimoiy borliq ham o'zining muayyan qonuniyatlariga ega;

Ikkinchidan, siyosiy miflarning manipulyativ ta'siri kishilar ongining deformatsiyasiga olib keladi. Natijada ayni ta'sirga uchragan manipulyatsiya obyektlari olam manzarasini buzilgan, soxta ko'rinishda tasavvur etadilar. Sodir bo'layotgan real jarayonlarga nisbatan reaksiya bildirishga qodir bo'lmay qoladilar. Soddaroq qilib aytganda, ular bu jarayonlarda faol ishtirok etmaydilar. Natijada esa jamiyat katta hajmdagi ongli ravishda tanlov amalga oshira oladigan,

qaror qabul qila oladigan hamda zaruriy xatti-harakatlarni qo'llay oladigan kishilarni yo'qotadi;

Uchinchidan, jamiyat taraqqiyotining strategik va taktik masalalari bo'yicha qarama-qarshi pozitsiyalarda turuvchi turli partiyalar vakillari tomonidan yaratilgan siyosiy miflar ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatga olib kelgan hoda jamiyatga og'ir, inqirozli vaziyat hamda yechim topish murakkab bo'lgan muammolarni yuzaga keltirishi mumkin;

To'rtinchidan, yuqorida ham ta'kidlagani singari nisbatan barqaror miflar ijtimoiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda yaratiladi. Bu esa garchi nisbiy barqaror miflarning ayrim qismlari saqlanib qolsa-da, qolgan qismlarining yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Nisbiy barqaror bo'lsa-da, siyosiy miflarning o'zgarishi ularga to'la-to'kis ishongan, faoliyatini ayni mif asosida tashkil qilgan insonlar hayotida chuqur salbiy iz qoldirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy miflar yo'q bo'lib ketganda ularning salbiy oqibatlarini mazkur mifni yaratgan manipulyatorlar emas, balki unga ishongan oddiy xalq hayotida yaqqol namoyon bo'ladi. Sobiq sovet mamlakatining parchalanib, unda keng qo'llanilgan kommunizm qurish haqidagi siyosiy mif yolg'onlarining fosh bo'lishi natijasida postsovet mamlakatlari aholisi hayotida ro'y bergan inqirozlar buning yaqqol namunasi bo'la oladi. Ahamiyatlisi shundaki siyosiy miflar yolg'onlarining fosh etilishi bilan uning manipulyativ ta'siri darhol bartaraf bo'lmaydi. Bu holatda ong buzilgan, fosh etilgan mif ta'siri ostida qoladi. Ongda mustahkam o'rin olgan, fosh etilgan, buzilgan siyosiy miflar joriy vaziyatda amal qilayotgan real miflardanda kuchliroq ta'sirga ega bo'lib boradi.

Ommaviy siyosiy ongni demifologizatsiyalash (siyosiy miflarning manipulyativ ta'siridan xalos etish) jarayoni bir nechta usullar orqali amalga oshiriladi. Buning uchun esa eng avval keng ommaga siyosiy voqelik va jarayonlar, shuningdek yetakchi siyosiy arboblarni hamda ularning tegishli xatti-harakatlari haqidagi siyosiy ma'lumotlarni olish uchun keng, ta'bir joiz bo'lsa cheklanmagan imkoniyat yaratish talab qilinadi. Sanab o'tilganlar va shunga o'xshash boshqa ko'plab masalalardagi ochiq va xolis axborot olish

imkoniyatining cheklanganligi mutanosib ravishda siyosiy uydirmalar hamda siyosiy miflarni yaratish uchun keng sharoit yuzaga keltiradi. Qolaversa, jamoatchilik fikrini siyosiy nuqtai-nazardan demifologizasiyalash eng avvalo kishining o'z hayotini tashkil etish usuli sifatidagi yuksak siyosiy madaniyatni tarbiyalashni taqozo etadi. Negaki siyosiy madaniyat siyosiy sohadagi xulq-atvor normalari hamda aktlarni amalga oshirish qoidalarini belgilab beradi.

Buning uchun birinchi navbatda OAVlarning o'z faoliyatlari uchun mas'uliyatni kuchaytirish omiliga murojaat qilish zarur. Qolaversa, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining intensiv taraqqiyoti mutanosib ravishda jamoatchilik fikrini siyosiy manipulyatsiyalash tizimining elementlaridan biri bo'lgan siyosiy miflarni cheksiz miqdorda nusxalash hamda cheklanmagan hajmda tarqatish imkoniyatini oshiradi. Ayni jarayonda OAVlar siyosiy miflar yaratishning kuchli mexanizmi sifatida namoyon bo'lib, manipulyatsiya subyektlari ulardan samarador manipulyatsiyalash kanallari o'laroq foydalanishlari mumkin.

OAVlar siyosiy miflarni kishilar ongiga singdirish bilan bir qatorda dunyoning siyosiy manzarasini ongli ravishda qabullash ko'nikmasini hosil qilish imkoniyatiga ham ega. OAVlarning kuchli ta'sir imkoniyati shunda namoyon bo'ladiki, kishilar o'zlari yashayotgan mamlakat yoki butun dunyoda sodir bo'layotgan siyosiy voqea va jarayonlarni aynan ular orqali bilib oladilar. Shuning uchun ham OAVlar muayyan voqea-hodisalarga oid faktlarni bo'rttirib ko'rsatish yo'li bilan miflar hosil qilib, ularning kishilar ongida manipulyativ ta'sir shaklida tatbiq qilinishi uchun emas, balki kishilarning dunyo siyosiy manzarasini ongli ravishda qabul qila olish imkoniyatlarini yuzaga keltirishga xizmat qilishi lozim.

Siyosiy xabarlarda istiqbolni bashorat qilish bilan bog'liq ma'lumotlarning mavjud emasligi, ularning fragmentar xususiyat kasb etishi kishilarni muayyan siyosiy hodisalarga nisbatan o'z fikr va mulohazalarini shakllantirish imkoniyatidan mahrum etadi. Bu esa bunday ko'rinishdagi siyosiy xabarlar iste'molchilari tomonidan ularda ilgari surilgan talqinlarni to'g'ridan-to'g'ri, mutlaq haqiqat sifatida qabul qilinishiga olib keladi. Ayniqsa, siyosiy hodisa va

jarayonlarda hech qachon bevosita ishtirok etmagan aholi qatlamining ayni ko‘rinishdagi manipulyativ ta’sir ostiga tushib qolishlari ehtimoli baland.

Qizig‘i shundaki, siyosiy miflar jamiyat taraqqiyotining ilgarilanma harakatiga to‘g‘ri proporsional tarzda takomillashib boradi. Aks holda bunday miflarni jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalovchi vosita sifatida ommaviy siyosiy ongga tatbiq qilish hamda muayyan siyosiy maqsadlarga erishish uchun ulardan foydalanish imkoniyati tobora cheklanib boradi. Mazkur tendensiya bilan kurashish uchun esa ijtimoiy kuchlarning hal qiluvchi roli va mas’uliyati mutanosib ravishda oshib borishi lozim. Siyosiy miflarning keng yoyilishiga qarshi kurashish jarayoning murakkab jihati shundaki, ayni yo‘nalishdagi chora-tadbirlar kishilar ongini siyosiy miflarning manipulyativ ta’siridan butkul tozalash imkoniyatiga ega emas. Negaki, boshqa miflar qatori siyosiy miflar ham shaxsiy ong darajasida qabullanib, ularga qarshi kurashish jarayonida jamiyat a’zosining har bir vakili bilan alohida shug‘ullanish jismonan imkonsiz sanaladi. Boshqacha qilib aytganda, bu jarayon birmuncha individual xususiyatga ega bo‘lib, u har bir alohida shaxsning psixologik sifatlaridan kelib chiqadi. Bu esa o‘z navbatida siyosiy miflarning manipulyativ ta’siriga qarshi kurash jarayonini shaxs sotsializatsiyasi darajalarining oila, maktab, oliy ta’lim, mehnat jamoasi singari barcha bosqichlarida mafkuraviy immunitetni hosil qilish orqali amalga oshirishni talab qiladi.

Yuqorida ilgari surilgan mulohazalar tahlillari natijalarini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayoni boshqa maqsadida amalga oshiriladigan maxsus tashkillangan yashirin ta’sir, tasavvurlarni sxemalashtirish, xulq-atvorni dasturlashtirish hamda manipulyativ ta’sirga uchragan obyekt xatti-harakatlarining ehtimoliy natijalarini oldindan taxmin qilish imkonini beruvchi tizim sifatida ta’riflash mumkin. Bu esa o‘z navbatida jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayoni murakkab tuzilmaga ega bo‘lgan professional faoliyat degan xulosaga kelishga imkon beradi. Jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayoni ma’lumotlarga ommaviy tus berish hamda psixologik bosim bilan tavsiflanuvchi turli darajalarga ega. Shunga

ko‘ra ayni faoliyat siyosiy imij va siyosiy miflar yaratishda o‘z ifodasini topuvchi muayyan protseduralar orqali amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash turlari, ularni qo‘llashning siyosiy texnologiyalari hamda ayni ko‘rinishdagi ta’sirga ega axboriy resurslarni aniqlash masalalarini tadqiq etish zaruratini yuzaga chiqaradi. Shuni nazarda tutgan holda mazkur tadqiqot ishining keyingi bobida jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash bilan bog‘liq ayni jihatlar tahliliga alohida diqqat qaratiladi.

1.3 Siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarining axboriy sotsiopsixologik konsepsiyalari

Ommaviy siyosiy ongni manipulyatsiyalash jarayonida axboriy texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. OAVlar zamonaviy axborotlashgan jamiyatda psixologik urush usullari va metodlarini samarador amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda inson axborot maydonida kun kechirmoqda. Shu nuqtai-nazardan inson dunyoning istalgan chekkasi haqidagi ma’lumotni qo‘lga kiritish imkoniyatiga ega. Ammo OAV taqdim etgan shakldagi informatsiyani iste’mol qilmoqda. Har qanday sohada faoliyat yurituvchi kishi o‘zini OAV vositalarida yetarlicha namoyon qilolsagina omma e’tiboridagi kishiga aylana oladi. Reallikdan ajralgan simvollar olamida bo‘lish, kishilarning o‘z manfaatlariga qarshi chiqishlarini anglatadi. Reallik ikkinchi daraja kasb etib, bo‘ysunuvchi rol bajarishi mumkin. Bu ma’noda insonni erkin deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, axboriy ta’sirning ko‘plab usullari ishlab chiqilgan sharoitda inson erkinligi yanada cheklanadi. Bunday usullarni umumlashtirgan holda ifodalash uchun “miyani yuvish” (Brain washing) atamasi qo‘llaniladi. Brain washing uslubi orqali kishilarni zombilashtirish, passiv, itoatkor shaxsiyatlarni shakllantirish, xalqni oson boshqariluvchi ommaga aylantirish mumkin. Bunday sharoitda inson huquq va manfaatlar, demokratiya, saylov erkinligi haqida gapirish absurd hisoblanadi. Shu tariqa avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar butkul teskari talqin qilinib, qorani oq, yomonni yaxshi qilib ko‘rsatiladi.

Shunday qilib, ommaviy kommunikatsiya vositalari “omma” kishisini yuzaga keltiradi. Ayni paytda kishilarni bir-birlaridan ajratgan holda kishilar o‘rtasidagi bevosita an’anaviy aloqalarni uzib qo‘yib, mazkur aloqalarni televideniya va internet singari vositalar bilan almashtiradilar. “Omma” kishisi impulsiv, tez o‘zgaruvchan xususiyat kasb etib, faqatgina qisqa muddatli harakat dasturlariga moslashgan bo‘ladi. Ko‘pincha bu turdagi odam real voqelikdan ko‘ra uning illyuziyasini afzal biladi. Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy axborotlashgan jamiyat o‘zida ijtimoiy tuzilma va hokimiyatning alohida tipini namoyon qiladi.

Omma kishisi o‘rta saviyadagi, sodda, manipulyatsiyaga ta’sirchan obyektga aylantiriladi. Garchi omma kishisining ongi birmuncha tuzilmaga ega bo‘ladi. Ammo shunga qaramasdan onga OAVlar tomonidan ko‘p marta taqdim etilgan tayyor mulohazalar kiritilib, ular ommaning xulq-atvori, baholari hamda reaksiyalarini tartibga soluvchi, belgilab beruvchi, cheklanishlar bilan boyitilgan, kishini boshqarishga mo‘ljallangan ko‘rinmas tuzilmani shakllantiradi.

Axboriy blokada samarador informatsion texnologiyalardan biri hisoblanadi. Informatsion blokada o‘z navbatida axboriy ustunlik bilan doimiy aloqadorlik kasb etadi. Ulardan jamoatchilik ongini manipulyatsiyalashda harbiy mojarolar paytida ham, barqaror davrlarda ham birdek unumli foydalaniladi. Muayyan masala bo‘yicha keyinchalik, go‘yoki muhim, zaruriy axborotni tarqatish uchun axboriy vakuum hosil qilinadi. Masalan, hukumat tuzilmalari biror-bir axborotni keyinchalik muqobil variantlarsiz yagona haqiqat sifatida tarqatish uchun bloklaydilar. Natijada, aholi orasida mazkur axborotga nisbatan qiziqish kuchayadi. Bu esa ularni kengroq makonda tezroq tarqatish imkonini shakllantiradi. Yuzaga kelgan vaziyat esa sodir bo‘layotgan hodisalarni manipulyator maqsadiga muvofiq bir xil talqin qilish hamda kishilarni zombiga aylantirish imkonini ta’minlaydi. Bu holatda masala yuzasidan OAVlar shakllantirgan pozitsiyani o‘zgartirish imkonsiz bo‘lganligi tufayli, o‘zgacha nuqtai-nazarlar ommagacha yetib bormaydi.

G.Pochepsov axborot makonini bloklangan tarzda nazorat qilishni quyidagicha tasniflaydi:

1) Verbal beglilarni nazorat qilish. Tarkibi salbiy xarakter dagi so‘zlardan tozalangan ifodalar buning yaqqol misoli bo‘lib xizmat qiladi;

2) Ekranda salbiy kayfiyatni uyg‘otishga xizmat qiluvchi vizual suratlardan foydalanishni nazorat qilish;

3) Bir talqinlilikning nazorati. Voqeani bayon qilishda va uni talqin qilish uchun yagona asosning shakllantirilganligida o‘z ifodasini topadi⁴⁶.

Shuningdek, sharhlash ham jamoatchilik ongini manipulyatsiyalashda qo‘llaniladigan axboriy texnologiyalarning kuchli ta’sirga ega usullaridan biri hisoblanadi. Bunda jamoatchilik ongini manipulyator maqsadlariga muvofiq tarzda yo‘naltirish nazarda tutiladi. Voqea haqidagi faktlar sharhlovchining talqinlari bilan birgalikda taqdim etiladi. Bunda mazkur hodisani tushunishning bir necha ratsional va sodda variantlari taklif qilinadi. Mazkur variantlarning haqiqatga yaqin ko‘rinish kasb etishi sharhlovchining mahoratiga bog‘liq.

Jamoatchilik ongini manipulyatsiyalash jarayonida keng qo‘llaniladigan axboriy texnologiyalar usullarining yana biri sifatida faktlar konstatatsiyasini ko‘rsatish mumkin. Bunday xabarlarni nufuzini oshirishda mashhur jurnalistlar, jamoat, siyosat va fan arboblari kabi jamiyatda muayyan mavqega ega “yetakchi shaxs”larning qarashlaridan keng foydalaniladi. Nufuzli kishilar fikrlariga qarshi chiqish, murakkab psixologik holat hisoblanadi. Bu o‘z navbatida jasorat va iroda erkinligini talab qiladi. “Bunda turli resurslarga ega bo‘lgan manipulyatorlar jamiyatning turli qatlamlari uchun nufuzga ega bo‘lgan shou-biznes vakillari, hurmatli akademiklar, o‘z fikrida sobit turadigan huquq himoyachilari, bloggerlar, jurnalistlar, ishbilarmonlar singarilardan keng foydalanadilar”⁴⁷.

Ba’zan esa aksincha, avval keng jamoatchilik diqqatini tortgan siyosiy aksiyalardan chalg‘itish maqsadida ham qat’iy dasturlar qo‘llaniladi.

Qolaversa, axboriy texnologiyalarning tarixni qayta yozish yoki uni soxtalashtirish usulidan ham tez-tez foydalaniladi. Bu uzoq istiqbolga mo‘ljallangan uslub bo‘lib, u zarur vaqtda kerakli dunyoqarashni shakllantirishga

⁴⁶ Почепцов Г.Г. Коммуникативные технологии двадцатого века. М. 2000. С-91

⁴⁷ Гринберг Т.Э. Политическая реклама: портрет лидера. М., 1995. С-88

xizmat qiladi. Butun boshli jamiyat “ongini yuvish”da bir nechta avlodlarda sog‘lom fikr shakllanishiga to‘sqinlik qilish uchun keng ko‘lamli manipulyatsiya dasturlari qo‘llaniladi. Buning uchun eng avvalo tarixiy xotirani yo‘q qilish nazarda tutiladi.

Zamonaviy manipulyatsiya texnologiyalari kishilar ongida asrlar osha real voqelikka tayangan holda tarixiy tajriba asosida shakllangan bilimlarni buzib, uni yangitdan, manipulyatorlar tomonidan hosil qilingan, sun‘iy bilim bilan almashtirishga qodir. Ijtimoiy shakllantirilgan tarixiy voqelik manzarasi individga kitoblar, ma‘ruzalar, radio, matbuot, teatr tomoshalari va kinofilmlar kabi vositalar orqali uzatiladi.

Biror-bir mulohaza yoki g‘oyani qayta-qayta takrorlagan holda, kishilarni uning oddiy haqiqat ekanligiga ishontirib, uni o‘ylamasdan qabul qilishga ko‘niktirish singdirishning samarador usullaridan biri sanaladi. Insonga o‘zi eslagan narsa ishonchli bo‘lib tuyuladi. Garchi, mazkur eslash jarayoni oddiy reklama roligi orqali mexanik tarzda kechsa ham uning ishonchlilik darajasi ortib boraveradi. Shuning uchun ham raqibning g‘oyasi va nazariyalariga ta‘sir ko‘rsatishdan ko‘ra, uning kundalik ongi, maishiy xohish-istaklari hamda odatiy fikrlarini o‘zgartirishga urinish mahsuldorroq bo‘ladi.

Almashtirish “ikki standartlik”ning keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur usulga ko‘ra, salbiy holatlarni ifodalashda ijobiy vaziyatlardan foydalaniladi (yoki aksincha). Ayni usulni qo‘llashdan asosiy maqsad majburiylik, zo‘ravonlikka yo‘naltirilgan vaziyatlarda ham kishilar tasavvurida ijobiy imij hosil qilishdan iborat. Masalan, isyonlar, tinch namoyishlar yoki qarama-qarshilik, “bosqinchilik harakatlari” esa ozodlik uchun kurash, “yollanganlar” esa ko‘ngillilar deb ataladi.

Qarama-qarshilik tamoyili senzura yoki tuhmat uchun javobgarlikka tortilish xavfi kabi xatarli vaziyatlarda haqiqatni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish imkoni bo‘lmagan, ammo uni aytishga ehtiyoj kuchli bo‘lgan paytlarda qo‘llaniladi.

Psixologik shok ham birmuncha kuchli samara beruvchi usullardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib OAVlarda inson o‘limi bilan bog‘liq ko‘plab

xabar va lavhalar tez-tez chop etilmoqda. “Urushning adolatli yoki adolatsizligiga qaramasdan uning oqibatlariga oid videolavhalar namoyish etilganda tomoshabinlar ong ostida mazkur aktlarni sodir etgan tarafga nisbatan salbiy taassurot uygʻonadi”⁴⁸.

Reytinglashtirish usulini yuqorida koʻrib chiqilgan faktlarni bayon qilish metodining oʻziga xos koʻrinishi sifatida tavsiflash mumkin. Sotsiologik tadqiqotlar natijalarini chop etish orqali jamoatchilik fikriga taʼsir oʻtkazish psixologlar tomonidan allaqachon taʼkidlab oʻtilgan. Nomzodlarni saylashda saylovchilarning 10% dan 25% qadari ovoz berishida sotsiologik tadqiqotlar natijalarini chop etish usuli hal qiluvchi oʻrin tutadi. Tabiiyki, nomzodlarning kuchlilariga koʻpchilik, kuchsizlariga esa kamchilik ovoz beradi. Bu yerda oʻrtastatistik aholining hamma qatori boʻlishga (eldan qolmaslikka) intilishida oʻz aksini topuvchi psixologik fenomen amal qiladi. Shu tariqa sotsiologik tadqiqotlar reytinglarida yuqori oʻrin olgan kishilar saylovlarda ham koʻproq ovozni qoʻlga kiritish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Odatda soxta reytinglar ilmiylik niqobi ostida berilib, ularda taxminan, “soʻrovnoma mamlakatning barcha hududlarida oʻtkazildi. Soʻrovnomada 3562 nafar respondent qatnashdi. Barcha ijtimoiy turdagi ijtimoiy toifalar va yosh kategoriyalari nazarda tutilgan. Oʻrtacha statistik xatoning chegara qiymati 1,5% dan oshmaydi va h.k.”, degan yozuv aks etib turadi. Bu shakldagi chiroyli soʻzlar va ilmiy atamalar kishilar ongini gipnozlash darajasidagi taʼsirga ega boʻladi.

Tezkorlik yoki sensatsion usul umumiy taʼsir usuli sifatida tavsiflanib, jamoatchilik ongida asabiy va tajanglikni oshirish hamda psixologik himoyani buzib oʻtishga xizmat qiladi. Jamoatchilik ongida shakllantirilgan bunday asabiylik va tajanglik vaziyati inqiroz hissini kuchaytirib, kishilarda muayyan hodisani tanqidiy tafakkur chigʻirigʻidan oʻtkazish qobiliyatini pasaytirgan holda manipulyator koʻzlagan maqsadni manipulyatsiya yoʻnaltirilgan obyektlar ongiga samarador singdirishni taʼminlaydi. Manipulyatsiya auditoriya psixologik himoyasining mobillashuv jarayonidan ilgarilab ketgandigina, manipulyator

⁴⁸ Почепцов Г.Г. Информационные войны. М., 1999.

g'oyalarining kishilar ongiga singdirilishi samarador amalga oshirilib, uning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Aslida xabarning favquloddalik xususiyati yolg'on va sun'iy tarzda hosil qilingan bo'ladi. Ba'zida xabarning sensatsion shaklga kiritilishi diqqatni chalg'itish uchun amalga oshiriladi.

G.Shiller ta'kidlashicha: "Xuddi reklama diqqatni jamlashga xalaqit berib, qayta-qayta uzilgan xabarning vaznini tushirgani singari, axborotni qayta ishlashning yangi texnologiyalari ham efirni keraksiz xabarlar bilan to'ldirish imkonini beradi. Bu esa axborotni qabullash jarayonini murakkablashtirib, individni xabarning qo'shimcha chalg'ituvchi lavhalar ta'sirida yo'qolgan asl ma'nosini besamar tarzda izlashga majbur qiladi"⁴⁹.

Shu tariqa keraksiz xabarga sensatsionlik xususiyatini berib, uni asosiy xabar beriladigan efir vaqtining oralariga joylagan holda kishilar diqqatini chalg'itish orqali aholi bilishi mumkin bo'lmagan xabarlar bekitiladi. Boshqacha qilib aytganda, ikkinchi darajali xabarning sensatsiyasi orqali mashmashalar bostirilib, birlamchi ahamiyat kasb etuvchi xabar unuttiriladi. Shu ma'noda sensatsionlik "diqqatni chalg'itish" usuli bilan uzviy aloqadorlik kasb etadi.

Assotsiatsiyalar hosil qilish usuli ham bu borada o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunda jamoatchilik diqqat markazida turgan obyektga sun'iy ravishda manipulyator maqsadiga muvofiq ijobiylik yoki salbiylik qiyofasi yuklanadi. Mazkur usulni amalga oshirishda metaforalardan keng foydalaniladi.

Manipulyatsiyalash jarayonida psixotexnologiyalar ham yaxshi samara beruvchi vositalardan hisoblanadi. Hattoki mazkur texnologiyalarni tadqiq etishga qaratilgan "siyosiy psixologiya" deb nomlanuvchi nazariya ham mavjud. Mazkur sohadagi yetakchi tadqiqotlar sifatida G.M.Andreeva, N.N.Bogomolova, L.Y.Gozman, Y.Shestopal, G.T.Deligenskiy, V.N.Ivanov, Y.V.Irxin, A.K.Markova, V.Odayniklarning ishlarini keltirib o'tish mumkin. Subyektning muayyan vazifani hal qilishga undovchi psixosomatik ta'sir ko'rsatishning izchil metodlari, usullari va yo'llari yig'indisiga psixotexnologiyalar deyiladi. Psixotexnologiyalarni oqilona tanlab olish manipulyatorga jamoatchilik ongida kishilar o'zlarida qo'llay oladigan

⁴⁹ Шиллер Г. Манипуляторы сознания. М., 1980.

sotsial algoritmlarni shakllantirish orqali u nazarda tutgan natijalarga muvaffaqiyatli erishish imkonini beradi.

Psixotexnologiyalarning rivoji faktlarga tayanuvchi ishontirish kommunikatsiyalarining muayyan maqsadni ongga singdiruvchi kommunikatsiyalar sari transformatsiyalashuviga olib keldi. Mazkur sohada faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilar asosan ong osti sohasiga tashqi ta'sir ko'rsatishga qodir vosita va metodlarni ishlab chiqishga diqqat qaratmoqdalar. Bunda ular kishilarning holatlari, xulq-atvorlari hamda psixik jarayonlarni maqsadga muvofiq tarzda modifikatsiyalash orqali, ongni tashqi ta'sirlarga uchrashdan nazorat qilishni ko'zda tutadilar.

So'nggi yillarda kishilar ongiga ta'sir ko'rsatish usul va texnologiyalari psixolingvistika, suggestivlingvistika, neyrolingvistik dasturlash, erikon gipnozi va idrok psixologiyasi sohalarida chuqur tadqiq etilmoqda. Mazkur yo'nalishlarga oid tadqiqotlarda ishlab chiqilayotgan texnologiyalar birinchi navbatda ong osti sohasidagi idrokka qaratilganligi hamda ta'sir ko'rsatishning yuqori samaradorlik ko'rsatkichlarini namoyon qilayotganligi bilan ajralib turadi.

“Siyosiy psixologiya” tushunchasi ijtimoiy-gumanitar fan sohalarida asosan siyosiy ong shakli va siyosiy fan sohasi ma'nolarida qo'llaniladi. Siyosiy psixologiya siyosiy ong shakli sifatida o'zida siyosiy hodisalarga nisbatan kishilarning hissiy-emotsional tuyg'ulari hamda ular haqidagi tasavvurlaridan tashkil topuvchi ma'naviy hosilalar jamlanmasini namoyon qiladi. Siyosiy psixologiya kishilarning siyosiy voqelikni ijtimoiy psixologik nuqtai-nazardan qabullash jarayonini o'rganuvchi, shuningdek, fuqarolarning siyosiy xulq-atvori hamda ularning ongi va ong ostiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini tadqiq etuvchi siyosiy fan sohasi hisoblanadi. Siyosiy psixologiyaning tadqiqot doirasiga kiruvchi muammolar qatoriga turli ijtimoiy guruhlar va butun boshli xalqni tarixiy taraqqiyotga safarbar qilish maqsadida ularning hissiyotlari va emotsiyalariga ta'sir ko'rsatish, jamiyat siyosiy hayotida jamoatchilik fikrining o'rni, omma kayfiyatining ijtimoiy shartlanganligi va uning dinamik taraqqiyoti kabilarni kiritish mumkin.

Siyosiy psixologiyaning ijtimoiy-gumanitar fan sohalaridagi o'zni masalasi bahsli bo'lib, Yevropa an'anasiga ko'ra ayni yo'nalishga mustaqil fan sifatida qaralsa, Amerika an'anasiga muvofiq u umumiy siyosiy fanlar majmuasining elementlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar siyosiy jarayonlardagi psixologik fenomenlarning o'zni masalasida qanday pozitsiyada turishlariga qaramasdan, ularning barchasi siyosiy psixologiya fanlararo tadqiqot sohasi ekanligini yakdillik bilan ta'kidlaydilar. Mazkur fanlararo tadqiqot sohasida siyosat falsafasi, antropologiya, sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya va siyosatshunoslik fanlari kategoriyalari birgalikda qo'llaniladi. "1978-yilda oltmish mamlakatdan mingdan ortiq mutaxassisni o'zida birlashtiruvchi xalqaro siyosiy psixologiklar assotsiatsiyasi tashkil etildi"⁵⁰.

Siyosiy psixologiya tarixi haqida gap ketganda ayni soha asoschilaridan biri bo'lgan G.Tard va uning asarlarini yodga olishga to'g'ri keladi. Bunday asarlar qatoriga 1890-yilda chop etilgan "Taqlid qonunlari", 1895-yilda "Ijtimoiy mantiq", 1902-yilda "Jamoatchilik fikri va olomon", 1903-yilda "Shaxs va olomon", 1906-yilda "Ijtimoiy qonunlar" kabilarni kiritish mumkin. Taqlid fenomeni ko'plab tadqiqotchilarda qiziqish uyg'otgan bo'lib, ulardan farqli ravishda G.Tard uning ijtimoiy hayotdagi rolini mutlaqlashtirgan holda ijtimoiy psixologik hodisa sifatida tavsiflaydi. Taqlidni universal ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflagan G.Tard, biologiyadagi irsiylik, fizikadagi molekulyar harakat tushunchalari singari mazkur fenomen orqali butun ijtimoiy va siyosiy hayotni tushuntirishga urinadi.

Taqlidni bir necha turlarga ajratish mumkin: 1) ratsionallik darajasiga ko'ra mantiqiy va nomantiqiy; 2) izchilligi va harakatlanish mexanizmiga ko'ra ichki va tashqi; 3) barqarorlik darajasiga ko'ra moda taqlidi va urf-odat taqlidi; 4) ijtimoiy tabiatiga ko'ra sinf ichidagi taqlid va bir sinfning ikkinchi sinfga taqlidi. Amaliy jihatdan urf-odatlar, moda, din, an'analar singari deyarli barcha ijtimoiy-siyosiy fenomenlar zahirida taqlid yotadi. Gipnotizm taqlidning tabiatini belgilab beruvchi asosiy elementlardan hisoblanadi.

⁵⁰ Гаджиев К.С. Политическая философия - М.,1999. 56-С.

G.Lebon o'zining "Sivilizasiya evolyutsiyasi" (1895-yil), "Ommaning psixologiyasi" (1896-yil), "Sotsializm psixologiyasi" (1908-yil) asarlarida jamoaviy xulq-atvorning ijtimoiy psixologik omillariga alohida e'tibor qaratadi. U ommaning individlarining xulq-atvorlaridagi irratsional tendensiyalarni birlashtiruvchi universal ijtimoiy psixologik qonunni topishga intiladi. G.Lebon bu qonunni ommaning ma'naviy birligi deb ataydi. Unga ko'ra jamoaviy xulq-atvor shakli alohida individlarga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ulardagi o'ziga xos xususiyatlarning yo'qolib borishiga olib keladi. "Ommaning kishilar fikrlari va hissiyotlari bir yo'nalishga qarab mo'ljallangan, yuqorida ta'kidlangan "kishilarning ma'naviy birligi" deb ataluvchi ijtimoiy psixologik qonuniyat namoyon bo'ladi"⁵¹.

Siyosiy psixologiya asoschilaridan biri bo'lgan Vilgelm Vundt o'zining "Fiziologik psixologiya asoslari" (1880-yil), "Xalqlar psixologiyasi muammolari" (1912-yil) kabi asarlarida birinchilardan bo'lib, katta sotsial psixologik hodisalarning tuzilmasi masalasini ko'tarib chiqdi. Uning xalqlar psixologiyasi hamda Lester Uordning "Dimanik sotsiologiya" (1883-yil), "Sivilizatsiyaning psixologik faktorlari" (1901-yil) nomli tadqiqotlarida, Spenser g'oyalari tanqid qilinib, sotsiologiya asosida biologiya emas, psixologiya prinsiplari yotishi g'oyasini ilgari suriladi. Ularning fikricha ijtimoiy hayot xususan siyosatda aqldan ko'ra his-tuyg'ular ustunlik kasb etadi. Shuni nazarda tutgan holda Lester Uord hissiyotlari kuchli bo'lgan insonlar tarixiy taraqqiyot jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatganliklarini ta'kidlab o'tadi.

"Jinoiy olomon" (1891-yil), "Sektalar psixologiyasi" (1895-yil) asarlari muallifi, ijtimoiy psixolog, kriminalist italiyalik S.Sigelni ham mana shunday tadqiqotchilar qatoriga kiritish mumkin. U ko'pchilik tomonidan takrorlanadigan jinoyatlar manbalari tadqiqi bilan shug'ullangan. U olomon tomonidan sodir etiladigan "huquqbuzarliklarning sababini" "harakatning irratsional dinamikasida" ko'radi. S.Sigelning ta'kidlashicha, ommaning psixologiyasining o'ziga xos xususiyati uning instinktiv tabiatida namoyon bo'ladi. Ommaning sharoitida kishilar xulq-atvorini ongli ravishda boshqarish tabiiy ravishda yo'qqa chiqadi. Zero, ommani tashkil

⁵¹ Лебон Г. Психология народов и масс - <http://www.duel.ru>

qilgan individlarning kayfiyati va xulq-atvori irratsional xususiyat kasb etib, shunga ko'ra ularning harakatlari va xulq-atvorlarini nazorat qilish imkonsiz bo'lib qoladi. Shu ma'noda ommada to'plangan turli emotsional xususiyatlar jinoiy harakatlar uchun o'ziga xos zamin yaratadi.

Mazkur masala rus tadqiqotchisi V.M.Bexterevning "Ijtimoiy hayotda singdirishning roli" (1898-yil), "Obyektiv psixologiya" (1907-yil), "Ijtimoiy psixologiyaning obyektiv fan sifatidagi predmeti va vazifasi" (1911-yil), "Jamoaviy refleksologiya" (1921-yil) asarlarida ham jiddiy tadqiq etilgan. Uning asarlarida jamoatchilik kayfiyati guruh va omma psixologiyasining asosiy hodisalari sifatida tadqiq etiladi. Uning fikricha, jamoatchilik kayfiyati o'zida ommaviy ijtimoiy psixologik hodisalarni namoyon qiladi.

Yuqorida tahlil qilingan konsepsiyalarda kishilar ijtimoiy guruhlar va ommaning siyosiy xulq-atvori, psixologik xususan ong osti tamoyillariga tayangan holda tushuntiriladi. Ko'rinib turibdiki, zamonaviy siyosiy psixologiyaning g'oyaviy ildizlari sanab o'tilgan mualliflardan tashqari boshqa ko'plab tadqiqotchilarning ishlariga ham borib taqaladi.

Ommaviy siyosiy ongga manipulyativ ta'sir ko'rsatish vositasi sifatidagi psixotexnologiyalar haqida gap ketganda, kishilarning qabullash psixologiyasiga asoslanuvchi juda ko'plab ta'sir o'tkazish texnologiyalari mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim. Bundan tashqari ko'plab maxsus manipulyatsiyalash metodlari ham mavjud.

Ana shunday usullardan biri sifatida, xabarlarni yagona oqimda uzatishni nazarda tutuvchi fragmentatsiya metodini ko'rsatish mumkin. Mazkur jarayonda muayyan tendensiyaning alohida ilg'ab olish birmuncha murakkab hisoblanadi. Ommaviy iste'mol nuqtai-nazaridan esa bu holatda muayyan tendensiyaning alohida ajratib ko'rsatish deyarli imkonsiz. "Oq shovqin" usuli fragmentatsiya metodining yorqin misoli bo'la oladi. Unga ko'ra shunchalik ko'p xabarlar uzatiladiki, natijada faktlarni idrok qilish darajasi pasayib, ularni saralash imkonsiz bo'lib qoladi. Mazkur usulga ko'ra "shovqin" juda miqdordagi tekshirilmagan hamda biror-bir faktga asoslanmagan xilma-xil izohlar hamda o'zaro zid fikrlar orqali hosil

qilinadi. Shuningdek, “shovqin” murakkab nazariy faktlarni yoritish go‘yoki aqlii tuyuladigan sharhlarni amalga oshirish orqali ham yuzaga keltirilishi mumkin”⁵².

Ana shunday metodlardan yana biri sifatida “nuqtai-nazarlarning cheklangan muvofiqligi” metodini ham keltirib o‘tish mumkin. Unga ko‘ra, “manipulyatorlarni qoniqtirmasa-da ular tomonidan ilgari surilgan muayyan nuqtai-nazar hujumkorlik xususiyatini kasb etmaydi. Ammo u asta-sekinlik bilan manipulyatorlar nuqtai-nazarini omma ongiga singdirib boradi. Bunda dastlab mavjud bo‘lgan nuqtai-nazarga tayanilib, asta-sekinlik bilan u qabul qilinishi kerak bo‘lgan nuqtai-nazarga aylantiriladi”⁵³.

Bunday metodlar qatoriga chalg‘itish yoki “dudlangan baliq” metodini ham kiritish mumkin. Itni muayyan izga solish uchun uning oldidan “dudlangan baliq”ni sudrab o‘tish kifoya. Targ‘ibotchilar ham mazkur atamani qo‘llashda ayni analogiyaga asoslanadilar. Unga ko‘ra manipulyatorlar muhim, ammo o‘z maqsadlariga muvofiq kelmaydigan axborotdan chalg‘itish uchun jamoatchilik diqqatini boshqa bir xabarga sensatsion shaklda jalb qiladilar. Natijada chalg‘ituvchi dominanta hosil qilinadi.

Faktlar hosil qilish metodi ham manipulyatsiyalash jarayonida keng qo‘llaniladi. Unga ko‘ra voqelikda ro‘y berayotgan haqiqatga o‘xshash, voqelikda ro‘y berayotgan haqiqatga o‘xshamaydigan hamda o‘ylab topilgan haqiqatga o‘xshash faktlar birlashtiriladi. Shu tariqa haqiqatga o‘xshamagan faktlar borasidagi auditoriya shubhasi bartaraf qilinib, ular o‘ylab chiqarilgan haqiqatga o‘xshash faktlarga so‘zsiz ishonadilar. Bundan tashqari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nodagi faktlar yaratilishini ham nazarda tutish lozim.

Obyektiv yondashuv metodiga ko‘ra esa mavjud faktlar yig‘ilib, ular sharhlanadi. Mazkur sharhlar jarayonida esa aslida mavjud bo‘lmagan hodisalarni tushuntirishga qaratiluvchi kam tarqalgan faktlardan foydalaniladi. Natijada esa bunday hodisalar haqiqatdan ham mavjuddek tus oladi. Bu holat “Edip effekti” deb ataladi.

⁵² История, нравы и обычаи народов Северного Кавказа. Ростов-на-Дону, 1984. 61-С.

⁵³ Маркова А.К. Психология профессионализма. М., 1996. 40-С.

Tarixiy analogiya metodi birinchi navbatda intellektual jihatdan samarador bo'lib, unga ko'ra targ'ibotchi auditoriyaning eruditsiyasiga "Esingizdami..." degan ifodalar orqali murojaat qiladi, qolaversa, tarixdan istalgan zamonaviy hodisaga misol izlab topish mumkin. Bundan tashqari tarixiy analogiya metodi ta'sir obyektni dasturlovchi metaforalarni hosil qilishga ham yordam beradi.

"Loy chaplash"⁵⁴, manipulyatsiya jarayonida keng qo'llaniladigan destruktiv metodlardan biri sanaladi. Unga ko'ra, nutq mavzusiga keskin axloqiy nuqtai-nazardan negativ xususiyat beruvchi epitetlar va atamalar ishlatiladi. Ushbu metod eng qo'pol targ'ibot uslublaridan biri bo'lishiga qaramasdan, joriy siyosiy kurashlar jarayonida keng tatbiq qilinadi.

Shuningdek, siyosiy ongni manipulyatsiyalash jarayonida semantik metoddan ham foydalaniladi. Mazkur metod qo'llanilganda, kishilar ongida yo ijobiy yoki salbiy assotsiatsiyalarni uyg'otuvchi so'zlar ustalik bilan tanlab olinib, idrok qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatiladi. Bunda misol uchun, "biz odamimizni razvedkachi deb ataymiz, ular esa ayg'oqchi. Biz ozodlik kuchlarimiz, ular mustamlakachilar. Biz milliy ozodlik kurashchilarimiz, ular esa jangarilar. Bizda qo'shin bo'lsa, ularda noqonuniy qurolli bandalar mavjud" kabi ifodalardan foydalaniladi.

Kommunikativ texnologiyalar, semantik manipulyatsiyalash, ijtimoiy ritorika, axboriy texnologiyalar va axboriy bosim, psixotexnologiyalar singari xilma-xil manipulyativ texnologiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi nafaqat ong bilan, balki kishilarning emotsiyalari bilan ishlashga ham yo'natirilgan bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, kishilarning emotsiya sohasi nafaqat ko'p murojaat qilinadigan, balki ta'sir o'tkazishning asosiy obyekti ham sanaladi. Umuman olganda kishilarning hissiyotlar sohasi o'zgaruvchan hamda ta'sirlarga ochiq bo'lib, uni buzish yoki zabt etish tafakkurni ham manipulyatsiyaga oson bo'ysundirush uchun zamin hozirlaydi. Sodda qilib aytganda, hissiyotlar bilan ishlash, jamoatchilik ongini manipulyatsiyalashning zarur va hal qiluvchi bosqichi

⁵⁴ Манипулирование массовым политическим сознанием (Анализ репрезентации проявлений, разновидностей и технологий) В.И.Елева. Ростовский государственный университет 2003 г. С-131

hisoblanadi. Hissiy in'ikos tafakkurga qaraganda real voqelikka birmuncha yaqin bo'lib, u tashqi ta'sirga nisbatan tez, bevosita reaksiya bildiradi. Shuning uchun ham mazkur soha manipulyatorlar nishoniga tezroq tushadi. A.Taranov va A.Suladze ta'kidlagani kabi, "olomon isbot, dalillar bilan emas, emotsiyalar orqali ishontiriladi"⁵⁵. Har qanday argumentlash jarayoni xabarning yashirin (mavhum) tuzilmasiga asoslanadi. Bunday tuzilmalar ilm-fan bilan bog'liq xabarlardagina samaradorlik kasb etadi.

Shu sababli jamoatchilik ongini manipulyatsiyalashda kishilarning hissiy sohalariga alohida urg'u beriladi. Bunday holatlarda hissiyotga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi anomal hodisalar va inqirozlar sun'iy tarzda hosil qilinadi. Bunday inqirozlar va anomal hodisalar qatoriga yirik texnohalokatlar, qonli zo'ravonliklar (terroristik aktlar, manyak jinoyatchilar, diniy-etnik milliy ziddiyatlar), yirik ijtimoiy guruhlarini qamrab oluvchi katta hajmdagi siyosiy to'qnashuvlar va hokazolarni kiritish mumkin.

Ayniqsa kundalik axloq darajasida qoralaniladigan: qo'rquv, hasad, ko'rolmaslik singari tuyg'ularni uyg'otish birmuncha oson kechadi. Mazkur hissiyotlar ong nazoratidan tashqariga chiqib, turli zo'ravonliklar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Aksincha, an'anaviy, ijobiy qadriyatlarga tayanuvchi tuyg'ular esa birmuncha barqaror bo'lib, manipulyatsiya ta'siriga kamroq uchraydilar. Manipulyatsiya jarayonida achinish aholining zaif va himoyaga muhtoj qismiga nisbatan hamdardlik tuyg'usidan ham keng foydalaniladi. Ayrim vaziyatlarda o'zining zaif nuqtalarini ko'rsatib, boshqarishga qodir emasligi hattoki, bunga xohishi ham yo'qligini ta'kidlovchi passiv manipulyator manipulyatsiya dasturining hal qiluvchi figuralari hisoblanadi.

Manipulyatsiya jarayonida sog'lom fikrni biroz muddatga bo'lsa-da cheklashga xizmat qiluvchi har qanday emotsiyadan, ong bilan moslashtirilgan holda unumli foydalaniladi. Ammo manipulyatorlar ishni eng avvalo ijtimoiy ongda aktual bo'lgan his-tuyg'ularni uyg'otishdan boshlaydilar. Amerikalik sotsiolog G.Blumer o'zining "Jamoaviy xulq-atvor" nomli asarida, "targ'ibotning

⁵⁵ Таранов П.С. Приемы влияния на людей. - М.: Агентство "ФАИР", 1997 г. С-608

amal qilish jarayoni kishilar ega bo'lgan his-tuyg'ular hamda xurofotlarda namoyon bo'ladi"⁵⁶, deb yozadi.

Ongni manipulyatsiyalash jarayonida qo'rquv hissidan keng foydalaniladi. Bu borada tadqiqotchi S.Kara-Murzaning "Ong manipulyatsiyasi" asarida ilgari surilgan quyidagi fikrlarni esga olish o'rinli: "noadekvat qo'rquv ta'siriga tushib qolgan jamiyatda, umumiy aql yo'qqa chiqadi"⁵⁷. Bundan kelib chiqqan holda, manipulyatsiyani uning obyekti tomonidan payqalmaydigan faktlar orqali yashirin ta'sir o'tkazish jarayoni deb ta'riflash mumkin. Manipulyatsiyalanayotgan kishi sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tabiiy va zaruriy ekanligiga ishongandagina manipulyatsiya muvafaqqiyatli amalga oshadi. Bir so'z bilan aytganda, manipulyatsiya jarayoni uchun soxta ligi sezilmaydigan soxta voqelikni hosil qilish talab qilinadi.

Shu ma'noda manipulyatsiyalash manipulyatorning kuchli bilim va malakaga ega bo'lishini talab qiladi. Bu esa o'z navbatida jamoatchilik ongini manipulyatsiyalashning maxsus texnologiyalari hamda ularni to'liq yoki qisman qo'llay oladigan professionallarning shakllanishiga olib keldi. Qolaversa, ayni sohada maxsus kadrlar tayyorlash tizimi, ilmiy muassasalar hamda ilmiy va ilmiy ommabop adabiyotlar ham vujudga keldi. Manipulyatsiya nafaqat do'stlar yoki sheriklar ongiga ta'sir o'tkazish, balki hokimiyatni amalga oshirish texnologiyasining bir qismi ham hisoblanadi.

Birinchi bobga xulosa

1. Jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayonini maxsus tashkillangan yashirin ta'sir, tasavvurlarni sxemalashtirish, xulq-atvorni dasturlashtirish hamda manipulyativ ta'sirga uchragan obyekt xatti-harakatlarining ehtimoliy natijalarini oldindan taxmin qilish imkonini beruvchi tizim sifatida ta'riflash mumkin. Bu esa o'z navbatida jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayoni murakkab tuzilmaga ega bo'lgan professional faoliyat degan xulosaga kelishga imkonini beradi.

⁵⁶ Блумер Г. Коллективное поведение // Американская социологическая мысль. М., 1994.

⁵⁷ Кара - Мурза С. Манипуляция сознанием М., 2000 - <http://proib.narod.ru/>

2. Jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayoni ma'lumotlarga ommaviy tus berish hamda psixologik bosim bilan tavsiflanuvchi turli darajalarga ega. Shunga ko'ra ayni faoliyat siyosiy imij va siyosiy miflar yaratishda o'z ifodasini topuvchi muayyan protseduralar orqali amalga oshiriladi.

3. Siyosiy miflar jamiyat taraqqiyotining ilgarilanma harakatiga to'g'ri proporsional tarzda takomillashib boradi. Aks holda bunday miflarni jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalovchi vosita sifatida ommaviy siyosiy ongga tatbiq qilish hamda muayyan siyosiy maqsadlarga erishish uchun ulardan foydalanish imkoniyati tobora cheklanib boradi. Mazkur tendensiya bilan kurashish uchun esa ijtimoiy kuchlarning hal qiluvchi roli va mas'uliyati mutanosib ravishda oshib borishi lozim. Siyosiy miflarning keng yoyilishiga qarshi kurashish jarayonining murakkab jihati shundaki, ayni yo'nalishdagi chora-tadbirlar kishilar ongini siyosiy miflarning manipulyativ ta'siridan butkul tozalash imkoniyatiga ega emas. Negaki, boshqa miflar qatori siyosiy miflar ham shaxsiy ong darajasida qabullanib, ularga qarshi kurashish jarayonida jamiyat a'zosining har bir vakili bilan alohida shug'ullanish jismonan imkonsiz sanaladi.

4. Siyosiy ongni manipulyatsiyalash jarayonlarini tashkil qilishda siyosiy imijlarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Zamonaviy imijmeykerlik sohasida siyosatchining, xususan ommaga yaxshi tanish bo'lmagan siyosatchining qiyofasini yaratish jarayoniga birmuncha noan'anaviy tarzda yondashiladi. Aniqrog'i, siyosatchi imijini yaratishda uning shaxsiy va professional sifatleri emas, unda omma ko'rishni istaydigan fazilatlar jamlanadi. Ammo shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, biror-bir shaxsiyatga mutlaqo bog'lanmagan, umuman personallashtirmagan, faqatgina konstruktan iborat siyosiy imijni yaratish imkonsiz. Bu esa o'z imijini yaratayotgan siyosiy yetakchi hamda uning imijmeykerlari oldiga omma e'tiborini tortuvchi xususiyatlar hamda shaxsiy fazilatlarini o'zaro muvozanat asosida sintezlash vazifasini qo'yadi.

II-BOB. INTERNET KOMMUNIKATSIYA MAKONIDA JAMOATCHILIK FIKRINI MANIPULYATSIYALASHNING SIYOSIY TEXNOLOGIYALARI

Internetni siyosiy kommunikatsiya vositasi sifatida olib qarashning modellari evolyutsiyasini ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur bobda siyosiy kommunikatsiya vositasi sifatida internetning Web 1.0, Web 2.0 va Web 3.0 texnologiyalari qiyosiy tahlil qilinadi. Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlar hamda unda yuzaga keladigan tarmoq hamjamiyati tushunchalari zamonaviy siyosiy internet kommunikatsiyasi shakli sifatida tahlil qilinadi. Bundan tashqari zamonaviy internet makonida keng qo‘llaniladigan jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalashning siyosiy texnologiyalari tasniflanib, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi. Bunda tarmoq hamjamiyatining asosiy funksiyalarini ko‘rib chiqish orqali uning jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash borasidagi imkoniyatlari ochib beriladi. Bunda vektor manipulyativ texnologiyalar, ildizsimon manipulyativ texnologiyalar va konvergent yoki gibrid manipulyativ texnologiyalarning samarador mexanizmlari ochib beriladi. Qolaversa, memlar internet folklor namunasi sifatida ko‘rib chiqilib, ularning siyosiy jarayonlardagi ahamiyati tahliliga alohida diqqat qaratiladi.

2.1 Zamonaviy siyosiy internet kommunikatsiyasining tuzilmasi va shakllanish bosqichlari

Internet ilk bor 1969-yil 29-oktabrda to‘laqonli ishga tushdi. Bunda dunyoda birinchi marta Kaliforniya bilan Stendford o‘rtasida aloqa o‘rnatildi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, “internet SSSR bilan yadroviy urushda keng qo‘llash maqsadida AQSH mudofaa vazirligining buyurtmasiga ko‘ra ishlab chiqilgan”⁵⁸. Mazkur loyiha turli tuzilmalar o‘rtasidagi aloqa kanallari yo‘q qilinganda ham ular o‘rtasidagi aloqalarni saqlab qolish maqsadida ishga tushirilgan.

⁵⁸ FB.ru - История сети интернет: в каком году появился и для чего был создан//URL: <https://fb.ru/article/138077/istoriya-seti-internet-v-kakom-godu-poyavilsya-i-dlya-chego-byil-sozdan> (murojaat vaqti: 17.05.2024)

Keyinchalik xususiy kompaniyalar va jismoniy shaxslar ham internet bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatish sohasiga kirib kela boshladilar. Natijada internet o‘zining dastlabki, maqsad qilingan vazifalaridan boshqa funksiyalarni ham amalga oshirib, birinchi elektron pochta, elektron manzillar, saytlar, chatlar, brauzerlar vujudga kela boshladi. “1973-yilda esa Britaniya va Norvegiya transatlantik telefon kabellari orqali birinchi marta mazkur global tarmoqqa ulandilar”⁵⁹. Bu hodisa internetning olamshumul miqyos kasb etishi borasidagi dastlabki qadamlardan biri bo‘ldi.

“Bugungi kunda o‘n minglab lokal tarmoqlarni yagona tizimga birlashtirgan holda dunyoning istalgan nuqtasiga axborot uzata oluvchi kommunikatsiya vositasiga aylandi”⁶⁰. Shu tariqa internet an‘anaviy OAVlarni keng iste‘moldan siqib chiqarmoqda. Shu ma’noda internet nafaqat fuqarolarning xulq-atvorlarini shakllantiruvchi an‘anaviy OAVlar siqib chiqarayotgan, balki o‘zi ham kundankunga keng tarmoq otayotgan kommunikatsiya vositasiga aylanib bormoqda.

Bu esa internetni kishilar o‘rtasidagi o‘zaro kommunikatsiya makoni, xususan uning tarkibiy qismi sanaluvchi siyosiy manipulyatsiyalarni amalga oshirish muhiti sifatida ham ko‘rib chiqishga zarurat mavjud ekanligini namoyon qiladi. Bundan kelib chiqqan holda, mazkur paragrafda internetni ildizsimon xususiyat kasb etuvchi siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarini qo‘llash platformasi sifatida tahlil qilinadi.

Bu esa internet evolyutsiyasini uch bosqichda ro‘y bergan WEB texnologiyalar taraqqiyoti kesimida ko‘rib chiqishni talab qiladi:

1. “Ommaviy media (“birlikdan-ko‘plikka”). Birinchi avlod tarmoq kommunikatsiyalari (Web 1.0) ning vujudga kelishi.
2. Yangi ommaviy media (“ko‘plikdan-ko‘plikka”). Ikkinchi tarmoq kommunikatsiya avlodi (Web 2.0) ning paydo bo‘lishi.

⁵⁹ O‘sha yerda..

⁶⁰ Что такое Internet? Основы Интернет. URL: <http://psbatishev.narod.ru/internet/12.htm> (murojaat vaqti: 17.05.2024)

3. Personal media (“ko‘plikdan-birlikka”). Bu tizim Web 3.0 konsepsiyasiga asoslangan bo‘lib, u axborot oqimini har bir kishi uchun filtrlangan va tuzilmaga solingan shaklda uzatish imkoniyatini nazarda tutadi”⁶¹.

Web 1.0 avlodi internetni tatbiq qilishning birinchi bosqichi bo‘lib, u mazkur kommunikatsiya turi vujudga kelgandan to XX-asrning 90-yillariga qadar amal qilgan. Mazkur tizimda saytlarning ishlash va tarmoqda kontentni tarqatish mexanizmlari an’anaviy ommaviy axborot vositalari qonuniyatlariga ko‘ra amalga oshirilgan. Bu model amal qilgan paytlarda kontentlarni yig‘ish, boshqarish hamda ularni tarmoqqa joylash bilan tor doiradagi mutaxassislargina shug‘ullana olganlar. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, axborot ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilari o‘rtasida chiziqli aloqa mavjud bo‘lgan. Bu vaziyatda siyosiy kommunikatsiya cheklangan va biryoqlama yo‘nalishga ega bo‘lib, undan o‘quvchini muayyan hodisa, unda ishtirok etuvchi personallar hamda raqamlardan xabardor qilish ko‘zda tutilgan xolos. Shu ma’noda o‘quvchi ma’lumotlarni o‘zicha talqin etish hamda ma’lumot ishlab chiqaruvchisi bilan muloqotga kirishish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan.

Ammo vaqt o‘tishi bilan tarmoqda foydalanuvchiga taqdim etilayotgan axborot oqimi tobora kengayib bordi. Bu esa foydalanuvchilarga nafaqat kontentni shunchaki iste’mol qilish, balki boshqalar bilan aloqaga kirishish orqali uning generatsiyasida ishtirok etish imkoniyatini beruvchi algoritmlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Qolaversa, internet foydalanuvchilar auditoriyasining kengayishi ham bu borada hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan omillardan sanaladi. Shu tariqa internetni qo‘llashning Web 1.0 modeli o‘z o‘rnini barcha internet foydalanuvchilari uchun qulay bo‘lgan Web 2.0 global modeliga bo‘shatib berdi.

Web 2.0 modeli Web 1.0 modelidan farqli ravishda har bir foydalanuvchining internet kontentini hosil qilishdagi faol ishtirokini nazarda tutadi. “Bu esa internet foydalanuvchilar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlikni hosil qilish orqali ularni turli maqsad va manfaatlarga asoslangan tarmoq hamjamiyatlariga

⁶¹ Шачкова В.А. Возможности системы WEB 3.0 в современном медиапространстве: проблемы и перспективы/ В.А. Шачкова//Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. 2013. №4-2. С. 250

birlashtirishni talab qilar edi”⁶². “Web 2.0 modeli Web 1.0 modelidan farqli ravishda noprofessional hatto bu borada maxsus ta’lim olmagan oddiy internet foydalanuvchiga ham tarmoqni shaxsiy kontenti bilan boyitish imkoniyatini taqdim etadi”⁶³.

Ko‘rinib turibdiki, interfaollik Web 2.0 modelining asosiy ish tamoyili hisoblanadi. Mazkur model amal qilgan davrda axborot ishlab chiqarish tor doiradagi professionallarning faoliyati bo‘lmay qoldi. Bu davrda har qanday internet foydalanuvchisi nafaqat oddiy axborot iste’molchisi, balki uni ishlab chiqarishda ishtirok etish, hatto uning to‘laqonli yaratuvchisiga ham aylanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Mazkur imkoniyat Web 2.0 modelining quyidagi xususiyatlari tufayli yuzaga keldi:

1. Foydalanuvchi kontentini yaratishdagi yuqori tezlik;
2. Jamoaviy ishni amalga oshirish imkoniyati;
3. Internet foydalanuvchilar o‘rtasidagi kommunikatsiyaning ochiqqligi;
4. Internet foydalanuvchilar haqidagi ma’lumotlarning ochiqqligi;
5. Interfeyslarning oddiy va foydalanishga o‘ta qulayligi;
6. Axborotning ochiq va qo‘lga kiritish imkoniyatining kengligi;
7. Kontent yaratish uchun yetarli vositalarning mavjudligi;
8. Katta hajmdagi ma’lumotlarni tashqi elektron tashuvchi uskunalarda emas, bevosita tarmoqda saqlay olish imkonining mavjudligi;
9. Qat’iy iyerarxiya va markazlashgan boshqaruvning mavjud emasligi.

Web 2.0 modelida internet foydalanuvchilarga muayyan shakldagi keng vositalar bilan boyitilgan hamda kontent mazmunini to‘ldirib borish imkoniyatini taqdim etuvchi yangi internet servislar yuzaga keladi. Bunday servislar qatoriga:

1. Bloglar (Live Journal, YouTube, Twitter);
2. Ijtimoiy tarmoqlar (Vkontakte, Facebook, Twitter);
3. Kontent genarator saytlar (Pikabu);

⁶² Докторович А.Б. Роль социальных сетей в развитии общества и экономики России/ А.Б. Докторович, Д.Н. Монахов, Г.А. Монахова//Производство и время. 2013. №3. С. 107

⁶³ O’sha yerda..

4. Viki loyihalar (Vikipediya);
5. Axborot tarqatish multimediya tizimlari (YouTube, Yandex-disk);
6. Interfaol multimediya aloqa (Skyre, ZOOM, Webinar);
7. Hamkorlikdagi muharrirlik tizimlari (Google-dokumenty).

Saytga tashrif buyuruvchilardan tarmoq hamjamiyatini shakllantirishda raqobatlashish elementi, nufuzi va konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u hamjamiyatning o'z-o'zini boshqarish imkoniyatini hamda foydalanuvchilarga qayta tashrif buyurish uchun sabab bo'luvchi qo'shimcha qulayliklar va rag'bat yaratadi.

Yuqoridagi mulohazalar tahlillarini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinmi, Web 1.0 internetni tatbiq qilish modelining Web 2.0 internetni tatbiq qilish modeliga transformatsiyasi sohada quyidagi jiddiy o'zgarishlarga olib keldi:

- Internet ommaviy xarakter kasb etdi;
- Yangi ulkan axborot oqimi yuzaga keldi;
- Interfeyslarni soddalashtirish orqali internet foydalanuvchilarining yosh chegaralari bilan bog'liq muammolar birmuncha kamaydi;
- Keskin texnologik taraqqiyot tufayli internetga ulanishning vaqt va makonga aloqador muammolari ham deyarli bartaraf qilindi;
- Internetning ma'rifiy xarakter i ortdi;
- Internet shaxslar ijtimoiylashuvi uchun qulay makonga aylandi;
- Shu bilan birgalikda internet qonunga xilof, axloqsiz, norasmiy axborotlar manbaiga ham aylandi.

Web 2.0 modeli internetning kommunikatsiya vositasi sifatida siyosiy xarakter kasb etib borishi uchun keng yo'l ochdi. Internetda shaxsiy kontentni yaratish imkoniyati paydo bo'lishi bilan siyosiy ruhdagi ma'lumotlar resurslari ham sezilarli darajada ortdi. Ixtisoslashgan axborot portallari, ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar, siyosiy sohaga oid bloglar, mavzuli forumlar kabilar shular jumlasidandir. Bu esa internet foydalanuvchilariga siyosiy voqelik haqidagi ma'lumotlarni faol almashinish, o'z siyosiy pozitsiyasini namoyon qilish,

muhojama va bahslarda qatnashish, siyosiy ruhdagi ma'lumotlarni keng tarqatish imkoniyatlarini taqdim etdi. Boshqacha qilib aytganda, internet foydalanuvchilar uchun siyosiy voqelikni xilma-xil talqin qilish hamda vertikal va gorizontal siyosiy kommunikatsiyaga kirishish imkonini beruvchi vositalarga ega erkin makonga aylandi⁶⁴.

Ko'plab yuksak texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda Web 2.0 modeli ham muayyan kamchiliklardan holi emas. Bu borada internetni tatbiq qilishning Web 2.0 modeli taqdim etgan yuksak miqyosli kommunikativ imkoniyatlar tufayli vujudga kelgan va keng tarqalgan "siyosiy trolling" fenomeni alohida tahlilni talab qiladi. Trolling muayyan siyosiy voqea yoki arbobi matnlar yozish, video va rasm ko'rinishidagi vizual materiallar tayyorlash orqali masxaralash, qolaversa, foydalanuvchilar o'rtasida ziddiyat keltirib chiqaruvchi izohlar qoldirishni nazarda tutuvchi siyosiy manipulyatsiya texnologiyasi hisoblanadi. Trolling internet kommunikatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan siyosiy sohada agressiv xarakter kasb etib, foydalanuvchilarda qo'rquv hissini uyg'otish mexanizmidan foydalanadi.

Keyingi bosqich Web 3.0 deb atalib, uning ayrim elementlari zamonaviy media tizimida qo'llanilayotgan bo'lsa-da, umumiy holda hali konsepsiya ko'rinishida mavjud. Foydalanuvchining o'ziga kerakli ma'lumotni tez va aniq ravishda ishonchli manbalardan topishiga imkon beruvchi tizim yaratish Web 3.0 modelining markaziy g'oyasi hisoblanadi.

Soddaroq qilib aytganda, "Web 3.0 modelining o'zida tor ixtisosliklarga oid axborot resurslarini mujassamlashtirishi nazarda tutilmoqda. Web 3.0 tarkibidagi resurslar foydalanuvchiga maqsadlarini o'zining professional faoliyati va qiziqishlariga mos ravishda samarador amalga oshirish imkonini beruvchi vositalarga ega bo'ladi. Web 3.0 modelining asosida "jonli izlash" tamoyili yotadi. Mazkur prinsip kalit so'zlarga ko'ra axborotni saralash jarayonini robot emas, balki jonli odamlar, xususan muayyan sohaning yetuk mutaxassislari amalga

⁶⁴ Володенков С.В. Медиатизация и виртуализация современного пространства публичной политики/С.В. Володенков// Коммуникология. 2016. №4. С.149

oshirishlari mumkinligi, qolaversa, yuzaga keladigan savollarni ham ular bilan muhokama qilish imkonini mavjudligini nazarda tutadi”⁶⁵.

“Web 3.0 modelining Web 2.0 modelidan farqi shunda ko‘rinadiki, unda foydalanuvchilar nafaqat kontentlar yaratishlari, balki muayyan axborotning foydali va sifatli ekanligini baholovchi ekspertlar vazifasini ham bajarishlari mumkin”⁶⁶. Tizimga ekspertlar elementini joriy qilish g‘oyasi mumtoz kommunikatsiya nazariyalarining vakillaridan bo‘lgan Lasseul va Lipmanlar tomonidan ilgari suriladi. Mazkur modelning maqsadiga ko‘ra, “axborotni yig‘ish va tarqatish ustidan nazorat ijobiy xarakter dagi texnokratlar va intellektual elitaga topshirilishi lozim. Bu esa ilmiy metodlar yordamida faktlarni uydirmalardan farqlash hamda muayyan informatsiyaga kim ega bo‘lishi lozimligi borasida to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini yuzaga keltiradi”⁶⁷.

Bugungi kunda ham mazkur texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatini beruvchi ayni shakldagi internet resursi sifatida kontent generatori bo‘lgan sayt – Rikabu.ru ni keltirish mumkin. Uning reyting tizimida foydalanuvchining qiziqish sohalariga oid manbalardan foydalanuvchining hamfikrlari (uning sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar) tomonidan tekshirilgan axborotni topish va yuklab olish mumkin bo‘lgan teglar bo‘yicha qidiruv, erkin sharhlar yozish va me‘yorlashtirilmagan axborot hajmi mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu konsepsiya Yu.Xabermasning “Kommunikativ harakat” nomli asarida taklif qilingan. U o‘zining mazkur asarida konsensusga (murosasozlikka) yo‘naltirilgan sotsial kommunikatsiya jarayonida amalga oshiriladigan dialogik izlash g‘oyasini ilgari suradi. U nazarda tutgan dialog obyekt-subyekt munosabatini emas, aksincha subyektlararo munosabatni nazarda tutadi⁶⁸.

⁶⁵ Шачкова В.А. Возможности системы WEB 3.0 в современном медиапространстве: проблемы и перспективы/ В.А. Шачкова//Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. 2013. №4-2. С. 251

⁶⁶ Шачкова В.А. Возможности системы WEB 3.0 в современном медиапространстве: проблемы и перспективы/ В.А. Шачкова//Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. 2013. №4-2. С. 251

⁶⁷ Бакулев Г.П. Теория пропаганды: классики/ Г.П. Бакулев// Ученые записки Российского государственного социального университета. 2013. Т. 2. № 3 (116). С. 19

⁶⁸ Чекушкина Е.Н. Коммуникативная теория Ю. Хабермаса и культура информационного общества// Е.Н. Чекушкина/ Теория и практика общественного развития. 2014. № 1. С. 26.

Ta'kidlanishicha, Web 3.0 yuksak innovatsion potensialga ega bo'lib, mediasfera sohasida ulkan texnik taraqqiyotga olib kelgan holda, mediamakonda ro'y beradigan foydalanuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi. Agar ko'zda tutilgan maqsadlar amalga oshsa, ijtimoiy tarmoqlarda integrallashgan interaktiv sotsial kommunikatsiyani yuzaga keltirishi mumkin. Masalan Skype va Facebook ning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish imkoniyati paydo bo'ladi⁶⁹.

Sanab o'tilgan va boshqa ko'plab imkoniyatlardan tashqari Web 3.0 modeli ham boshqa modellar singari insoniyat oldiga quyidagi muammolarni qo'yishi mumkin.

Birinchidan, jamoatchilik fikri va "ekspertlik"ning yuksak nufuz kasb etishi. Mazkur muammoni ikki nuqtai-nazardan ko'rib chiqish lozim. Birinchi nuqtai-nazarga ko'ra, inson jamoatchilik fikri bosimiga uchragan ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Bu ma'noda inson jamiyatda keng tarqalgan nuqtai-nazarlar ta'siriga tushib, o'z identikligini yo'qotib qo'yish xavfi bilan yuzlashadi. Mazkur xavfdan qochish, ta'qib va taqiqlarga uchramaslik, jamiyatning orzu-intilishlariga mos ravishda hayot kechirish uchun inson bu nuqtai-nazarlarni qo'llab-quvvatlashga majbur bo'ladi. Boshqa tomondan esa jamoatchilik fikri ekspertlarning yolg'on va noxolis qarashlari orqali sun'iy tarzda yuzaga keltirilishi, bundan esa ekspertlar jamoatchilik fikrini o'zlariga foydali sohaga yo'naltirish maqsadini ham ko'zlashlari mumkin. D.Dyu tomonidan ilgari surilgan kommunikatsiyaning mumtoz nazariyasida Lassuela va Lipmanning texnokratiya va texnokratik elitaning zarurati borasidagi g'oyalari inkor qilinadi. D.Dyuning mazkur nazariyasida ilgari surilgan mulohazalarga ko'ra, har kishining o'zi unga tomon yo'naltirilgan axborot oqimini boshqarish malakasini o'zlashtira olish qobiliyatiga ega bo'lganligi tufayli ular o'zlarini targ'ibot va yot g'oyalar ta'siridan himoya qila oladilar⁷⁰.

⁶⁹ Докторович А.Б. Роль социальных сетей в развитии общества и экономики России/ А.Б. Докторович, Д.Н. Монахов, Г.А. Монахова//Производство и время. 2013. №3. С. 109

⁷⁰ Бакулев Г.П. Теория пропаганды: классики/ Г.П. Бакулев// Ученые записки Российского государственного социального университета. 2013. Т. 2. № 3 (116). С. 19

Ikkinchidan tarmoq hamjamiyatlarining iyerarxik xususiyat kasb etishi muammosi. Ma'lumki, har qanday tarmoq hamjamiyati axborotni ishlab chiqarish va moderatorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi, uning "yadro"sini tashkil qiladigan foydalanuvchilar guruhiga ega. "Yadro" guruhiga kiruvchi foydalanuvchilarning asosiy vazifalaridan biri sifatida hamjamiyat qoidalariga nomuvofiq tarzda harakatlanuvchi a'zolar faoliyatlarini "cheklash" (bloklash)ni keltirish mumkin. Bu esa foydali hisoblangan, ammo hamjamiyat g'oyalariga zid ma'lumotlar, shuningdek, ayni ko'rinishdagi axborotlarni tarqatuvchi foydalanuvchilarning ham bloklanishiga olib keladi. Ayni holat tabiiy ravishda axborot olish va qidirish sifatiga hamda tezligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi turgan gap.

Real voqelikda mavjud bo'lmagan internet soxta virtual shaxslar, aniqrog'i feyk akkauntlar to'rtinchi muammoni tashkil etadi. Feyk (inglizcha "fake" "qalbaki" degan ma'noni anglatib) virtual olamda asli mavjud bo'lmagan, soxta qolaversa, jamoatchilik fikrini chalg'itib unda yolg'on tasavvurlarni hosil qiluvchi akkaunt yoki xabarlar nazarda tutiladi⁷¹. Internet feyk tushunchasi ko'p ma'noli xususiyat kasb etsa-da, mazkur tadqiqot mantig'idan kelib chiqqan feyk internet shaxslar fenomeniga alohida diqqat qaratiladi⁷². S.V.Volodenkovning ta'kidlashicha, "virtual olamda jamoatchilik fikri amaliy nuqtai-nazardan asosan feyklar yoki kibersimulyakorlar yordamida shakllantiriladi"⁷³. Ular o'z navbatida siyosiy axborotni tarmoqqa joylash, tarqatish hamda manipulyator maqsadiga muvofiq tarzda jamoatchilik qabul qilishi uchun tayyor shaklda talqin qilish funksiyasini bajaradilar. Natijada muayyan masala yuzasidan jamoatchilik ongida amal qiluvchi illyuziyalar hosil qilinadi. Feyklar virtual olamda yashirin tarzda (ayni feyklar ortida) amal qiluvchi muayyan manipulyativ maqsadga ega tashkilot va institutlar tomonidan yaratiladi va tatbiq qilinadi. Masalan, 2001-yilda BBSning AQSh xizmatiga Persona Management Software (RMS) dasturini ishlab chiqish

⁷¹ Фейк/ Викисловарь // URL:<https://ru.wiktionary.org/wiki/фейк> (murojaat vaqti: 01.07.2024)

⁷² Русакова О.Ф. Политический медиадискурс и медиатизация политики как концепты политической коммуникативистики/ О.Ф. Русакова, Е.Г. Грибовод // Научный ежегодник Института философии и права Уральского отделения Российской академии наук. 2014. Т. 14. № 4. С. 65-77.

⁷³ Володенков С.В. Кибесимулякры как инструмент виртуализации современной массовой политической коммуникации // Информационные войны. 2014, №4, С. 19 с.18-21

buyurtma berildi. Mazkur dasturiy ta'minotning maqsadi ijtimoiy tarmoqlar saytlarida feyk akkauntlar yaratish va boshqarishdan iborat⁷⁴. Shuningdek, 2010-yilda AQSh hukumati HB Gary Federal bilan RMSga o'xshash hukumat nuqtai-nazarini qo'llab-quvvatlash hamda dolzarb muammolarga jamoatchilik fikrini qaratishga xizmat qiluvchi "feyk akkaunt"larni yaratadigan dasturiy ta'minot yaratish borasida shartnoma tuzdi⁷⁵.

Foydalanuvchiga zarur axborotni izlab topish jarayonini soddalashtirish maqsadida u va uning qiziqishlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish ham bu boradagi jiddiy muammolardan biri sanaladi. Bu esa o'z navbatida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligiga nisbatan turli tahdidlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shaxs haqidagi ma'lumotlarni yig'ish uning "virtual psixologik portreti"ni yaratish hamda shu orqali mazkur shaxsni boshqarish imkonini beradi.

"Anonimlik dixotomiyasi" ham ayni muammolar sirasiga kiradi. Muammoning mohiyati shunda namoyon bo'ladiki, Web 3.0 modeli allaqachonlardan beri kurashayotgan ikki taraf o'rtasidagi ziddiyatlarga yechim taklif qilmaydi. Birinchi taraf vakillari internetdagi maxfiylik huquqini yoqlab chiqsalar, ikkinchi tomon esa aksincha har bir foydalanuvchi ismining ochiq bo'lishi hamda majburiy qayddan o'tishini talab qiladi. "Levada sentr" tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, internetdagi ijtimoiy tarmoqlarni personifikasiyalash g'oyasini 2017- yilda 40% rossiyaliklar qo'llab-quvvatlagan bo'lsalar, 2012-yilda esa bu ko'rsatkich 26% tashkil qilgan. 24% respondentlar esa salbiy munosabat bildirganlar⁷⁶. Butun dunyoda bo'lgani singari yurtimizda ham "anonimlik dixotomiyasi" prinsipi avtonom tarzda amal qiluvchi kibberterroristik harakatlarning ijtimoiy tarmoqdagi faoliyatlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Ushbu tipning mohiyati uning hamjamiyatni "uzum dastasi" prinsipi asosida boshqarish faoliyatida ko'rinadi. Soddaroq qilib aytganda, bu bir nechta lokal tarmoqlarni birlashtiruvchi markazlashgan boshqaruv tizimining mavjud

⁷⁴ U.S. Air Force. Persona Management Software. URL: <https://clck.ru/VqfL8> (murojaat vaqti: 01.07.2024)

⁷⁵ De Aenigmatе/ О Тайне. Сборник научных трудов. А.И. Фурсов (сост.). 2-е изд. М.: Товарищество научных изданий КМК. 2017. С. 507

⁷⁶ Социология: удвоилось число россиян, выступающих против анонимности в Интернете. Интернет-газета Знак. URL: <https://clck.ru/VqfE8> (murojaat vaqti: 01.07.2024)

emasligini anglatadi⁷⁷. Aynan tarmoq tuzilmasi va anonimlik tufayli internet foydalanuvchilari qonunga xilof faoliyatlarini amalga oshirishlari mumkin.

Web 3.0 modeli quyidagi o'ziga xos siyosatni talab qiladi:

1. Foydalanuvchilarning qiziqishlariga ko'ra axborot yig'ish bilan shug'ullanuvchi maxsus guruh yoki bo'limlar tashkil qilish orqali ularni aniq siyosiy hodisalar, tashkilotlar va qarashlarga jalb qilish;

2. Tor ixtisoslikka ega siyosiy resurslar yaratish. Ixtisoslik resurs ilgari suradigan g'oyalar, ustanovkalar va qadriyatlar asosida hosil qilinadi. "Vkontakte"dagi siyosiy "pablik"lar bunday siyosiy resurslarning proobrazi hisoblanadi;

3. Har qanday internet foydalanuvchisining siyosiy profil yaratish imkoniyatiga egaligi. Foydalanuvchining internetdagi qidiruv so'rovlari ijtimoiy tarmoq sahifalaridagi ma'lumotlar hamda sharhlarini tahlil qilish orqali siyosiy texnologlar yoki istalgan manfaatdor taraf u bilan bevosita muloqotga kirishmasdan turib kishilarning siyosiy pozitsiyalarini aniqlash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa istalgan foydalanuvchining siyosiy masligini o'zgartirish yoki u qo'llab-quvvatlayotgan pozitsiyasini tasdiqlash maqsadida turli xil targ'ibot materiallarini osongina taqdim etish va ongga singdirish uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib Web 3.0 nuqtai-nazaridan siyosiy manipulyatsiya jarayonlarini amalga oshirishdan quyidagi xulosaga kelish mumkin: mazkur model internetda siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini kengaytirgan holda manfaatdor shaxslarga oddiy internet foydalanuvchisi ongini boshqarish sohasiga oid samarador mexanizm va vositalarni taqdim etadi. Shu ma'noda ildizsimon siyosiy manipulyatsiyalar virtual makonda jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash texnologiyalarini murakkablashtirish borasidagi dastlabki qadamlardan biri hisoblanadi.

Web 1.0 dan Web 3.0 modeligacha bo'lgan evolyutsiya jarayonini diqqat bilan ko'rib chiqish natijasida bugungi kunda Web 2.0 modelining to'liq tatbiqi

⁷⁷ Арчаков М.В. Политический экстремизм: сущность, проявления, меры противодействия: [монография]/М.К. Арчаков. Екатеринбург: Изд-во Урал. Ун-та, 2013. С. 195

Web 3.0 modelining ayrim elementlari qo'llanilayotganligi haqidagi xulosaga kelish mumkin. Bundan kelib chiqqan holda internet kommunikatsiyasining quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, internet media lekin ommaviy media emas⁷⁸. Ommaviy media tuzilmasi chiziqli bir kishidan ko'pchilikka qarab yo'nalgan kommunikatsiyaga ega. Aksincha, internet kommunikatsiyasi esa yakkalikdan ko'plikka, ko'plikdan ko'plikka, yakkalikdan yakkalikka va ko'plikdan yakkalikka singari xilma-xil variantlarga ega.

Ikkinchidan, internetdagi inson faoliyati an'anaviy OAV orqali kishilarning o'zaro ta'siridan keskin farq qiladi. Zero, an'anaviy OAVlarda axborot foydalanuvchilarga tayyor shaklda taqdim etiladi. Ye.V.Shapkining ta'kidlashicha, "foydalanuvchi internetdan ma'lumot olish uchun o'zida muayyan faollikni namoyon qilishi lozim. Ayrim holatlarda esa bu muayyan intellektual tayyorgarlikni ham talab etadi"⁷⁹.

Sintetiklik va fragmentarlik internet kommunikatsiyaning uchinchi xususiyati sanaladi. Internet ko'plab muloqot vositalariga ega bo'lganligi tufayli foydalanuvchilar nafaqat matn va so'z yordamida, balki video, audio, mem, tasvir va hokazolar orqali ham aloqaga kirishishlari mumkin. Internet kommunikatsiyasidagi axborot almashinuv metod va shakllarining xilma-xilligi tufayli axborot oqimining parchalanishi yoki bo'laklarga bo'linib ketishi hodisasi ro'y berish ehtimoliga ega. Natijada foydalanuvchilar muayyan voqea yoki shaxs haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga qiynalishlari mumkin.

Internetning ekspansiv aspekti va keng auditoriya ommasini qamrab olishi uning to'rtinchi xususiyati sanaladi. Internet kishilar diqqatini an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan faqatgina global tarmoqqa xos bo'lgan bloglar, internet hamjamiyatlar hamda ijtimoiy tarmoqlar singari axborot olish va almashinishning

⁷⁸ Шапкина Е.В. Интернет в системе средств массовой информации и особенности его восприятия в общественном сознании/ Е.В. Шапкина// Вестник Кемеровского государственного университета. 2015. №2. С. 95

⁷⁹ Шапкина Е.В. Интернет в системе средств массовой информации и особенности его восприятия в общественном сознании/ Е.В. Шапкина// Вестник Кемеровского государственного университета. 2015. №2. С. 95

yangicha shakliga jalb qiladi. Internet taqdim etadigan axborot olish va almashinishning ulkan vositalar jamlanmasi katta miqdordagi auditoriyani qamrab olishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Beshinchidan, yuqori tezlik va butun yer yuzini kompyuterlashtirish ham internet kommunikatsiyasining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Axborotning birlamchi manbasini izlab topish va uning muallifini identifikatsiyalash imkoniyatining mavjud emasligi, oltinchi xususiyat sifatida ko'rsatilishi mumkin⁸⁰. Ma'lumotning birlamchi manbasi va material muallifini aniqlashning murakkab jarayon ekanligi axborot tarqatish tezligining yuqoriligi shuningdek, tarmoqlar miqyosining kattaligi hamda anonim foydalanuvchilarning ko'pligi bilan izohlash mumkin.

Internet kommunikatsiyasining yuqorida ko'rib chiqilgan xususiyatlari tahlili internet bugungi kundagi eng keng tarqalgan kommunikatsiya vositasi degan xulosaga kelishga imkon beradi. Internet yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy maqomidan qat'iy nazar, har qanday foydalanuvchiga o'z fikr va g'oyalarini ifoda etish, muhokamalarda qatnashish va hamfikrlari bilan birlashish, tashabbuslar ko'rsatish hamda tarmoqda ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi platforma hisoblanadi⁸¹. Yuqorida sanab o'tilgan jihatlar siyosiy kommunikatsiyaning elementi ekanligi nazarda tutilsa, internet eng keng tarqalgan asosiy siyosiy kommunikatsiya va shundan kelib chiqqan holda siyosiy manipulyatsiya maydoni ekanligi ma'lum bo'ladi.

Bu esa o'z navbatida internetda amalga oshiriladigan siyosiy kommunikatsiya shakllarini batafsil ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Bundan maqsad mazkur internet kommunikatsiyalarining qaysi ildizsimon xususiyatga ega siyosiy manipulyatsiyalar texnologiyalarini ko'llashga ko'proq imkon berishini aniqlashdan iborat.

⁸⁰ Шилина М. Г. Массмедиа в XXI веке: новые теоретические и образовательные концепции как условие развития индустрии и безопасности информационного пространства/ Вестник Челябинского государственного университета. 2013. №22. С. 294

⁸¹ Saran V. Media manipulation and psychological war in Ukraine and the Republic of Moldova / Vladislav Saran// CES Working Papers. – 2016. – Vol. VIII, Iss. 4. – P. 742

2.2 Siyosiy internet kommunikatsiya shakllarining manipulyativ xususiyatlari

Bugungi kundagi internet siyosiy manipulyatsiyalarni amalga oshirishning asosiy kanallari sifatida:

- elektron pochta (Gmail, mail.ru, Yandex-pochta)
- messenjerlar (WhatsUr, Viber, Telegram)
- matn –Live Journal, video – Youtube, Rerissore, audiopodkastlar shaklidagi bloglar;
- yangiliklar saytlar (“kommersant”, Ria-novosti”, “qalamrir.uz”. “kun.uz”, “daryo.uz”);
- davlat hokimiyati organlari saytlari;
- siyosiy partiyalar saytlari;
- davlat xizmatlari saytlari;
- siyosiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi institutlar va laboratoriyalar saytlari;
- siyosatchilar, siyosiy faollar, jamoat arboblari, fuqarolarning shaxsiy saytlari va bloglari;
- ijtimoiy tarmoqlar kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Mazkur siyosiy kommunikatsiya vositalarining har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardan quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: kommunikatsiya modellari, ishtirokchilar miqdori, axborot almashinish tezligi, kanallar va aloqalar miqdori va h.k. Sanab o‘tilgan siyosiy kommunikatsiya shakllarining har biri siyosiy manipulyatsiyani amalga oshirishda o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Ammo ular orasida ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunga kelib birmuncha samarador vosita sifatida qaralmoqda. Keng ko‘p tillik auditoriyaga egalik, interfeyslarning oson va barchaga tushunarli ekanligi, siyosiy kontentni yaratish, iste‘mol qilish va tarqatishda har bir foydalanuvchining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etish imkoniyatiga ega ekanligi kabi o‘ziga xos xususiyatlari ijtimoiy tarmoqlarni internet kommunikatsiyalar o‘rtasida ustunlik kasb etishiga olib keldi.

Ijtimoiy tarmoqlar turli guruhlardagi insonlarga o‘zaro muloqotga kirishish imkoniyatini beruvchi dasturiy servis hisoblanadi⁸². Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari turli maqsadlar, masalan siyosiy maqsadlarga ko‘ra birlashishlari mumkin. Natijada esa bugungi kundagi eng samarador internet kommunikatsiya aktorlaridan biri bo‘lgan tarmoq hamjamiyatlari yuzaga keladi.

Tarmoq hamjamiyatlari to‘rt asosiy xususiyatga ega.

Jumladan, tarmoqda foydalanuvchilarni birlashtirish o‘ziga xos tuzilmasi mavjud. “Tarmoqni tashkil etish prinsipining mohiyati ko‘p darajali iyerarxiyani avtonom birliklar tarmog‘iga almashtirish va koordinatsiyalashning ma‘muriy mexanizmlaridan voz kechishda namoyon bo‘ladi” deb ta‘kidlaydi A.V.Sokolov⁸³. A.I.Fursov ta‘kidlaganidek, “internet hamjamiyatlari yaqqol tuzilmaga ega bo‘lib, gorizantal kommunikatsion aloqalarning rivojlanib borishi ularning o‘ziga xos xususiyati sanaladi”⁸⁴. Tarmoq hamjamiyatlaridagi muloqot teng asosda amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida guruh identikligi shakllanish jarayonining soddalashishga olib keladi. A.I. Fursovning ta‘kidlashicha, “tarmoq hamjamiyatlari iyerarxik emas, balki ildizsimon xususiyatga ega. Tarmoq hamjamiyatlari institutsional iyerarxik struktura tuzilmalarga mutlaqo aloqador bo‘lmaganligi tufayli markaz va yuqori nuqtaga ega emas”⁸⁵. Shu ma‘noda tarmoq hamjamiyatlarini institutsional tuzilmalarga muammosiz qo‘llash mumkin. Bu esa ularni manipulyator maqsadlariga ko‘ra foyda keltiruvchi istalgan sohaga yo‘naltirish imkonini beradi. Quyida mazkur fenomenni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Tarmoq hamjamiyatlari aktorlarida muayyan resurslarning mavjudligini uning ikkinchi xususiyati sifatida ko‘rsatish mumkin⁸⁶. Ular ijtimoiy tarmoqda

⁸² Шапкина Е.В. Интернет в системе средств массовой информации и особенности его восприятия в общественном сознании// Е.В. Шапкина// Вестник Кемеровского государственного университета. 2015. №2. С.96

⁸³ Соколов А.В. Сетевая гражданская активность в современной России// А.В. Соколов, И.С. Маклашин // Вестник Костромского Государственного Университета. 2013. №6. Т.19. С. 160

⁸⁴ Володенков С.В. Социальные медиа как инструмент современной публичной политики: особенности и перспективы применения/ С.В. Володенков// Политическая наука. 2017. №5. С. 303

⁸⁵ Фурсов А.И. Борьба вопросов. Идеология и психоистория: русское и мировое измерения. М.: Книжный мир, 2017. С. 458

⁸⁶ Forster M. Trust and Manipulation in Social Networks//Manuel Foster, Ana Mauleon, Vincent J. Vannetelbosch// URL: http://www.fas.harvard.edu/~histecon/informationtransmission/papers/trust_manipulation_networks_NS.pdf (murojaat vaqti: 17.08.2024)

obunachilar va do'stlar miqdori, tarmoq hamjamiyatining boshqa a'zolariga nisbatan belgilangan status, siyosiy kontentlarni translyatsiya qilinadigan shaxsiy kanallarning mavjudligi kabilardan iborat. Katta resursga ega bo'lgan tarmoq hamjamiyatining foydalanuvchilari qancha ko'p bo'lsa, uning ta'sir doirasi ham shuncha keng bo'ladi. Uning g'oyalari nafaqat ichki auditoriya (guruh a'zolari va obunachilari) balki tashqi auditoriyaga ham (muayyan sababga ko'ra tarqatilayotgan axborotning iste'molchisi bo'lgan yoki translyatsiya qilingan kontentga xayrixoh kishilar) ga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu esa hamjamiyat foydalanuvchilarining ko'payishi unga qiziquvchi omma miqdorining oshishiga xizmat qiladi. Natijada yangi foydalanuvchilar guruhning tizimli g'oyalari, guruh o'yinlarini va qoidalarini qabul qilib, unda hal qiluvchi shaxslardan biriga aylanib borishi mumkin⁸⁷. Soddaroq aytganda, u mazkur pozitsiyani egallab internet hamjamiyatining ustanovkalarini qabul qiladi.

Shaxsning virtual portreti bilan hamjamiyatda qayddan o'tgandan so'ng vujudga keladigan aloqaga kirishish kommunikatsiya jarayonidagi vositachilikka olib kelishini uchinchi xususiyati sifatida ko'rsatish mumkin⁸⁸. Virtual portret foydalanuvchining profili bo'lib, unda F.I.Sh., turar joyi, ish tajribasi, e'tiqodi va qiziqishlari bilan bog'liq shaxsiy ma'lumotlari o'z aksini topadi. Internet rivojining zamonaviy bosqichlarida internet foydalanuvchisi o'z profilini yaratish borasida mutlaq erkinlikka ega bo'ladi. Bunga ko'ra hech kim foydalanuvchidan profilga joylashtirilgan ma'lumotlarning chinligini tasdiqlovchi biror-bir hujjat yoki isbot talab qilish huquqiga ega bo'lmaydi. Bu esa foydalanuvchiga o'z portretini istagan obrazda yaratish, shu asosda istalgan, xususan siyosiy manipulyativ maqsadlarda undan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Shu ma'noda insonlar noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin. Qolaversa, bu ma'lumotlarning chinligini ochiq manbalardan tasdiqlashning deyarli imkoni ham bo'lmaydi. Foydalanuvchi turli profillar yaratib, xilma-xil faoliyatlar bilan shug'ullanuvchi, hatto bir-biriga

⁸⁷ Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие. СПб., 2001. С. 241

⁸⁸ Шахматова О. М. Психологические аспекты общения в социальных сетях виртуальной реальности/ О.М. Шахматова О.М., Е.Ю. Болтага// Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г. Белинского. 2014. №24. С. 1005

zid bir nechta hamjamiyatlar ishida ham qatnashishi mumkin. Ular real shaxsning profillari emas, balki feyklar hisoblanadi. Feyklarning ham bir nechta variantlari mavjud. Tarmoqlardagi feyk profillarning birinchi varianti real shaxsga asoslangan holda yaratiladi. Ikkinchi variant noldan tuzilgan feyk proffillar bo‘lib, ularning ortida biror-bir real shaxs turmaydi.

Hamjamiyat a‘zolari o‘rtasida “o‘zimizniki-begona” tamoyili asosida jamoaviy identiklikning shakllanishi to‘rtinchi xususiyat hisoblanadi. Bu hol ayniqsa siyosiy sohada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Kerol Sun jamoaviy identiklikning uchta xususiyatini ko‘rsatib o‘tadi⁸⁹:

- Guruh a‘zolari o‘rtasida umumiylikning anglanganligi, bir muhit va bir hamjamiyatga tegishlilik hissining mavjudligi. Foydalanuvchilarning siyosiy sohada o‘z hamfikrlarini topishga intilishlari buning yaqqol misoli bo‘la oladi;

- Alohida ijtimoiy madaniy belgilarda namoyon bo‘luvchi guruh identikligi uni boshqa guruhlar fonida yorqin ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Siyosiy sohada bu muayyan qarash tarafdori bo‘lish, muayyan aktorni qo‘llab-quvvatlash hamda biror-bir xatti-harakatni amalga oshirishga intilishda namoyon bo‘ladi;

- Kishilar xulq-atvorining tartibga soluvchi omili sifatidagi barqaror ijtimoiy me‘yorlarning mavjudligi. Bunda foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqda muayyan sotsial rollarni qabul qilishlariga to‘g‘ri keladi. Bu esa ularga hamjamiyat me‘yorlari doirasida legitim tarzda harakatlanish imkonini beradi. Agar foydalanuvchi mazkur me‘yorlar doirasidan tashqariga chiqsa, tabiiy ravishda u mazkur hamjamiyat muloqot tizimidan chiqarib yuboriladi⁹⁰. Ko‘pincha bu “ban” usuli orqali amalga oshiriladi.

Shaxsiy virtual reallikni yaratish tarmoq hamjamiyatlarining beshinchi asosiy xususiyati sanaladi. Buning asosida esa ijtimoiy chegaralar, sotsiomadaniy muhit hamda ijtimoiy munosabatga kirishish qoidalari singari real ijtimoiy

⁸⁹ Soon C. Uniting political bloggers in diversity: Collective identity and Web activism//Journal of Computer-mediated communication. 2014. Vol.19, Iss. 3. P. 503

⁹⁰ Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие. СПб.: Наука, 2000. С. 251

guruhlar belgilariga ega bo'lgan virtual tarmoq hamjamiyatlari hosil qilinadi⁹¹. Valeriy Solovevning "internetning buyuk mo'jizakor harakatlanuvchi kuchi shundaki, u ruhiyatiga ko'ra, mafkurasiga ko'ra, qadriyatlariga ko'ra o'ziga yaqin kishilardan iborat ta'sir ko'rsatish maydoniga ega bo'ladi"⁹² degan fikri tarmoq hamjamiyatlari mohiyatini to'raligicha ochib berishga xizmat qiladi.

V.Solovevning fikrini qo'llab-quvvatlagan amerikalik olim Y.Soler esa internetni, - "turli xil rollar, pozitsiyalar hamda imkoniy identikliklarni xavfsiz ravishda sinab ko'rish joyi; o'zini olamda namoyon qilish uchun mo'ljallangan "Men" trenajyori sifatida ta'riflaydi"⁹³. Ayni paytda internet shaxs yaxlitligining parchalanishiga ham olib keladi. Sodaroq qilib aytganda, shaxs internet tufayli o'zini turlicha identifikatsiyalab real va virtual olamda xilma-xil modellarda qo'llaydi. Ko'pincha shaxs "real olamda originali bo'lmagan nusxalarni" simulyakrlarni hosil qiladi. Siyosiy kommunikatsiya kesimida esa u yoki bu siyosiy reallik fenomenining, mazkur fenomenning sun'iy tarzda hosil qilingan siyosiy virtuallik tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan yangi elementlari ta'siri ostidagi transformatsiyasida namoyon bo'ladi⁹⁴.

Boshqa tomondan esa biz virtual va real o'lchamlarda namoyon bo'ladigan shaxsning ikkilanganligi hodisasi bilan yuzlashamiz. Bu esa insonning voqelikni idrok etish qobiliyatining buzilishiga olib kelishi mumkin⁹⁵.

Virtual reallik haqida so'z ketar ekan, uning asoslaridan biri bo'lgan virtuallik lotincha virtus "yuqori qobiliyat" degan ma'noni anglatadi⁹⁶. Virtuallik hodisasi Jon Bordiryar asarlarida chuqur tadqiq etilgan bo'lib, muayyan ma'noda uni ayni sohaning nazariyotchilaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin. U o'zining

⁹¹ Ефимов, Е. Г. Социальные группы как объект исследования социальных Интернет-сетей / Е. Г. Ефимов // Известия ВолгГТУ : межвуз. сб. науч. ст. № 8(95) / Волг-ГТУ. Волгоград, 2012. (Серия «Проблемы социально- гуманитарного знания»; вып. 11). С. 64.

⁹² Соловей, В.Д. Абсолютное оружие. Основы психологической войны и медиаманипулирования / Валерий Соловей. Москва: Издательство «Э», 2015. С. 62

⁹³ Новикова О.Н. Виртуальная игра как средство формирования личностной идентичности детей и подростков /О.Н. Новикова// Педагогическое образование в России. 2014. №2. С.150

⁹⁴ Giancarlo Elia Valori. Politics of Emotions: How Political Leaders Manipulate Mass Psychology URL: <https://www.israeldefense.co.il/en/node/33610> (murojaat vaqti: 17.08.2024)

⁹⁵ O'sha yerda. С. 147

⁹⁶ Усанова Д.О. Виртуальная реальность: проблематика настоящего в ретроспективе философско-культурологического наследия/ Д.О. Усанова// Челябинский Гуманитарий. 2011 г. №14. С. 133

nazariyasida virtual olam ta'sirida reallikdagi shaxsning to'laqonli inqirozga uchrashi borasidagi g'oyani ilgari suradi. Bu Jon Bordiryar tomonidan "polimentalizm" deb atalgan fenomenning ta'siri bilan shartlanadi. Polimentalizm doimiy ravishda virtuallikdan realikka va aksincha reallikdan virtualikka o'tib turishni anglatadi⁹⁷. Siyosiy nuqtai-nazardan esa polimentallik deganda virtuallikda shakllangan siyosiy qarashlar, qadriyatlar va g'oyalarning real olamga ko'chishi tushuniladi. Turli virtual hamjamiyat orqali ma'lumot olgan inson o'zining shaxsiy dunyo siyosiy manzarasini yaratadi. Buning oqibatida ayni insonning virtual olamda shakllangan siyosiy faolligi real olamga ko'chishi mumkin.

Internetdagi siyosiy faollikning quyidagi ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Siyosiy hodisalarni muhokama qilish;
- Yangiliklar, memlar, analitika va h.k.lar shaklidagi siyosiy kontentlarni ishlab chiqish;
- Yangiliklar, dasturlar, bloglar va h.k.ko'rinishidagi siyosiy ma'lumotlarni tarqatish;
- Yangiliklar saytlar, bloglar va h.k.lar orqali siyosiy xabarlarni iste'mol qilish;
- Siyosiy harakatlar, guruhlar va hamjamiyatlarni shakllantirish;
- Siyosiy tarmoq guruhlar va pabliklarni shakllantirish;
- Petitsiyalar uchun onlayn imzolar yig'ish;
- Mitinglar, namoyishlar va shunga o'xshash siyosiy hodisalarda qatnashishga chaqirish.

Virtual siyosiy olamning ta'siri sifatidagi polimentalizmni qo'llash shaxsning real olamda quyidagi siyosiy faollik shakllarini namoyon qilishiga olib kelishi mumkin:

- Turli darajadagi saylovlarda ovoz berish uchun ishtirok etish;
- Mitinglar va namoyishlarda ishtirok etish;

⁹⁷ Закирова Т.В. Концепция виртуальной реальности Жана Бодрийера/ Т.В. Закирова, В.В. Кашин// Вестник Оренбургского государственного университета. 2012. №7. С. 29

- Ko‘chalarda siyosiy targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;
- Turli darajadagi referendum va ovoz berish jarayonlarini tashkil etish;
- Siyosiy harakatlar va partiyalarni shakllantirish.

Bugungi kunda virtual olamning ko‘p hollarda real olamga ko‘chayotgan o‘ziga xos xususiyati sifatida muayyan namunalar universal bilish shakllarining mavjudligini ko‘rsatish mumkin. Bu esa foydalanuvchiga o‘z-o‘zini identifikatsiyalash va internet makonidagi hamfikrlarini aniqlash imkonini beradi⁹⁸. Bizningcha, siyosiy internet memlar ayni universallikni o‘zida namoyon qiladi.

Mazkur paragrafda internet memlar siyosiy nuqtai-nazardan internetdagi siyosiy manipulyatsiya birligi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Internet memlar qayd qilingan ma’noga ega o‘zgaruvchan “mutatsiya”ga uchrovchi shaklga ega muayyan tasvir yoki idiomalardir⁹⁹. Memlar istalgan siyosiy voqea-hodisalar yoki jarayonlarni tez va qulay talqin qilish imkonini beruvchi raqamli stigmatizatsiya vositasi hisoblanadi¹⁰⁰.

Siyosiy memlar o‘zida yangiliklar, voqealar, shaxslar, mulohazalar ko‘rinishidagi turli xil ma’lumotlarni mujassam qiladi. Shu ma’noda har bir mem o‘zining xususiy ma’nosiga ega bo‘ladi. Musiqalar, mashhur iboralar, g‘oyalar, rasmlar va komikslar memlarga misol bo‘la oladi¹⁰¹.

Memlar global tarmoqda yaratilib, foydalanuvchilarning o‘zlari tomonidan tarqatilganligi tufayli ko‘plab ta’limotlarda ularga o‘ziga xos internet kommunikatsiya shakli sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqqan holda, ayni aloqa shaklini shartli ravishda “memli” kommunikatsiya deb atash mumkin. Mazkur kommunikatsiya shaklining mohiyati shunda namoyon bo‘ladiki, unda foydalanuvchilar bir-birlariga mem xabarlar jo‘natish orqali o‘zlarining muayyan tarmoq hamjamiyatiga mansub ekanliklari hamda siyosiy qarashlarini ifoda

⁹⁸ Beck E. The Logic of Manipulation: 33 Techniques of Romanian Political Manipulation/ Editura C.H.Beck// Bucuresti, 2010. P.20

⁹⁹ Зиновьева Н. А. Роль интернет-мемов в воспроизводстве интернет-культуры // Электронный научный архив УрФУ [Электронный ресурс] - URL: <https://clck.ru/WtNyF> С. 217-223 (murojaat vaqti: 17.08.2021)

¹⁰⁰ Володенков С.В. Роль информационно-коммуникационных технологий в современной политике/ С.В. Володенков// Научный ежегодник Института философии и права Уральского отделения Российской академии наук. 2018. Т. 18. № 2. С. 74

¹⁰¹ Коровин В. Третья мировая сетевая война. СПб.: Питер, 2014. С. 173

etadilar. Xabarning yaxlit mazmunidan qat'iy nazar memlar uni chop etgan yoki tarqatayotgan foydalanuvchining qaysi tarmoq hamjamiyatiga xayrixohligi, qaysi siyosiy qarashni qo'llab-quvvatlashi va qaysi siyosiy voqeaga qiziqishini aniqlash imkonini beradi. Internet kommunikatsiya vositasiga aylanishi uchun memlar yetarlicha jozibadorlik kasb etishi zarur. Unda mujassam bo'lgan g'oya kishilarga yoki guruh a'zolariga ma'no mazmuni va emotsional jihatdan katta qiziqish uyg'otishi lozim¹⁰². Shunga qaramasdan, memlar tili o'zaro kommunikatsiyaga me'yor baxsh etadi. Bu jarayonda memlar internet foydalanuvchilari o'rtasida o'zaro tushunishni yuzaga keltiruvchi internet kommunikatsiya til ifodalarining o'ziga xos tarjimasiga aylanadi¹⁰³.

Internet memlar uchun uzoq muddat mavjud bo'lishdan ko'ra samaradorlik muhim hisoblanadi¹⁰⁴. Bu memlarning olamda sodir bo'layotgan dolzarb voqealarni aks ettirish bilan izohlanadi. Memlarning uzoq muddat amal qilishi muayyan siyosiy hodisaning internetda qancha muddat aylanishi bilan belgilanadi. Foydalanuvchilarning muayyan memni o'z atrofida qilarga tarqatish uchun sarflagan vaqtlari uning samaradorlik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. "Virusimonlik" yoki autoreplikasiya internet memlar, jumladan siyosiy internet memlarning asosiy xususiyati hisoblanadi¹⁰⁵.

Richard Broudi o'zining "Psixologik viruslar" nomli asarida internet memlarni uchta katta guruhga tasniflaydi¹⁰⁶. Mazkur tasnifni siyosiy internet memlarga ham qo'llash mumkin.

Strategik guruh. Mazkur guruhga kiruvchi siyosiy internet memlari muayyan siyosiy harakatni bajarishga undovchi chaqiriqlar hamda bu chaqiriqqa javob berish yoki uni e'tiborsiz qoldirishning oqibatlarini o'zida mujassam etadi. Bu guruhga kiruvchi siyosiy memlar iste'mol qilinganda ongda sabab va oqibat

¹⁰² Глухих В. А. Интернет-мемы как инструменты публичной политики / В. А. Глухих, С. М. Елисеев // Дискурс. 2017. № 4. С. 92

¹⁰³ В.М. Лоскутникова. Хабермас и Луман: два подхода к исследованию процессов коммуникации в современном обществе / В.М. Лоскутникова // Гуманитарная информатика. 2004. № 1. С. 85.

¹⁰⁴ Докинз, Ричард Эгоистичный ген / Ричард Докинз; пер. с англ. Н. Фоминой. Москва: Издательство АСТ: CORPUS, 2017. С. 298

¹⁰⁵ O'sha yerda. С.303

¹⁰⁶ Бродиди, Ричард. Психические вирусы. [Электронный ресурс]. URL: <http://booksonline.com.ua/view.php?book=74932> (murojaat vaqti: 16.08.2024)

aloqadorligi shakllanishi oqibatida shunga mos tarzda muayyan siyosiy xulq-atvor namunalari yuzaga keladi.

Assotsiatsiya guruhleri. Mazkur guruhga kiruvchi siyosiy internet memlarning o'ziga xos xususiyati sifatida ularning boshqa turdagi memlar bilan assotsiatsiya tamoyili asosida o'zaro ta'sirga kirishishini ko'rsatish mumkin. Foydalanuvchining ko'z o'ngida biror-bir siyosiy internet mem namoyon bo'lib, uni idrok qilish paytida xotirasidagi boshqa bir yoki bir necha memlar, ularni qabul qilgandagi hissiyot, o'sha memlarga nisbatan munosabat qayta uyg'onadi. Internet memlarni hosil qilishda taniqli kinofilm kadrlari yoki unda qo'llanilgan iboralardan foydalanilganda, birinchidan, bu iste'molchi ongida chuqur iz qoldiradi. Ikkinchidan, foydalanuvchida memga nisbatan darhol munosabat bildirish hissini uyg'otadi. Uchinchidan, bu memning yumoristik jihatini yoritib berib, uni kamida manipulyatsiya qaratilgan auditoriyaning ayni film bilan tanish qismi uchun tushunarli va sodda holatga keltirgan holda siyosiy memning haqiqiy mohiyati sari yo'naltiradi.

Toifalar guruhi. Mazkur guruhga kiruvchi memlar yuqoridagilar bilan o'zaro qarama-qarshilik kasb etadi. Foydalanuvchilar bu tipga kiruvchi memlar yordamida qabul qilinayotgan axborotlarni tasniflab tuzilmaga soladilar. Bu guruhga kiruvchi siyosiy internet memlarda ularning qanday toifaga kirishini ko'rsatuvchi muayyan yorliq, stereotip yoki boshqa bir indikator mavjud bo'ladi. Tarmoq hamjamiyatlari va uning a'zosi bo'lgan muayyan siyosiy memlar mualliflarini toifa sifatida ko'rsatish mumkin. Shuningdek, siyosiy arboblar, siyosiy hodisalar, siyosiy tashkilotlar va siyosiy oqimlar ham toifa vazifasini bajarishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bizning fikrimizcha internet memlarni muayyan guruhlariga tasniflash shartli hisoblanadi. Internet memlar konvergent fenomenlar bo'lib, bitta mem o'zida bir necha guruhga kiruvchi memlar xususiyatlarini aks ettirishi mumkin. Bu xususiyat internet memlar, xususan siyosiy internet memlarning foydalanuvchi ongiga ta'sir ko'rsatish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Siyosiy internet memlar quyidagi funksiyalarga ega:

1. Siyosiy fikrni ifoda etish;
2. Muayyan siyosiy hodisa yoki shaxsni masxaralash;
3. Muayyan hodisa yoki shaxsga diqqatni tortish;
4. Tarixiy yoki joriy siyosiy hodisaga oid muayyan qarash yoki qadriyatlarni targ'ib qilish¹⁰⁷;
5. Siyosatchining imijini shakllantirish yoki uni yuksaltirish¹⁰⁸;
6. Siyosiy xabarni qabullashni osonlashtirish.

Ijtimoiy tarmoqlar va internet kommunikatsiyalarini memli vositalar orqali tahlil qilish, internetning naqadar ildizsimon xususiyat kasb etishini anglash imkonini beradi. Ildizlik ko'plab tugunlar va aloqa kanallaridan iborat bo'lib, mazkur tugunlar yana birlashadi. Turli-hil siyosiy guruhlar, chatlar, pabliklar shuningdek katta mashhurlikka ega oddiy foydalanuvchilar ham ijtimoiy tarmoqda "tugun" sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Tugunlar o'lchami obunachilar, do'stlar, guruh a'zolari soniga bog'liq bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, tugunga qancha ko'p foydalanuvchi jalb qilingan bo'lsa, uning hajmi shuncha katta bo'ladi. Tugun qancha katta bo'lsa, uning tarmoq kanallari va aloqalari shuncha keng bo'ladi. Zero, har bir foydalanuvchi potensial axborot tarqatuvchi vazifasini bajaruvchisi bo'lishi mumkin. Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, qancha ko'p foydalanuvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanilsa tugunning ijtimoiy tarmoqdagi ta'siri va nufuzi shuncha yuqori bo'ladi.

Shunisi muhimki, bir foydalanuvchi bir nechta tugunni qo'llab-quvvatlasa, u mazkur tugunlarni o'zaro bir-biriga yaqinlashishiga xizmat qiladi. O'zaro ta'sirdagi tugunlar o'rtasidagi axborot yuqori tezlik va batartib tarzda uzatilib, uning virusli xarakter kasb etishiga olib keladi. Mazmuniga ko'ra turli-hil hatto bir-biridan keskin farq qiluvchi tugunlar axborotlarini iste'mol qilayotgan foydalanuvchi, har bir tugunni alohida-alohida, to'laligicha qabul qilish

¹⁰⁷ Haddow D. Meme warfare: how the power of mass replication has poisoned the US election// The Guardian. 4.11.2016. URL: <https://www.theguardian.com/us-news/2016/nov/04/political-memes-2016-election-hillary-clinton-donald-trump> (murojaat vaqti: 15.08.2024)

¹⁰⁸ Канашина С. В. Роль интернет-мемов в процессе политических выборов/ С. В. Канашина// Политическая лингвистика. 2018. № 1 (67). С. 67-73.

imkoniyatiga ega bo'lmay, ularni qisman idrok etadi. Natijada esa foydalanuvchi ongida axborotni oqilonalik yordamida tartibga solish zaruratini uyg'otadi. Axborotni bu tariqa tartibga solish unga olam manzarasini yaxlit holda tushunish imkonini beradi. Erix Fromm, "ratsionallashtirishni kishining shaxsiy xohish-istaklarini mavjud hodisalar bilan bog'lash deb tushuntiradi. Ratsionallashtirish inson bilgan va unga yangi bo'lgan hodisalar o'rtasida bog'liqlik o'rnatish orqali kishida oldindan mavjud hissiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi¹⁰⁹" deb ta'kidlaydi. Ratsionallashtirish ildizsimon siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarining eng kuchli effektlaridan biri hisoblanadi.

Birinchi ikkinchi paragrafdagi mulohazalar tahlillarini umumlashtirgan holda internetdagi ildizsimon siyosiy texnologiyalarni amalga oshirishning quyidagi taxminiy modelini taklif qilish mumkin.

Birinchi bosqich. Ayni bosqichda siyosiy tarmoq hamjamiyatlari dolzarb siyosiy voqealarni kuzatib boradilar.

Ikkinchi bosqich. Ular orasidan olamda sodir bo'layotgan eng dolzarb siyosiy hodisalarni ajratib olgan moderatorlar yoki oddiy foydalanuvchilar uni kontent sifatida (siyosiy internet memlar ko'rinishida) axborot maydoniga joylashtiradilar. Mem turli shakllarda yaratilgan bo'lishi mumkin:

1. Vizual shakl (rasmlar, makroslar, demotivatorlar, edvayslar, komikslar va fotojabalar);
2. Audio shakl (qo'shiqlar, mashhur saundtreklar, sloganlar va shiorlar);
3. Matn shakl (har qanday so'z ifodasi, xususan iqtiboslar, neologizmlar, kichik yumoristik she'rlar);
4. Aralash shakl (videorolik)

Kontentning tarqatilishi tarmoq hamjamiyati a'zolari tomonidan kompyuter, planshet va telefon singari tashuvchi qurilmalariga saqlagan holda o'z sahifalarida repost qilishlari yoki do'stlariga shaxsiy xabar sifatida ulashishlari, shuningdek, messenjerlar, chatlar, bloglar singari turli xil internet "tugun"larida uzatish orqali amalga oshiriladi.

¹⁰⁹ Фромм, Эрих. Бегство от свободы/ Эрих Фромм. М.: АСТ, 2015. С. 164

To'rtinchi bosqich. Tarmoqqa yuklangan internet memlarning mavzu jihatidan analoglarini yaratish.

Beshinchi bosqich. Siyosiy kontentni unda ishtirok etmasdan iste'mol qilish.

Oltinchi bosqich. Qabul qilinayotgan axborotga nisbatan foydalanuvchining shaxsiy nuqtai-nazarini shakllantirish. Ayni bosqichda ratsionallashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Yettinchi bosqich. Siyosiy ustanovalarni shakllantirish. Biz siyosiy ustanovalarning quyidagi tiplarini ajratib ko'rsatamiz:

Siyosatda faol qatnashish ustanovalari. Bu tipdagi ustanovalar foydalanuvchilarni virtual va real olamda birdek siyosiy faollik ko'rsatishga undaydi.

Joriy siyosiy jarayonlarda faol bo'lishdan manfaatdorlik ustanovalari. Bu ustanovala foydalanuvchining joriy siyosiy jarayonga bo'lgan ishtiyoqida namoyon bo'lib, uni davom etayotgan siyosiy voqealarni kuzatishga va ular haqida ma'lumot to'plashga undaydi. Manfaatdorlik ustanovalari keyinchalik siyosatda faol ishtirok etish ustanovalariga aylanishi mumkin.

Sust manfaatdorlik ustanovalari. Bu tipdagi ustanovalaga ega bo'lgan foydalanuvchi voqealar haqida umumiy tasavvurga ega bo'lganligi tufayli unga qiziqish bildirmaydi. Natijada esa u siyosiy hodisa ishtirokchisi bo'lish uchun maqsadli tarzda intilmaydi. Shunga qaramasdan, muayyan sharoitlarda mazkur ustanovala nafaol ko'rinishdan faol ko'rinishga o'tishi mumkin. Axborot, bosim, tarmoq hamjamiyatlari tomonidan mavzuning faol muhokama qilinishi, joriy siyosiy jarayonga nisbatan foydalanuvchi atrofida qiziqishlarining ortishi bunday sharoitlarga misol bo'la oladi.

Ishtirok etmaslik ustanovalari. Bu ustanovala joriy siyosiy jarayonlarga nisbatan mutlaqo qiziqish mavjud emasligini anglatadi.

E'tiborsiz qoldirish siyosiy ustanovalari. Mazkur ustanovalaning yuqoridagilardan farqi shundaki, unda foydalanuvchi qabul qilinayotgan axborot ataylab e'tiborsiz qoldiradi.

Birinchi paragrafda biz siyosiy kommunikatsiya fenomen sifatidagi siyosiy

manipulyatsiyalash dinamik xarakter kasb etib, muayyan vaqt davomida turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi degan xulosaga keldik. OAVlar va kommunikatsiyalarning rivojlanishi bu boradagi hal qiluvchi omillardan sanaladi. Ko'plab manipulyatsiyalash, xususan siyosiy manipulyatsiyalash nazariyalari mavjud bo'lishiga qaramasdan, ular XXI-asr global axborot makoni chaqiriqlariga qisman javob bera oladilar. Zero, ularning hech biri yangi "media axborot makoni" xususan internet tarmog'ida amalga oshiriladigan siyosiy manipulyatsiyalarning barcha xususiyatlarini to'liq qamrab olishga qodir emas.

Biz internetning hozirgi rivoji bosqichida mavjud bo'lgan nazariyalarni siyosiy manipulyatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari tahlili bilan to'ldirishga harakat qildik. Tadqiqot davomida biz OAV va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan siyosiy manipulyatsiyaning chiziqli tabiati ildizsimon xususiyat kasb etib bordi degan xulosaga keldik. Shu bilan birga, siyosiy manipulyatsiyaning eng mashhur nazariyalarida, o'z shaxsiy g'arazli maqsadlarini ko'zlagan subyektning mavjudligi, bu manipulyatsiya jarayoniga salbiy axloqiy tus beradigan siyosiy manipulyatsiyaga obyekt va subyekt o'rtasida chegara mavjud bo'lmagan jarayon deb qaralsa, u axloqiy mushohada doirasidan tashqariga chiqib, uni shunchaki XXI-asrning axborotlari sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Ikkinchi paragrafda biz internetni ildizsimon siyosiy manipulyatsiya texnologiyalari qo'llaniladigan asosiy platforma sifatida ko'rib chiqdik. Tahlil jarayonida internet va uning modellari rivojlanish tarixini ko'rib chiqib, uning hozirgi ish jarayoni Web 2.0 modeliga nisbatan birmuncha afzalliklarga ega degan xulosaga keldik.

2.3 Internetda qo'llaniladigan zamonaviy siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarining tasnifi

Mazkur tadqiqot ishi mantig'i nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda, internet tarmog'ida qo'llaniladigan siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarini uch katta guruhga tasniflash mumkin:

1. **Vektor siyosiy manipulyatsiyalar.** Mazkur yo‘nalishga kiruvchi texnologiyalarda subyekt manipulyatsiya obyektiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir o‘tkazgani holda, manipulyatsiya subyekti va obyektini aniq namoyon bo‘ladi. Bunda manipulyativ kontentning shakli va mazmuni obyektning ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib, maqsadga muvofiq ravishda tanlab olinadi.

2. **Ildizsimon siyosiy manipulyatsiyalar.** Mazkur manipulyatsiya turida obyekt va subyekt o‘rtasidagi qat’iy chegara hamda muayyan yo‘nalish mavjud bo‘lmagani holda, keng qamrov kasb etadi. Bunday manipulyatsiyaga mo‘ljallangan internet kontentlari muayyan maqsadli auditoriya xususiyatlarini nazarda tutmagan holda o‘z-o‘zicha impulsiv tarzda hosil qilinadi va tarqatiladi.

Ildizsimon texnologiyalarning mezoni esa quyidagilardan iborat:

1. Aniq namoyon bo‘luvchi manipulyatsiya subyektining mavjud emasligi;
2. Manipulyatsiya obyektining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy identifikatorlarining mavjud emasligi;

1. Siyosiy manipulyativ kontentni ijtimoiy tarmoqlarda hosil qilish va keng tarqatish jarayonida ko‘plab internet foydalanuvchilarining ishtirok etishi;

2. Axborot tarqatishning xaotik xususiyat kasb etishi.

3. **Konvergent yoki gibrid siyosiy manipulyatsiya.** Bu guruhga kiruvchi siyosiy manipulyatsiya texnologiyalari o‘zida vektor va ildizsimon manipulyatsiyalar xususiyatlarini sintez qiladi.

Yuqorida ham ta’kidlanganidek birinchi guruh siyosiy manipulyatsiyaning vektor texnologiyalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Garchi, bunday texnologiyalar eski avlod “mediamakonida” keng qo‘llanilganligiga qaramasdan ularning ayrimlari bugungi kunda ham muayyan ahamiyat kasb etadi.

1. Tunnel ongiga yoki qutblilikka kirish texnologiyasi.

“Tunnel ong” chegaralari freymlar (“Inglizcha – ramka, kadr, qolip”¹¹⁰) – ayni o‘rinda, bu so‘z bir nechta ma’lumotlardan tashkil topgan tuzilmani bildiradi)

¹¹⁰ Фрейм Материал из Википедии — свободной энциклопедии// URL: <https://clck.ru/TrMAW> (murojaat vaqti: 19.03.2024)

tomonidan belgilab qo'yiladigan, inson ongining biror g'oya yoki g'oyalar sohasiga yo'nalganligini anglatuvchi fenomen hisoblanadi. Tunnel ong holatidagi inson uning chegaralaridan tashqarida ro'y berayotgan hodisalarga bee'tibor bo'ladi. Bunday holatda esa kishining dunyoqarashi manipulyator uchun foydali bo'lgan darajada torayadi.

Mazkur texnologiya ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich axborot muhitida manipulyator tomonidan yo'naltirilgan har biri yaxshi yomon, ezgu yovuz ko'rinishidagi hissiy axloqiy bahoga ega o'zaro ikki qutbli nuqtai-nazar kasb etuvchi obyekt yaratishdan iborat. Ikkinchi bosqichda, obyektidagi salbiy pozitsiya turli usullar bilan siqib chiqariladi. Jumladan, jamoatchilik ongiga murojaat qilgan holda salbiy pozitsiyaning noto'g'ri ekanligi isbotlaniladi. Bu esa manipulyator maqsadlari nuqtai-nazaridan ijobiy deb hisoblanuvchi pozitsiyaning chin ekanligi borasidagi xulosaga olib keladi. Natijada manipulyatsiya obyektining diqqati to'la-to'kis ijobiy pozitsiyaga qaratiladi. Manipulyatsiya obyektining istiqboldagi dunyoqarashi va xulq-atvori manipulyator maqsadlariga xizmat qiluvchi ayni pozitsiya ustiga quriladi.

Vektor manipulyatsiya guruhiga kiruvchi "negativ prognozlash texnologiyasi"ning tabiati va tatbiq qilish algoritmi ham yuqoridagi texnologiya bilan o'xshashlik kasb etadi. Ushbu texnologiyaning tunnel ong texnologiyasidan farqli jihati shundaki, unda nafaqat shunchaki nuqtai-nazarlar taklif qilinadi, balki voqealar rivojining istiqboldagi variantlari ham nazarda tutiladi. Manipulyator tomonidan taklif qilingan istiqboldagi voqealar rivojining negativ prognozidan kelib chiqqan holda, voqealarning "ijobiy" rivoji uchun muayyan chora-tadbirlarni qo'llash zarurati ta'kidlanadi¹¹¹.

2. Ma'lumotni maxfiy manbalardan sizdirish texnologiyasi.

Bu texnologiya taqdim etilayotgan axborotga favqulodda muhimlik xususiyatini baxsh etuvchi tanqislik tamoyili asosida amalga oshiriladi¹¹². "Maxfiy

¹¹¹ Соскина С.Н. Специфика использования манипулятивных приемов с целью воздействия на общественное мнение (на материале президентских предвыборных кампаний США 2012 года)/ С.Н. Соскина, Е.И. Сур// Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. 2015. №2 С. 158

¹¹² Чалдини Р. Психология влияния. СПб.: Питер, 2006. С. 223

lik” tusi berilgan xabar manipulyatsiya obyekti tomonidan taqiqlangan ma’lumot sifatida qabul qilinadi. Natijada ma’lumotni qabul qilayotgan inson o’zida manipulyativ kontent mazmuniga nisbatan katta qiziqish his qilib, beixtiyor uning tashuvchisiga aylanishi va shu asosda o’zini “maxfiy xabar tashuvchisi” sifatidagi referent guruh a’zosi o’laroq ko’rsatib, mavqeini oshirishga intilishi mumkin.

Maxfiy manbalardan ma’lumot sizdirish texnologiyasi yangiliklarga nisbatan jamoatchilik fikrini o’rganish hamda siyosiy voqelikda ro’y berayotgan muhim jarayonlardan aholining diqqatini chalg’itishda unumli foydalaniladi.

3. Yolg’on statistika

Mazkur texnologiya internet so’rovnomalardan foydalangan holda, jamoatchilik fikriga murojaat qilib, manipulyator pozitsiyasini tasdiqlashda foydalaniladi. Mazkur texnologiyani tatbiq qilishda yolg’on internet so’rovnomalari, hamda ovoz berish natijalarini soxta lashtirish orqali manipulyativ effektga erishiladi.

4. Yolg’on hodisalar yaratish texnologiyasi

Mazkur texnologiyaning mohiyati virtual makonda real voqelikda ro’y bermagan, g’ayrioddiy hodisa haqida xabar tarqatishda namoyon bo’ladi. Taqdim etilgan ma’lumotning chinligi manipulyativ vositalar orqali isbotlashga uriniladi. Jumladan, avtoritetlar yoki yolg’on avtoritetlarga havolalar qilinadi. Manipulyatorlar mazkur texnologiyani qo’llashda o’zlarining ijtimoiy tarmoqlar, axborot portallari, saytlardagi shaxsiy sahifalaridagi ishtirokchilar hamda obunachilar miqdorini oshirishdan iborat.

Bunda manipulyatorlar manipulyatsiya obyektiining dunyoqarash tizimini buzish, hamda uni taqdim etilgan axborot nuqtai-nazaridan qayta ko’rib chiqishga undashni maqsad qilib qo’yadilar¹¹³. Bundan tashqari ayni texnologiyani qo’llash, siyosiy virtuallik va siyosiy reallik o’rtasidagi farqning keskinlashuviga olib

¹¹³ Holiday R. What is Media Manipulation?--A Definition and Explanation/ Ryan Holiday // URL: <https://clck.ru/TqGg4> (murojaat vaqti: 19.03.2024)

keladi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida keskin ziddiyat va to‘qnashuvlarni yuzaga keltiradi¹¹⁴.

5. “Dudlangan baliq” texnologiyasi (red herring)

Mazkur texnologiya o‘z navbatida mumtoz targ‘ibot texnologiyalari sirasiga ham kiradi¹¹⁵. Texnologiyani amalga oshirish algoritmiga ko‘ra, manipulyator uchun foydasiz bo‘lgan materialni o‘rganishdan chalg‘itish maqsadida manipulyatsiya obyektining axborot maydoniga “sensatsion”, jozibador axborotlar tashlanadi¹¹⁶.

Ayni texnologiya, asosan, muxolifatdagi harakatlarning internet kommunikatsiyalarida keng qo‘llaniladi. Ularning ijtimoiy tarmoqlardagi hamjamiyatlari va sahifalarida mamlakatda ro‘y berayotgan jarayonlar salbiy bo‘yoqlar bilan tasvirlanib, ijobiy hodisalar e‘tiborsiz qoldiriladi.

“Dudlangan baliq” texnologiyasini suiiste‘mol qilish “Streyzand effekti”ning ro‘y berishiga olib keladi. Auditoriyadan muayyan ma‘lumotni muntazam ravishda yashirishga urinish, manipulyator tomonidan maxfiylashtirilgan ma‘lumotlarga bo‘lgan qiziqishning ortishiga olib keladi¹¹⁷.

6. “Miyani yuvish” texnologiyasi

Bu texnologiyaning mohiyatini Robert Jim Lifton “xitoyning tafakkurni tuzatish” borasidagi tajribasini o‘rganish asosida yozilgan asarlarda batafsil ochib berilgan. Mazkur tadqiqotda “miyani yuvish” texnologiyasi yuqori tahrirlovchi potensialga ega kommunikativ maydon sifatida talqin qilish mumkin bo‘lgan, siyosiy tarmoq hamjamiyatlarining ishlash mexanizmi misolida ko‘rib chiqiladi¹¹⁸. Ushbu texnologiyani tatbiq qilish algoritmi bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi:

¹¹⁴ Володенков С.В. Социальные медиа как инструмент современной публичной политики: особенности и перспективы применения/ С.В. Володенков// Политическая наука. 2017. №8. С. 296

¹¹⁵ Соловей, В. Д. Абсолютное оружие. Основы психологической войны и медиаманипулирования / Валерий Соловей. – Москва: Издательство «Э», 2015. С. 21

¹¹⁶ Соловей, В.Д. Абсолютное оружие. Основы психологической войны и медиаманипулирования / Валерий Соловей. – Москва: Издательство «Э», 2015. С. 93

¹¹⁷ Эффект Стрейзанд. Шило в мешке как оружие интернет-сопротивления/ Аргументы и Факты// URL: <https://clck.ru/TqGfF> (murojaat vaqti: 19.03.2024)

¹¹⁸ Эффект Стрейзанд. Шило в мешке как оружие интернет-сопротивления/ Аргументы и Факты// URL: <https://clck.ru/UDy4A> (murojaat vaqti:31.03.2024)

1. Kontent lokal internet makonning axborot muhitini tarmoq hamjamiyatining siyosiy yo‘nalganligiga muvofiq tarzda to‘ldirish. Bu bosqichda hamjamiyatning a‘zolari tomonidan fikr qilinishi lozim bo‘lgan axboriy tuzilmalar taqdim etiladi.

2. Hamjamiyat a‘zolarida muayyan qolipga solingan xulq-atvor namunalari manipulyativ vositalar orqali sun‘iy ravishda maqsadga muvofiq tarzda shakllantiriladi. Misol uchun bunday sun‘iy xulq-atvor shakllari guruhning moderatori yoki siyosiy yetakchilari tomonidan emas, balki uning oddiy a‘zolari tomonidan yozilgan maqolalar, chiqishlar orqali hosil qilinadi. Bundan ko‘zlangan maqsad kontent foydalanuvchisining o‘zini manipulyator qo‘lidagi qurol emas, balki mustaqil shaxs sifatida his qilishga erishish¹¹⁹.

3. Siyosiy olamni qutblashtirish: mazkur bosqichda siyosiy rejimlar, siyosiy institutlar va siyosiy arboblarni “mutlaq ijobiy” va “mutlaq salbiy” ko‘rinishdagi ikki antagonistik qutblarga ajratiladi.

4. Ko‘pchilikning fikriga qarama-qarshi nuqtai-nazarni bildirgan foydalanuvchi, kuchli bosim ostida qoldirilish orqali o‘zining nohaqligini tan olishiga erishiladi.

5. Auraning qo‘llab-quvvatlanishi; bunga ko‘ra o‘z atrofida hamjamiyatni birlashtirgan markaziy qism atrofi yetib bo‘lmas hamda o‘ta qadrli ko‘rinishda saqlanadi. Qolaversa, “noto‘g‘ri pozitsiyadan” turib fikr bildirgan hamjamiyat a‘zolarining qarashlari manipulyator maqsadlariga muvofiq “tuzatiladi” va “takomillashtiriladi”.

6. Tarmoq hamjamiyatining mavjudligini ta‘minlovchi hamda uning bosh g‘oyasiga muvofiq keluvchi qarashlar bilan mazkur qarashlarga nomuvofiq shuningdek, hamjamiyat mavjudligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan fikrlar o‘rtasida aniq chegara o‘tkaziladi.

Yuqorida tahlil qilingan texnologiyalar virtual siyosiy olamda manipulyatorlar tomonidan keng qo‘llaniladi. Bunday texnologiyalar siyosiy jarayonlar aktorlari tomonidan saylovoldi kompaniyalarida keng qo‘llanilib,

¹¹⁹ Роберт Джей Лифтон Технология промывки мозгов. – СПб.: «прайм-ЕВРО-Знак», 2005.– С. 499

ularning algoritmlari vaqt sinovidan o'tgan bo'lib, sodda hamda tushunarli tarzda amalga oshiriladi.

Quyida virtual olamda keng qo'llaniladigan ildizsimon guruhga kiruvchi siyosiy manipulyatsiya texnologiyalari ko'rib chiqiladi. Bunday texnologiyalarni birlashtiruvchi xususiyat sifatida ularni aniqlash jarayonining murakkabligini ko'rsatish mumkin. Qolaversa, mazkur texnologiyalar chuqur o'rganilgan tadqiqotlar ham birmuncha kam uchraydi.

1. Sock puppet (paypoq ko'g'irchog'i) texnologiyasi.

Sock puppet texnologiyasi AQSh "samimiy ovoz" loyihasining elementlaridan biri hisoblanadi. Dastlab mazkur texnologiya Iroqdagi koalitsiyaga qarshi psixologik xurujlarni amalga oshirgan Al-Qoida va boshqa harbiy guruhlar bilan kurashda qo'llanilgan¹²⁰. Mazkur texnologiyada bir foydalanuvchi o'nlab akkauntlarni tuzish va boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan dastur mujassamlashgan bo'ladi¹²¹. Ayni texnologiya real foydalanuvchilar diqqatini muayyan muammoga jalb qilgan holda, kun tartibini o'zgartirishni nazarda tutadi. Bu maqsadni bir necha usullar orqali amalga oshirish mumkin.

Birinchi yo'lga ko'ra, oddiy internet foydalanuvchilari turli bahslarda qatnashish uchun provokatsiya qilinadi. Bunday bahslar aslida bir odam tomonidan boshqariladigan bir nechta feyk akkauntlar tashabbusi bilan sun'iy tarzda hosil qilinadi. Dastlab muayyan mavzu hamda uning atrofidagi bahs konkret subyektlar tomonidan yuzaga chiqariladi. Keyingi bosqichda esa mazkur bahs muhokamaning real ishtirokchilari, aniqrog'i haqiqiy internet foydalanuvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Bahsning natijasi va kelajakda burilib ketishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarini amaliy jihatdan nazorat qilish imkonsiz. Mazkur xususiyati tufayli ayni texnologiyani ildizsimon texnologiyalar qatoriga kiritish mumkin.

Feyk xabarlarni repost qilish Sock puppet texnologiyasini qo'llashning usullaridan yana biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy tarmoqda qayta-

¹²⁰ Беспалова В. П. Роль СМИ в изменении общественного мнения. Использование СМИ как идеологического оружия / В.П. Беспалова, А.В. Федоров // Журнал The Russian Academic Journal. 2013. № 1. С. 41

¹²¹ Коровин В. Третья мировая сетевая война. – СПб.: Питер, 2014. С. 157

qayta repost qilingan yangilik nufuzining oshishi va auditoriya qamrovining kengayishiga xizmat qiladi. Qolaversa, ayni repost mexanizmi tarmoq foydalanuvchilarini manipulyativ yangilik bilan keng tanishtirib, ularni ayni axborotning tashuvchisi va tarqatuvchisiga aylantirishi mumkin.

Ommaviy tarzda feyk akkauntlar orqali axboriy xurujlarni amalga oshirish yo‘li bilan ham Sock puppet texnologiyasini qo‘llash mumkin. Mazkur axboriy ta’sir shakli turli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, u foydalanuvchilarda murosasozlik va nomurosasozlik kayfiyatini uyg‘otib, ularning hissiy, emotsional muvozanatni izdan chiqargani holda o‘zlarining siyosiy pozitsiyalariga nisbatan shubha uyg‘otishi mumkin. Sock Puppet texnologiyasini amalga oshirishning mazkur yo‘liga internetda, xususan virtual siyosiy makonda, “Men hech qachon saylovlarda qatnashmaganman. Lekin bu safar xalq nomzodi bo‘lgan “N”.ga ovoz berish uchun albatta qatnashaman!” ko‘rinishidagi izohlar misol bo‘la oladi. Bugungi kunga kelib bunday mulohazalar memlar ko‘rinishini kasb etmoqda. Ko‘pchilik foydalanuvchilar bu mulohazaga jiddiy e’tibor qaratmagan bo‘lsalar-da, saylov oldi ko‘pchilikka tanish bo‘lmagan “N” shaxsi katta mashhurlikka ega bo‘ladi. Manipulyatorning maqsadi ham aynan “N” shaxsiyatini ommalashtirishdan iborat bo‘ladi.

S.V.Volodenkov ta’kidlashicha, yaqin kelajakda bunday ssenariylarning amalga oshirish ehtimoli juda yuqori. Bu jarayonda virtual makondagi o‘zaro axborot kommunikatsion ta’sirlar, soxta akkauntlar yaratuvchi maxsus dasturlar orqali tatbiq qilinadi¹²². Bunday vaziyatlarda manipulyatsiyani aniqlash hamda soxta akkauntlarni alohida ajratib ko‘rsatish imkonsiz bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar bir tomondan haqiqatga o‘ta yaqin foydalanuvchi portretlarini hosil qilsa, ikkinchi tomondan istalmagan shaxslarning muayyan profilga kirish imkoniyatlarini cheklovchi vositalarni taqdim etadi¹²³. Ayni jihat ham internetda

¹²² Володенков С.В. Киберсимулякры как инструмент виртуализации современной массовой политической коммуникации // Информационные войны. 2014, №4, с.18-21 20

¹²³ «ВКонтакте» ввела закрытый тип профилей// Дождь [Электронный ресурс] URL: <https://clck.ru/UDxRz> (murojaat vaqti: 11.04.2024)

keng qo'llaniladigan Sock puppet siyosiy manipulyatsiya texnologiyasini ildizsimon guruhga kiritish imkonini beradi.

2. Overton oynasi

Mazkur texnologiyaning mohiyati siyosatshunos Jozef Overton tomonidan keng tadqiq etilgan. U har bir jamiyatda "imkoniyatlar oynasi" mavjudligi g'oyasini ilgari surdi. Uning tadqiqotlarida "imkoniyatlar oynasi" mumkin bo'lgan "narsalarning chegarasini" anglatadi. Bir tomondan mazkur "oyna" muayyan jamiyat uchun destruktiv sanalgan g'oya va oqimlarni axborot makonida cheklash imkoniyatini yuzaga keltirsa, ikkinchi tomondan, oldindan rejalashtirilgan muayyan manipulyativ g'oyalarni oqilona tarzda singdirish uchun zamin hozirlaydi¹²⁴.

Overton oynasi texnologiyasi besh bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda axborot "tushunarsizlik" (mushohada qilib bo'lmazlik) toifasidan ilmiy hamjamiyatning alohida guruhi darajasidagi "keskinlik" toifasiga o'tkaziladi¹²⁵.

Ikkinchi bosqichda axborot ilmiy hamjamiyatning yopiq doiralari darajasida "keskinlik" toifasidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan sohaga o'tkaziladi.

Uchinchi bosqichda axborot "qabul qilinishi mumkin bo'lgan" toifadan "ratsionallik" toifasiga o'tkaziladi. Bu bosqichda ayni axborotga doir ochiq manbalar taqdim etilib, ilmiy hamjamiyatning ko'plab qatlamlari uchun mazkur mavzuda muhokamalar va tadqiqotlar o'tkazish imkoni yuzaga chiqadi¹²⁶.

To'rtinchi bosqichda axborot "ratsionallik" toifasidan "ommaviylik" toifasiga o'tkazilganligi tufayli u intellektual doiralardan keng omma darajasiga tushiriladi. Bu esa mazkur axborot mavzusining hamda g'oyalarining ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga olib kelishi mumkin¹²⁷.

¹²⁴ Баева Л.В. Е-НОМО SAPIENS: виртуальный микрокосм и глобальная среда обитания/ Л.В Баева, И.Ю. Алексеева //Философские проблемы информационных технологий и киберпространства. 2014. № 1. С. 86-96.

¹²⁵ Ўша асар. С.85

¹²⁶ Nathan J. Russell. An Introduction to the Overton Window of Political Possibilities. URL: <https://www.mackinac.org/7504> (murojaat vaqti: 11.04.2024)

¹²⁷ O'sha yerda..

Beshinchi bosqichda esa axborot “ommaviylik” toifasidan “faollik” toifasiga o‘tkazilib, u jamiyatda o‘zining normativ asosiga ega bo‘ladi¹²⁸.

Overton oynasi siyosiy manipulyatsiya texnologiyasini qo‘llash birmuncha murakkab bo‘lishiga qaramasdan, katta samara keltirish imkoniyatiga ega. Chunki amaliy jihatdan biror-bir manipulyativ g‘oyani tarqatishda mazkur texnologiyaning qo‘llanganligini maxsus tayyorgarliksiz aniqlash mumkin emas. Ayni yashirin xususiyati ham bu texnologiyani ildizsimon guruhga kiritish uchun asos bo‘ladi. Bundan tashqari Overton oynasi texnologiyasini qo‘llashning 3-5 bosqichlarida s berilgan baho mujassamlashgan bo‘ladi. Memlarda mujassamlashgan emotsional baho shaxs siyosiy tafakkurini cheklab, uni stereotiplar, klislar, yorliqlar va uydirmalar asosida faoliyat olib borishga undaydi. Bunday tafakkurni esa osongina boshqarish mumkin. Novoyazlarning manipulyativ effekti ham shunda namoyon bo‘ladi.

Novoyazlar ko‘pincha virtual olamda ham, real olamda ham biror-bir maxsus maqsadga ega bo‘lmagan oddiy internet foydalanuvchilari tomonidan keng qo‘llaniladi. Mazkur texnologiyada ham ildizsimon manipulyatsiyaning xususiyatlarini ko‘rish mumkin. Novoyazlarni qo‘llash jarayonida manipulyatsiya obyekti va subyekti o‘rtasidagi chegaralar yuvilib ketib, kommunikatsiya xaotik xarakter kasb etadi. Natijada u siyosiy, iqtisodiy va madaniy identifikatorga ega muayyan ijtimoiy qatlam bilan bog‘liqlik kasb etmaydi.

Tarjima texnikasi ham til manipulyatsiyasining muhim vositalaridan biri hisoblanadi¹²⁹. Tarjimalarning manipulyativ effekti tarjimon mansub bo‘lgan sotsiomadaniy va siyosiy muhitning ta’siri bilan belgilanadi. Bu vositaning ildizsimon xususiyati shunda namoyon bo‘ladiki, tarjima qilingan kontentning na tarjimoni, na axborot tarqatuvchisi, na uning iste’molchisi siyosiy manipulyatsiya ta’siriga tushib qolganliklarini payqamaydilar.

3. Twitter inqilobi

¹²⁸ Володенков С.В. Окно Овертона – манипулятивная матрица политического менеджмента / С.В. Володенков // Научно-Аналитический Журнал Обозреватель Observer. 2015. №4. С. 86

¹²⁹ Камовникова Н.Е. Перевод как инструмент манипуляции общественным мнением в условиях политических ограничений/ Н.Е. Камовникова// Вестник Тверского государственного университета. 2016. №2. С.267

“Twitter inqilobi” tushunchasi ilk bora Stendford universiteti olimi Yevgeney Morozov tomonidan qo‘llanilgan. 2009-yilning aprel oyida Moldoviyada ro‘y bergan hodisalar mazkur tushunchaning shakllanishi uchun g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qildi¹³⁰. Mazkur texnologiyaning mohiyati mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik davrida internet foydalanuvchilarining ijtimoiy tarmoqlar xususan Facebook va Twitterda siyosiy faolligi oshishi bilan izohlanadi. Yevgeniy Morozov nazarda tutgan ma’noda siyosiy faollik istiqbolda mitinglar, namoyishlar va tartibsizliklarni keltirib chiqarish ehtimoli baland bo‘lgan o‘tkir siyosiy muammolarning kuchli va tezkorlik bilan muhokama qilinishini anglatadi¹³¹. Ijtimoiy tarmoqlarning kuchli imkoniyatlarini keng tatbiq qilish orqali foydalanuvchilar o‘z harakatlarini samarador tarzda muvofiqlashtirishlari, siyosiy voqelikka tezkorlik bilan munosabat bildirishlari, shuningdek mediakontentlar yordamida boshqa foydalanuvchilarda xayrixohlik hissini uyg‘otish orqali ularni ham o‘z faoliyatlariga jalb qilishlari mumkin. Mazkur texnologiyaning ildizsimon xususiyati muayyan manipulyativ maqsadga ega bo‘lmagan, ammo o‘z siyosiy pozitsiyasini ilgari surish orqali teng saviyali bo‘lmagan hamfikrlardan iborat jamoalarni tuzishni xohlovchi oddiy internet foydalanuvchilari tomonidan amalga oshiriladigan muhokama doirasi ham uning qamrovini kengaytirishga intilishda ko‘rinadi.

Valeriy Solovey internetda mazkur texnologiyani tatbiq qilishning quyidagi to‘rt bosqichini ajratib ko‘rsatadi¹³²:

1. Foydalanuvchilarni joriy siyosiy jarayon muhokamasida ishtirok etish zaruratiga ishontirish;
2. Jalb qilingan foydalanuvchilar va kontent o‘rtasida o‘zaro aloqa o‘rnatish;
3. Jalb qilingan foydalanuvchilar ishtirokida yangi kontent tashkil qilgan holda ularning muhokamalardagi ishtirokini uyushtirish;

¹³⁰ Революции при помощи Twitter и Facebook // Новая Европа. [Электронный ресурс] URL: <https://clck.ru/UDxem> - (murojaat vaqti: 11.04.2021)

¹³¹ Коровин В. М. Третья мировая сетевая война. СПб.: Питер, 2014. С. 108.

¹³² Соловей, Валерий Дмитриевич Абсолютное оружие. Основы психологической войны и медиа манипулирования / Валерий Соловей. Москва: Издательство «Э», 2015. С. 252

4. Virtual siyosiy faollikdan real siyosiy faollikka o'tish.

5. Fleshmoblar texnologiyasi

Fleshmob oldindan kelishilgan holda tashkillashtiriladigan aksiya bo'lib, u real yoki virtual voqelikda ko'pchilik tomonidan amalga oshiriladigan harakatni anglatadi. Virtual voqelikda fleshmoblar xususan, siyosiy fleshmoblarni amalga oshirish jarayonida ishtirok etish uchun foydalanuvchilardan kuch, vaqt, pul kabi resurslarni katta miqdorda sarflash talab etilmaydi. Aksincha ulardan xeshtegdan foydalanish, o'zining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida fleshmobga oid mem yoki matnni joylashtirish kabi arzimagan harakatlarni amalga oshirish so'raladi xolos¹³³.

Odatda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining siyosiy fleshmobda ishtirok etishi chuqur asosga ega bo'lmay, shaxsning siyosiy pozitsiyasi bilan bilvosita aloqador bo'ladi. Ko'pincha shunchaki ro'y berayotgan hodisaga oid bo'lish istagi siyosiy fleshmoblarda ishtirok etishning bosh sababi hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda siyosiy fleshmoblar ishtirokchilarini "manipulyatsiyalovchi manipulyator" sifatida tavsiflash mumkin. Zero, anglanmagan tarzda manipulyatsiya subyektiga aylangan siyosiy fleshmob ishtirokchilarining faolliklari tufayli siyosiy kontent ijtimoiy tarmoqda keng tarqalib, katta hajmdagi auditoriyani qamrab olgani holda, katta miqdordagi foydalanuvchilar diqqatini jalb qiladi. Fleshmoblarning ayni xususiyatlari tufayli ularni ildizsimon siyosiy texnologiyalar guruhiga kiritish mumkin.

Ildizsimonlik xususiyati yuqorida ko'rib chiqilgan internetda qo'llaniluvchi siyosiy manipulyatsiya texnologiyalariga qisman ularni amalga oshirishning muayyan bosqichlaridagina xos bo'ladi. Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, internetda qo'llaniladigan siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarining ildizsimonlik xususiyatini aniqlash, ularni tatbiq qilish mexanizmlari puxta o'ylanganligi hamda oddiy foydalanuvchi tomonidan payqash qiyin bo'lganligi tufayli ham birmuncha murakkab hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ishida taklif qilinayotgan internetda qo'llaniluvchi siyosiy manipulyatsiya texnologiyalari tasnifining uchinchi guruhi o'zida vektor va

¹³³ O'sha yerda.. C.128-129

ildizsimon texnologiyalar xususiyatlarini sintezlagan holda namoyon qiladi.

1. Yorqin umumlashtirish

Mazkur texnologiyani tatbiq qilish jarayonida internet foydalanuvchisiga taqdim etilayotgan materialning haqiqiy mohiyati ikkinchi planga tushirilib, emotsional jihatlari bo'rttirib ko'rsatiladi. Qolaversa, mazkur texnologiyani tatbiq qilishda memlar, rasmlar, GIFlar, tasvirlar, qisqa video lavhalar, komikslar singari vizual media vositalardan foydalanish uning ta'sir samaradorligining oshishi uchun xizmat qiladi. Odatda "yorqin umumlashma" texnologiyasi olamshumul siyosiy voqeliklarni yoritishda keng qo'llaniladi. Ushbu texnologiyaning qo'rquv hissidan yoki yumordan foydalanish singari turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1.1 Qo'rquv hissidan foydalanish texnologiyasi.

Qo'rquv hissidan foydalanish texnologiyasi ko'pincha ratsional tushuntirish imkonsiz bo'lgan xurofotlar, yorliqlar hamda e'tiqod shakllariga tayanadi. Eliot Aronson o'zining "Targ'ibot davri" asarida, "qo'rquv kishilarni ularni provokatsiya qiluvchi omillardan qochishga majbur qiladi. Qo'rquv insonlarni chetlatilgan predmetdan (manipulyator maqsadlariga zid bo'lgan) uzoqlashtiradi"¹³⁴, - deb ta'kidlaydi. O'z navbatida qo'rquv o'yinlari (voqelik, shaxs va axborot oldidagi qo'rquv) manipulyatsiya obyektida qo'rqituvchi narsalarni o'rganish borasida chuqurlashmasligi uchun muayyan kognitiv to'siq hosil qiladi. Shuningdek, Aronsonning ta'kidlashicha, "xabar kishini qancha ko'p daxshatga solsa, uning himoyalalanuvchi chora-tadbirlarni qo'llash ehtimoli shuncha ortadi"¹³⁵.

1.2 Siyosiy "Xeppining"

Kulgi manipulyativ effekti bir nechta xususiyatlarga ko'ra ro'yobga chiqadi. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: ommaviylik va jamoaviylik, kayfiyatning yuquvchanligi hamda kulayotganlar his-tuyg'ularini sinxronlashtirish,

¹³⁴ Соскина С.Н. Специфика использования манипулятивных приемов с целью воздействия на общественное мнение (на материале президентских предвыборных кампаний США 2012 года)/ С.Н. Соскина, Е.И. Сур// Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. 2015. №2 С. 161

¹³⁵ Аронсон Э., Пратканис Э.Р. Эпоха пропаганды: Механизмы убеждения, повседневное использование и злоупотребление. СПб.: прайм – ЕВРОЗНАК, 2003. – С. 229

shuningdek umumiylikni hamjihatlashtirishga qodirlik¹³⁶. Inson kulganda psixologik bosimdan xolos bo‘lib, bo‘shashadi. Natijada esa uning diqqati pasayib, amaliy jihatdan vaziyatni deyarli oqilona baholay olmaydi¹³⁷. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, kulayotgan odam manipulyatsiyaga ochiq shaxs hisoblanadi.

Mazkur texnologiya ikki xil variantda qo‘llanilishi mumkin. Birinchi holatda siyosiy jarayon yoki tizimning muayyan elementi ustidan kulish maqsadida qo‘llaniladi. Ushbu usul kulgi predmetining nufuzini pasaytirish maqsadida tatbiq qilanadi¹³⁸. Sarkazmlar va masxaralar muayyan davlatdagi biror-bir siyosiy hodisa, shaxs nufuzining birmuncha pasayishiga olib kelishi mumkin¹³⁹. Ikkinchi holatda esa ijobiy mazmundagi yumordan o‘zida muayyan ziddiyatlarni namoyon qilgan shaxslarga nisbatan jamiyatdagi ikkilanishlarni bartaraf qilish hamda kishilarda unga nisbatan xayrixohlikni uyg‘otishda keng foydalaniladi.

Subyektning mavjudligi sanab o‘tilgan texnologiyalarga vektor guruhga kiruvchi texnologiyalar xususiyatini beradi. Tarmoqdagi hissiy emotsional jihatlarini bo‘rttirilgan har qanday ayniqsa, ko‘pchilikning diqqatini jalb qilishga qodir hamda virtual makonda keng tarqaladigan axborot ataylab rejalashtirilgan holda internetga sizdirilgan bo‘lishi mumkin. Mazkur texnologiyani qo‘llagan holda manipulyativ ruhdagi axborotni tarqatish xaotik tarzda amalga oshiriladi. Bu esa mazkur texnologiyaning ildizsimon xususiyatga ega ekanligini anglatadi. Ko‘rinib turibdiki, mazkur tadqiqot ishida taklif qilingan internetda qo‘llaniluvchi siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarining tasnifidagi uchinchi guruh ham ildizsimon ham vektor xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

2. Ijtimoiy mas’uliyat o‘yini

“Mazkur texnologiyaning zamirida o‘zaro almashinuv jarayoni yotadi”¹⁴⁰.

¹³⁶ Антонова А.В. Смех, юмор и речевая манипуляция/ А.В. Антонова //Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. 2010. №4. С.53

¹³⁷ Ўша асар. С.55

¹³⁸ Giancarlo Elia Valori. Politics of Emotions: How Political Leaders Manipulate Mass Psychology URL: <https://www.israeldefense.co.il/en/node/33610> (murojaat vaqti: 24.04.21)

¹³⁹ Victoria S.L.d. Media Manipulation of the Masses: How the Media Psychologically Manipulates / Samuel López De Victoria// URL: <https://psychcentral.com/blog/media-manipulation-of-the-masses-how-the-media-psychologically-manipulates#1> (murojaat vaqti: 24.04.24)

¹⁴⁰ Чалдини Р. Психология влияния. СПб.: Питер, 2006. С. 34

Ushbu texnologiya qo'llanilganda manipulyatsiya obyektida jamiyat oldidagi mas'uliyatni shakllantirish maqsadi ko'zlanadi. Robert Chaldini ta'kidlaganidek, "mas'uliyat kishiga muayyan yuk yoki bosim o'tkazaganligi tufayli, undan qutulishni xohlaydi"¹⁴¹. O'z navbatida manipulyatsiya obyektiga yuklangan mas'uliyat oqlanmaganda u butun jamiyat yoki o'sha shaxs uchun muhim bo'lgan biror-bir ijtimoiy guruh tomonidan jiddiy tanqidiy muhokamalar ostiga olinadi. Bu esa tabiiy ravishda manipulyatsiya obyektining manipulyator maqsadiga muvofiq tarzda harakatlanishiga majbur qiladi.

Ijtimoiy isbotlanganlik tamoyili "ijtimoiy mas'uliyat o'yini" texnologiyani amalga oshirishdagi muhim yordamchi vosita hisoblanib, unga ko'ra "qanchalik ko'p miqdordagi kishilar bu g'oyani to'g'ri deb bilsalar, u shunchalik chinlik kasb etib boradi"¹⁴². Internet tarmog'ida jamoatchilik fikri repostlar, obunachilar, layklar miqdori shuningdek izohlar yozish va onlayn ovoz berish jarayonidagi faollikda o'z ifodasini topadi. Ayni paytda shuni ham hisobga olish kerakki, virtual olamdagi jamoatchilik fikrini belgilovchi yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar feyklar vositasida soxta lashtirilishi ham mumkin. Shunga qaramasdan oddiy internet foydalanuvchisini feyklar yordamida soxtalashtirilgan akkauntlardan farqlash birmuncha murakkab. "Ijtimoiy mas'uliyat o'yini" texnologiyasining manipulyativ effekti ham ayni jihatda namoyon bo'ladi. Bir tomondan manipulyatsiya obyektini ijtimoiy mas'uliyat xususan mitinglarda ishtirok etish, saylovlar va fleshmoblarda qatnashish tashvishga solsa, boshqa tomondan esa jamoatchilik fikri bosimi tufayli u bulardan qochib qutula olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bu esa tabiiy ravishda uning jamoatchilik talablariga mos ravishda harakatlanishiga olib keladi.

Bu texnologiyaning vektorlik xususiyati shundaki, u subyektga ega bo'lib, ta'sir aniq maqsadga yo'naltirilgan ham muayyan ijtimoiy toifaga masalan yoshlarga qaratilgan bo'ladi. Ayni paytda bu texnologiya ildizsimonlik xususiyatiga ham ega bo'lib, unga ko'ra manipulyatsiya ta'siriga tushgan kishining

¹⁴¹ Ўша асар. С. 48

¹⁴² Чалдини Р. Психология влияния. СПб.: Питер, 2006. С. 124

o'zi ham targ'ibotchiga aylanib, boshqalarni ham bir paytlar o'zi bajargan harakatlarni bajarishga undaydi.

3. Ko'p martalik takror.

Mazkur texnologiyani amalga oshirishda muayyan siyosiy xabar bir necha manbalar, xususan, yangiliklar saytlari, ijtimoiy tarmoqdagi siyosiy guruhlar, pabliklar hamda sahifalar orqali birvarakayiga tarqatiladi. Bir-biridan mustaqil internet manbalarining muayyan siyosiy xabarni tarqatishdagi o'zaro muvofiqlashtirilishi bu texnologiyaning vektor xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

“Ko'p martalik takror” texnologiyasini tatbiq qilish orqali muayyan siyosiy xabarni qayta-qayta tarqatish uni o'ta ko'p sonli internet foydalanuvchilariga yetib borishini ta'minlaydi. Hatto tarqatilayotgan manipulyativ xabarga mutlaqo qiziqish bildirmaydigan internet foydalanuvchisi ham bu texnologiya qo'llanganligi tufayli ertami-kech undan xabar topadi. Agar bu texnologiyani qo'llashda xabarni repost qilish metodidan foydalanilsa, u ildizsimon xususiyat kasb etadi. Soddarroq qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqdagi do'stlarning sahifasida biror-bir xabarning tez-tez aylanayotganligini ko'rgan internet foydalanuvchisida ayni ma'lumotga nisbatan xayrixohlik hissi uyg'ongani holda faol ravishda uni o'zining sahifalarida post qila boshlaydi.

4. Yorliqlar yopishtirish texnologiyasi

Ushbu texnologiya ham mumtoz va fundamental targ'ibot texnologiyalaridan biri sanaladi¹⁴³. Yorliq bu muayyan obyekt haqidagi ijobiy yoki salbiy bahoni o'zida aks ettiruvchi qisqa ma'lumot hisoblanadi¹⁴⁴. Siyosiy harakatlar va reklamalar tarixi shundan guvohlik beradiki, yashash jarayonini birmuncha soddalashtirganligi tufayli kishilar yorliqlarga muvofiq ravishda turmush kechirishni ma'qul ko'radilar. Yorliq bugungi kunda jadallik bilan taraqqiy etib borayotgan internet kommunikatsiyalarida ham keng qo'llanilmoqda. Yorliq texnologiyasining vektor xususiyati uning muayyan maqsadga ko'ra biror

¹⁴³ Аронсон Э., Пратканис Э.Р. Эпоха пропаганды: Механизмы убеждения, повседневное использование и злоупотребление. СПб.: прайм ЕВРОЗНАК, 2003. С. 92

¹⁴⁴ Voeten. E. The practice of political manipulation/Erik Voeten// Cambridge University Press. 2012. №4. PP. 258

kishining nomini mashhur qilish uchun ataylab ishlab chiqilganligi hamda virtual olamga keng tatbiq qilinishida ko‘rinadi. Yuqorida ham ta’kidlanganidek kishilar muayyan axborotni batafsil o‘rganish uchun sarflanadigan resurslar miqdorini tejash nuqtai-nazaridan ham yorliqlardan tez-tez foydalanadilar. Bu esa tabiiy ravishda yorliqlarning katta tezlik bilan tarqalishiga olib keladi. Ayni jihat esa bu texnologiyaga ham ildizsimonlik xususiyati xos ekanligidan dalolat beradi.

5. Troling/Xeyterlik/Fleyming

Umumiy ma’noda trolling baliq ovlash degan mazmunni anglatadi. Trolling ham internetdagi baliq ovini esga solib, unda manipulyatsiya obyekti “baliq”, “provokatsiya”, “xo‘rak” vazifasini bajaradi¹⁴⁵. Provokatorlar, zarar keltiruvchilar “trollar”, ayni xarakter dagi resurslarni internet tarmoqlariga joylash faoliyati esa “trolling” deb ataladi. Trollingdan ko‘zlangan maqsad esa internet foydalanuvchilari o‘rtasida ziddiyatlar, ijtimoiy taranglik hattoki o‘zaro haqoratlarni uyushtirishdir¹⁴⁶.

Xeyterlik trolling faoliyatining turlaridan biri bo‘lib, u turli hodisalarga nisbatan internet tarmog‘ida negativ munosabat bildirishni anglatadi. Xeyterlik natijasida fleyminglar, aniqrog‘i keskin bahslar, ziddiyatlar va benihoya konfliktlar yuzaga keladi. “Trolling”ni “qora PR” texnologiya bilan taqqoslash mumkin. Troll internet foydalanuvchisi boshqalarni ma’nisiz, nihoyasiz bahslarga tortish orqali o‘z reytingini oshirishga intiladi.

Trolling texnologiyasining vektor xususiyatini bir qarashdayoq payqash mumkin. Zero, har qanday provokatsiya oldindan rejalashtirilgan hamda muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Mazkur texnologiyaning ildizsimon xususiyati shunda ko‘rinadiki, trolling ishtirokchisi manipulyatsiyaning ayni paytda subyekti ham obyekti ham bo‘lishi mumkin. Bir tarafdin u to bahsgacha ijobiy munosabatda bo‘lgan ma’lumotga nisbatan salbiy munosabat bildirib bahsga kirishadi. Bu esa troll ko‘zlangan maqsadga muvofiq xatti-harakat hisoblanadi.

¹⁴⁵ Ефремова Н.Я. Манипулирование сознанием человека в рамках виртуальной реальности Территория новых возможностей. Вестник ВГУЭС. 2012. №4. С. 63

¹⁴⁶ Акулич М.М. Интернет троллинг: понятие, содержание и формы/М.М. Акулич// Вестник Тюменского государственного университета 2012. № 8. С. 48

Boshqa tarafdin esa troll tomonidan boshlangan bahs cheksiz davom etib, boshqa foydalanuvchilarning ham ushbu bahsga aralashuviga sabab bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotda taklif qilingan internetda qo‘llaniluvchi siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarining konvergent guruhiga kiruvchi texnologiyalar dastlab sof vektor xususiyatga ega bo‘lib, keyinchalik muayyan texnologiyalarni gibrirlash oqibatida yuzaga kelgan. Ularning vujudga kelishi kishilar uchun manipulyator tomonidan yaratilgan siyosiy voqelikda yashash osonligi omili bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunda siyosiy sohada chuqur izlanish, kim haq, kim nohaq ekanligini aniqlashtirish, ongli ravishda tanlangan mustahkam siyosiy pozitsiyani yaratishga kuch sarflash kabilarga ehtiyoj mavjud emas. Inson antientropiy, aniqrog‘i xaosni yengishga intiluvchi mavjudot hisoblanadi. Shu ma’noda manipulyatsiya kishilar uchun unga olamni tushunish va mushohada qilishga qulay tartiblangan tuzilmaga ega ko‘rinishda taqdim etuvchi psixologik vositadek taassurot qoldiradi.

Mazkur paragrafda ilgari surilgan mulohazalar tahlillarini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki: internetda qo‘llaniluvchi ildizsimon siyosiy manipulyatsiya texnologiyalari siyosiy fanlar doirasidagi tadqiqotlarda birmuncha kam o‘rganilgan bo‘lib, ularni keng tadqiq etishga ehtiyoj katta. Zero, ildizsimon xususiyat kasb etuvchi siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarining samarasini bir qarashdayoq payqash mumkin. Chunki ular internetga qiziquvchi barchaning ko‘z o‘ngida sodir bo‘layotgan virtual olamdagi siyosiy voqelik bilan uzviy aloqadorlik kasb etadi. Ayni guruhga kiruvchi texnologiyalarga bag‘ishlangan tadqiqotlar borasidagi bo‘shliqni birgina monografiya ishi doirasida to‘ldirish imkonsiz. Shu ma’noda ayni monografiya, xususan uning mazkur paragrafi yo‘naltiruvchi ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi tadqiqotlar uchun zamin hozirlaydi.

Ikkinchi bobga xulosa

1. Internet yoshi, jinsi, ijtimoiy-iqtisodiy maqomidan qat’iy nazar, har qanday foydalanuvchiga o‘z fikr va g‘oyalarini ifoda etish, muhokamalarda qatnashish va hamfikrlari bilan birlashish, tashabbuslar ko‘rsatish hamda tarmoqda

ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi platforma hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan jihatlar siyosiy kommunikatsiyaning elementi ekanligi nazarda tutilsa, internet eng keng tarqalgan asosiy siyosiy kommunikatsiya va shundan kelib chiqqan holda siyosiy manipulyatsiya maydoni ekanligi ma'lum bo'ladi.

2. Keng, ko'p tillik auditoriyaga egalik, interfeyslarning oson va barchaga tushunarli ekanligi, siyosiy kontentni yaratish, iste'mol qilish va tarqatishda har bir foydalanuvchining to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etish imkoniyatiga ega ekanligi kabi o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy tarmoqlarni internet kommunikatsiyalar o'rtasida ustunlik kasb etishiga olib keldi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari turli maqsadlar, masalan, siyosiy maqsadlarga ko'ra birlashishlari mumkin. Natijada esa bugungi kundagi eng samarador internet kommunikatsiya aktorlaridan biri bo'lgan tarmoq hamjamiyatlari yuzaga keladi.

3. Siyosiy internet memlarining:

1. Siyosiy fikrni ifoda etish;
2. Muayyan siyosiy hodisa yoki shaxsni masxaralash;
3. Muayyan hodisa yoki shaxsga diqqatni tortish;
4. Tarixiy yoki joriy siyosiy hodisaga oid muayyan qarash yoki qadriyatlarni targ'ib qilish;
5. Siyosatchining imijini shakllantirish yoki uni yuksaltirish;
6. Siyosiy xabarni qabullashni osonlashtirish kabi funksiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Mazkur tadqiqot ishi mantig'i nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda, internet tarmog'ida qo'llaniladigan siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarini vektor siyosiy manipulyatsiyalar, ildizsimon siyosiy manipulyatsiyalar va konvergent yoki gibridd siyosiy manipulyatsiyalardan iborat uch katta guruhga tasniflash mumkin.


III-BOB. INTERNETGA XOS SIYOSIY KOMMUNIKATIV VA MANIPULYATIV XUSUSIYATLARNING EMPIRIK TAHLILI

Internetning siyosiy kommunikatsiya vositasi ekanligi mulohazaga tayangan holda, uni siyosiy faollikni namoyon qilish platformasi sifatida tavsiflash mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur bobda sotsiologik so'rov metodi asosida internetning o'zbek segmenti siyosiy faollikni namoyon qilishdagi muhim axborot makoni ekanligi va unda real hamda virtual siyosiy faollik o'rtasidagi farq so'rovnoma natijalariga ko'ra ochib beriladi. Bunda internet tarmog'i foydalanuvchilarini anonim qolish imkoniyati mavjud ekanligi virtual siyosiy faollikning muhim va hal qiluvchi omili ekanligiga alohida diqqat qaratiladi. Shuningdek, internetning ko'p variantli va muqobil axborot taqdim etish imkoniyati ham uning siyosiy kommunikatsiya vositasi sifatidagi nufuzini oshirishga xizmat qilishi tadqiqot natijalarining tahlili asosida ochib beriladi. Qolaversa, internetda qo'llaniladigan ildizsimon manipulyatsiya texnologiyalarining asosiy xususiyatlari ham ekspert so'rovnoma metodi asosida tahlil qilinadi. Bunda memlar soxta akkauntlar, repost, virtual siyosiy miflar yaratish kabi texnologiyalarning qiyosiy tahliliga tayaniladi.


3.1 Internetning o'zbek segmenti siyosiy faollikni namoyon qilish platformasi sifatida

Internet kommunikatsiyalarining taraqqiy etishi umumjamiyat miqyosida fuqarolarning siyosiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Siyosiy mazmundagi kontentlarning miqdor jihatdan ko'pligi, barcha uchun ochiqligi bir tomondan fuqarolarning siyosiy faolligini oshirsa, ikkinchi tomondan ularni manipulyativ ta'sirlarga tushish ehtimolini ham paydo qiladi. O'zbekistonda ayni muammoni empirik tadqiq qilish maqsadida 2023-yilning mart, aprel oylarida, "Global axborot makonida jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishning siyosiy texnologiyalari" mavzusi doirasida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazildi. Mazkur tadqiqotda so'rov metodidan foydalanildi. Ushbu sotsiologik tadqiqotda mamlakatimizning turli

hudud va ijtimoiy qatlamlariga mansub 1000 nafar respondent kvotali tanlash usuli yordamida belgilab olindi. Tadqiqotda ishtirok etganlarning 55,2% yoki 662 nafari erkak jinsiga mansub bo'lishsa, mos ravishda 44,8% yoki 538 nafari ayol jinsiga mansub respondentlar tashkil etishdi.



1-rasm. Respondentlarning jinsi bo'yicha taqsimoti



2-rasm. Respondentlarning yosh kesimida taqsimoti


So‘rovda ishtirok etgan respondentlarning 17,2% 18-20 yoshlilar tashkil qilgan bo‘lsa, 21-24 yoshlilar jami respondentlarning 22,1%ini tashkil qilgan. 25-27 yoshgacha bo‘lgan respondentlar 23,8%ni tashkil etgan bo‘lishsa, 28-30 yoshli respondentlar 17,8% hamda 30 yosh va undan yuqori bo‘lgan respondentlar 19,3%ni tashkil etmoqda.

1-jadval.

Quyidagi variantlardan qaysi biri sizga mos keladi?


Quyidagi variantlardan qaysi biri sizga mos keladi?	foiz	son
<i>Men kollej, texnikum yoki kasb-hunar maktabida o‘qiyman</i>	16,8%	202
<i>Men OTM talabasiman</i>	22,7%	272
<i>Men davlat tashkilotida ishlayman</i>	17,4%	209
<i>Men xususiy sektorda ishlayman</i>	21,6%	259
<i>Men ishsizman uyda o‘tiraman</i>	6,6%	79
<i>Men vaqtincha ishsizman, ish qidirib yuribman</i>	14,9%	179
Jami	100,0%	1200

So‘rovda ishtirok etganlarning 16,8% kollej, texnikum yoki kasb-hunar maktablarida tahsil olishsa, 22,7% respondentlar OTM talabalarini tashkil etishgan. 17,4% respondent davlat tashkilotida, 21,6% respondent xususiy sektorda faoliyat olib borishlarini qayd etib o‘tishgan. 6,6% ishsizman, uyda o‘tiribman deyishgan bo‘lishsa, 14,9% o‘zlarini vaqtincha ishsizliklarini va hozirgi kunda ish izlab yurganliklarini ko‘rsatib o‘tishgan.



3-rasm. Respondentlarning ma'lumoti


Respondentlarning 44,1% o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lishsa, 29,3% respondentlar o'rta ma'lumotli bo'lishsa, 22,3% oliy ma'lumotlilarni tashkil etishdi. 0,8% respondentlar ilmiy darajaga ega bo'lishsa, 3,7% boshqa turdagi ma'lumotga ega ekanliklarini ko'rsatib o'tishgan.



4-rasm. Siz siyosatga qiziqasizmi?

Dastlab respondentlarning siyosiy faolligini aniqlash maqsadida, ularga bir nechta savollar bilan murojaat qildik. Masalan: **Siz siyosatga qiziqasizmi?** degan savolga so‘rovnoma ishtirokchilarining javobi quyidagicha bo‘ldi:

16,8% ishtirokchi ha, 34,4% ishtirokchi ha, biroz, 41,2% ishtirokchi unchalik emas va 7,6% esa yo‘q mutlaqo qiziqmayman variantlarini tanlashgan.




5-rasm. Siz o‘zingizni siyosiy faol inson deb hisoblaysizmi?

So‘rovimiz ishtirokchilariga siz o‘zingizni siyosiy faol inson deb hisoblaysizmi, qabilidagi savol bilan murojaat qildik. Respondentlarimizdan esa quyidagi javoblarni oldik: Ha javobini belgilaganlar 8,3% ni, ha, unchalik emas javobini belgilaganlar 11,1% ni, yo‘q javobini belgilaganlar 42,6% ni, javob berishga qiynalaman variantini belgilaganlar 33,3% ni, boshqa variantini tanlaganlar esa 4,8% ni tashkil etdi.

So‘rovnomamiz ishtirokchilarining qaysi turdagi siyosiy faoliyatga qiziqishlarini aniqlash maqsadida ularga quyidagi savollarni taqdim etdik:

Quyidagi siyosiy jarayonlardan qaysi biri sizni ko'proq qiziqtiradi?


Quyidagi siyosiy jarayonlardan qaysi biri sizni ko'proq qiziqtiradi? (3 tagacha javob tanlash mumkin)	foiz	son
<i>Ta'lim va bandlikka oid siyosat</i>	18,4%	221
<i>Tashqi siyosat</i>	17,6%	211
<i>Boshqa</i>	16,8%	202
<i>Iqtisodiy sohadagi siyosat</i>	15,2%	182
<i>Ijtimoiy siyosat</i>	10,9%	131
<i>Ichki xavfsizlikka oid davlat siyosati</i>	9,9%	119
<i>Sog'liqni saqlash sohasidagi siyosat</i>	6,4%	77
<i>Soliq siyosati</i>	4,8%	57
Jami	100,0%	1200



6-rasm. Quyidagi siyosiy jarayonlardan qaysi biri sizni ko'proq qiziqtiradi?

Tadqiqotimiz ishtirokchilarining siyosiy qiziqishlarini bilish maqsadida ulardan siyosiy jarayonlarning qaysi biriga ko'proq qiziqishlarini so'radik. Natija

esa quyidagicha: eng ko‘p javob varianti 18,4% ni tashkil etdi ya’ni ta’lim va bandlikka oid siyosatga ko‘proq qiziqishlarini bildirishgan, keyingi o‘rinda 17,6% bilan tashqi siyosat, undan keyin esa 16,8% bilan boshqa sohalar, undan keyin 15,2% bilan iqtisodiy sohadagi siyosat, undan so‘ng 10,9% bilan ijtimoiy siyosatga, undan keyin 9,9% bilan ichki xavfsizlikka oid davlat siyosati, so‘ng esa sog‘liqni saqlash sohasidagi siyosat va eng so‘ngi o‘rinda 4,8% bilan soliq siyosatini belgilaganliklarini ko‘rishimiz mumkin.




7-rasm. Yoshlarga oid davlat siyosatiga qay darajada qiziqasizmi?

Tadqiqotimiz davomida respondentlarga yoshlarga oid davlat siyosatiga qay darajada qiziqasiz savolini berdik. Respondentlar quyidagicha javob berdi: ha , juda qiziqaman variantini belgilagan ishtirokchilar 14,3% ni, umuman olganda qiziqaman variantini belgilaganlar 30,6% ni, xabarim bor, lekin unchalik qiziqmayman variantini belgilaganlar 16,1% ni, yo‘q mutlaqo qiziqmayman 11,3% ni, javob berishga qiynalaman variantini belgilaganlar esa 27,7% ni belgilaganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagi javoblardan ko‘rinib turibdiki, respondentlarning ko‘pchiligi o‘zlarini yuqori darajada siyosiy faol fuqaro sifatida baholamaydilar. Ular siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etishga ishtiyoq bildirmasliklarini qayd etishadi.

Biroq ijtimoiy tarmoqlardagi siyosiy mazmundagi kontentlarni kuzatish, ularga sharh yozish, qayta post qilish, qo‘llab-quvvatlash, siyosiy memlarni tarqatish kabi faoliyatlarni muntazam amalga oshirishlarini ham inkor qilishmaydi. Ayni jihat kishilardagi siyosiy faollik real voqeyilikdan ko‘ra, virtual makonda ochiqroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Ushbu jihatdan kelib chiqqan holda respondentlarga quyidagi savollarni taqdim etdik:




8-rasm. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosat haqidagi ma’lumotlarni asosan qayerdan olasiz?

Tadqiqotimiz davomida so‘rovnoma ishtirokchilariga “O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosiy jarayonlar haqidagi ma’lumotlarni asosan qayerdan olasiz?” savoli bilan murojaat qildik va ulardan quyidagi javoblarni oldik: Internet javobini tanlaganlar 58,9% ni; televideniya javobini tanlaganlar 25,2% ni; bosma davriy OAV javobini tanlaganlar 1,8% ni; siyosiy partiyalarning varaqalari, broshyuralari va boshqa tarqatma materiallari javobini tanlaganlar 0,3% ni; radio javobini tanlaganlar 0,5% ni; ijtimoiy tarmoqlardan javobini tanlaganlar 9,3% ni; do‘stlarim, hamkasblarim, qarindoshlarimdan javobini tanlaganlar 0,9% ni; turli ommaviy tadbirlarda bevosita ishtirok etish orqali javobini tanlaganlar esa 3,1% ni tashkil etdi.

**Quyida keltirilgan axborot manbalariga ishonch darajangizni belgilab
bering. 5 eng yuqori 1 eng past**


Quyida keltirilgan axborot manbalariga ishonch darajangizni belgilab bering. 5 eng yuqori 1 eng past	Foiz
<i>Internet</i>	58,8%
<i>Televideniya</i>	9,3%
<i>Bosma davriy OAV</i>	6,3%
<i>Siyosiy partiyalarning varaqalari, broshyurlari va boshqa tarqatma materiallari</i>	4,3%
<i>Radio</i>	4,3%
<i>Ijtimoiy tarmoqlar</i>	11,3%
<i>Do'stlarim, hamkasblarim, qarindoshlarim</i>	5,9%



**8-rasm. Quyida keltirilgan axborot manbalariga ishonch darajangizni belgilab
bering**


So‘rovnoma ishtirokchilariga **“Quyida keltirilgan axborot manbalariga ishonch darajangizni belgilab bering. 5 eng yuqori 1 eng past”** savoli bilan murojaat qildik va ulardan quyidagi javoblarni oldik: internet javobini tanlaganlar 58,8% ni; televideniya javobini tanlaganlar 9,3% ni; bosma davriy OAV javobini tanlaganlar 6,3% ni; siyosiy partiyalarning varaqalari, broshyuralari va boshqa tarqatma materiallari javobini tanlaganlar 4,3% ni; radio javobini tanlaganlar 4,3% ni; do‘stlarim, hamkasblarim, qarindoshlarimdan javobini tanlaganlar 11,3% ni; turli ommaviy tadbirlarda bevosita ishtirok etish orqali javobini tanlaganlar esa 5,9% ni tashkil etdi.

Yuqoridagi savollarga respondentlarning javobi ularni siyosiy axborot olishda ishonchli manba sifatida ham internet tarmoqlariga murojaat qilishlarini ko‘rsatadi. Ular uchun ijtimoiy tarmoqlar umuman olganda internet kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat siyosiy xabarlarini ishonchli manbasi, balki o‘zlarining siyosiy faolliklarini namoyon qilish maydoni sifatida ham aks etadi. Ushbu fikrni tasdiqlash hamda respondentlar munosabatini qiyoslash uchun quyidagi jadvallarni keltirish mumkin:



10-rasm. Siz faoliyat olib borayotgan/tahsil olayotgan muassasada tashkil etiladigan siyosiy yo‘nalishdagi tadbirlar ishtirok etib turasizmi?

So‘rovnomamizda ishtirok etayotgan respondentlarimizga **“Siz faoliyat olib borayotgan/tahsil olayotgan muassasada tashkil etiladigan siyosiy yo‘nalishdagi tadbirlar ishtirok etib turasizmi?”** savoli bilan murojaat qildik va ulardan shunday javob oldik: Ha, muntazam ishtirok etib boraman javobini tanlaganlar 20,7% ni; Ha, bizda bunday tadbirlarda ishtirok etish majburiy javobini tanlaganlar 9,5% ni; Yo‘q, imkon qadar bunday tadbirlardan yiroq yurishga harakat qilaman javobini tanlaganlar 42,1% ni; Yo‘q bunday tadbirlarda umuman ishtirok etmayman javobini tanlaganlar 27,8% ni tashkil etadi.



11-rasm. Siyosiy partiyalarning ijtimoiy tarmoqdagi guruhlariga a‘zomisiz?


Mazkur savolga so‘rovnoma ishtirokchilari quyidagicha javob berdi: Ha javobini tanlaganlar 16,6% ni, yo‘q javobini tanlaganlar esa 83,4% ni tashkil etadi.

12-jadval.

Agar a‘zo bo‘lsangiz mazkur guruhlarga keladigan xabarlarni repost ya‘ni boshqa guruhlarga ulushib turasizmi?

Agar a‘zo bo‘lsangiz mazkur guruhlarga keladigan xabarlarni repost ya‘ni boshqa guruhlarga ulushib turasizmi?	foiz	son
Ha, muntazam	4,75%	57
Ha, ba‘zan o‘zim muhim deb hisoblagan xabarlarni	1,00%	12
Yo‘q	94,25%	1131

Agar a'zo bo'lsangiz mazkur guruhlarga keladigan xabarlarni repost ya'ni boshqa guruhlarga ulashib turasizmi?



■ Ha, muntazam ■ Ha, ba'zan o'zim muhim deb hisoblagan xabarlarni ■ Yo'q


12-rasm. Agar a'zo bo'lsangiz mazkur guruhlarga keladigan xabarlarni repost ya'ni boshqa guruhlarga ulashib turasizmi

So'rovnomada ishtirok etayotgan respondentlarimizga "Agar a'zo bo'lsangiz mazkur guruhlarga keladigan xabarlarni repost ya'ni boshqa guruhlarga ulashib turasizmi?" savoli bilan murojaat qildik va ulardan shunday javob oldik: ha muntazam javobini tanlaganlar 4,75% ni; ha, ba'zan o'zim muhim deb hisoblagan xabarlarni javobini tanlaganlar 1,00% ni; yo'q javobini tanlaganlar esa 94,26% ni tashkil etadi.

12-jadval.

Ijtimoiy tarmoqlarda bo'lib turadigan bahs munozaralarda ishtirok etasizmi?

Ijtimoiy tarmoqlarda bo'lib turadigan siyosiy mavzudagi bahs-munozaralarda ishtirok etasizmi?	foiz	son
Ha muntazam ishtirol etaman	4,6%	55
Ha ba'zan ishtirok etaman	64,3%	771
Yo'q ishtirok etmayman	8,4%	101
Javob berishga qiynalaman	22,8%	273



13-rasm. Ijtimoiy tarmoqlarda bo‘lib turadigan bahs munozaralarda ishtirok etasizmi?

Tadqiqotimizda ishtirok etgan respondentlarimizga “Ijtimoiy tarmoqlarda bo‘lib turadigan bahs-munozaralarda ishtirok etasizmi?” savoli bilan murojaat qildik va ulardan shunday javob oldik: Ha muntazam ishtirok etaman javobini tanlaganlar 4,6% ni; ha ba’zan ishtikor etaman javobini tanlaganlar 64,3% ni; yo‘q ishtirok etmayman javobini tanlaganlar 8,4% ni; javob berishga qiynalaman javobini tanlaganlar esa 22,8% ni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur monografiya mavzusi doirasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Bugungi kunda siyosiy faollik real voqeylikdan ko‘ra, virtual makonda aniq namoyon bo‘lmoqda;
2. Internet kommunikatsiya texnologiyalarining interaktivlik xususiyati fuqarolarning siyosiy faolligini amalga oshirishga imkon beradi;
3. Internet kommunikatsiya texnologiyalarining aynan interaktiv xususiyati kishilarning siyosiy faolligini amalga oshirishi bilan birgalikda ularning turli siyosiy manipulyativ ta’sirlarga tushish ehtimolini ham oshiradi;
4. Virtual olamdagi siyosiy faollik darajasining real hayotdagi siyosiy faollik darajasiga nisbatan balandligini internet tarmoqlarida anonim qolish imkoni

mavjudligi omili bilan izohlaniladi. Chunki aksariyat respondentlar real hayotda o'tkaziladigan siyosiy tadbirlarda nafaol bo'lishlarini, aksincha virtual olamdagi siyosiy munosabatlarda faol bo'lishlarini ta'kidlab o'tganlar. Bu esa o'z navbatida sun'iy virtual siyosiy faollikni uyushtirgan holda jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash uchun ham zamin hozirlaydi. 2.3 paragrafda tahlil qilingan trolling, xeytring kabi texnologiyalarning samaradorligi aynan anonimlik yoki ildizsimonlik xususiyati bilan belgilanadi.

5. Boshqa turdagi axborot manbalariga qaraganda internet tarmog'ida muqobil siyosiy ma'lumotlarning ko'pligi hamda jozibador xarakter i, emotsional ta'siri tufayli ham foydalanuvchilarda internetdagi siyosiy faollik darajasi baland hisoblanadi. Ayni omil ham foydalanuvchilarni axborotning ko'p variantlilik, ko'p talqinlilik xususiyati orqali manipulyatsiyalash ayniqsa rasmiy axborot manbalarida e'lon qilingan xabarlariga muqobil go'yoki chindek taassurot qoldiruvchi xabarlar bilan manipulyatsiyalash imkonini yuzaga keltiradi. Umuman olganda internet siyosiy kommunikatsiya vositasi sifatida axborot tanqisligi, ko'p variantlilik, anonimlik tufayli nafaqat ochiqlik va shaffoflikni balki ayni xususiyatlar tufayli siyosiy manipulyatsiyalarni faol qo'llash uchun xizmat qiluvchi virtual makon ham hisoblanadi.

3.2 Zamonaviy internet kommunikatsiyasining siyosiy manipulyativ imkoniyatlari

Yuqoridagi paragraflarda ta'kidlab o'tganimizdek, jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishning: kommunikativ, axboriy, psixologik hamda mediada qo'llaniladigan turli siyosiy texnologiyalari mavjud. Ayniqsa, bugungi global axborot makonida internet tarmoqlari kommunikativ vosita sifatida siyosiy manipulyatsiyalarni faol qo'llash uchun qulay mediamakon vazifasini bajarmoqda. Zotan, axborot texnologiyalari g'oyat rivojlangan zamonaviy jamiyat sharoitida internet kommunikatsiyalari siyosiy voqelikni real va virtual olamdagi yaratuvchisi hamda talqin etuvchi instrumentga aylanib ulgurdi.

“Global axborot makonida jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishning siyosiy texnologiyalari” mavzusi doirasida 2023 yilning avgust, sentabr oylarida sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazildi. Mazkur tadqiqotda ekspert so‘rov usulidan foydalanildi. Ekspertlar sifatida 10 nafar siyosatshunoslik fanlari nomzodlari hamda siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktorlari, 6 nafar sotsiologlar, 9 nafar siyosiy jurnalistlar, 5 nafar blogger: jami 30 nafar ekspert tanlab olindi. Ma’lum bir jihatlarni e’tiborga olgan holda ekspertlarimiz anonim qolishni afzal ko‘rishdi. Shuni inobatga olib, ekspertlarni shartli ravishda birinchi, ikkinchi va hokazo shaklda raqamlab olishni lozim topdik.

O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot globallashtirilgan axborot makonida jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishda internet kommunikatsiyalarining ahamiyatini ko‘rsatishga qaratildi va ushbu mavzudan kelib chiqqan holda, ekspertlarga o‘nta savol taqdim etildi. Quyida ekspertlarning javoblari tahlili asosida, ularning umumiy va farqli jihatlarni mavzu doirasida ko‘rib o‘tamiz.

Dastlabki savol ***“Sizningcha, bugungi kunda axborot texnologiyalari siyosiy jarayonlarni manipulyatsiya qilishda qanchalik “muvaffaqiyat”ga erishdi?”***

1-ekspert. Taraqqiy etgan davlatga aylanishni istagan har qanday davlat o‘z rivojlanish yo‘lining asosi hamda jamiyat o‘zgarishlarining zaruriy sharti sifatida shubhasiz raqamli axborot texnologiyalariga diqqat qaratadi. An’anaviy ravishda tashkil etilgan xalqaro munosabatlar tizimi jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda, bu birinchi navbatda demokratlashtirish, mintaqalashtirish va globallashtirish jarayonlarining kuchayishi, o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun yetarli resurslarga ega bo‘lgan yangi omillarning faollashishi va ta’sirining kuchayishi bilan bog‘liq.

2-ekspert. So‘nggi yillarda axborot urushlari deb ataladigan hodisa axborot jamiyatidagi siyosiy qarama-qarshiliklarni hal qilishning ekstremal shakliga aylandi. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, zamonaviy axborot jamiyatining aksar a’zolari tabiiy ravishda ularning guvohlari va ko‘pincha ishtirokchilariga aylanib qolmoqda. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi (bundan keyin – AKT) xususan, internetning

tarqalishi hamda undan foydalanish imkoniyatining oshishi tufayli mamlakat ichidagi va hatto dunyoning istalgan qismida bir necha o'n yillar oldingiga qaraganda istalgan har qanday voqea-hodisani ommalashtirish birmuncha osonlashdi.

3-ekspert. Shubhasiz, AKTlar zamonaviy dunyodagi siyosiy mojarolar va inqirozlarning borishiga ta'sir qiladi hamda urishayotgan tomonlar tomonidan hisobga olinadi. Qarama-qarshi kuchlar ma'lumotni boshqarishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanib, ularni voqealarni ma'lum bir nuqtai-nazar yoki pozitsiyadan turib yoritishga majbur qiladi. Shu tariqa inson ongi uchun kurashayotgan tomonlar AKTlar vositasida g'alaba qozonishga intilmoqdalar. Axborot urushlari axborot texnologiyalari taraqqiyotining salbiy tomoni va axborot mavjudligining yorqin namoyonidir.

4-ekspert. Siyosiy voqealar (ma'lum bir mamlakat ichida, davlatlararo munosabatlar, harbiy mojarolar) televideniya, internet va boshqa ommaviy axborot vositalarida keng yoritilmoqda. Ushbu ogohlantirishlar davomida siyosiy texnologiyalarni tatbiq qilgan holda, omma uchun foydali bo'lgan ma'lum "zarur" kayfiyatlarni shakllantirish uchun yangiliklar hisobotlarida voqealarni soxtalashtirish misollari bir necha bor qayd etib kelinmoqda. Bunday faktlar tadqiqotchilar tomonidan axborot urushlarining namoyon bo'lishi sifatida qaraladi. Axborot urushlariga dushman mamlakat hududidagi vaziyatni beqarorlashtirishga va mojaro yaratishga qaratilgan axborot xurujlari ham kiradi.

Yuqorida keltirilgan ekspertlar javoblari tahlillarini umumlashtirib shuni aytish mumkinki, internet tarmog'i hamda AKTlar nafaqat jamiyat taraqqiyotining zaruriy elementi bo'lgan kommunikatsiya vositasi, balki manipulyator maqsadlariga xizmat qiluvchi axboriy urush quroli vazifasini ham bajarmoqda. Lekin shuni alohida nazarda tutish lozimki, ekspertlarning 12 nafari internet vositalarining manipulyativ ahamiyatini ko'proq, xalqaro siyosiy munosabatlar bilan bog'lashga harakat qilishini kuzatish mumkin. Ularning javoblaridagi umumiylik internet tarmoqlarida amalga oshirilayotgan manipulyativ ta'sirlarni mamlakatlararo xalqaro munosabatlar jarayoni, axborot urushi bilan bog'lashda

namoyon bo‘ladi. Biroq, boshqa ekspertlar esa, internet orqali amalga oshirilayotgan manipulyativ ta’sirlarni muayyan fundamental an’analari, qadriyatlar tizimiga, inson psixologiyasiga ta’sirini ko‘rsatib o‘tganlar. Masalan:

5-ekspert. Internetning siyosiy kommunikatsiyalar makoni sifatida rivojlanishi va tegishli AKTning paydo bo‘lishi bilan jamoat ongini va an’anaviy qiymat-semantik bo‘shliqlarni boshqarish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi, bu ko‘p jihatdan siyosiy boshqaruv jarayoniga yangi talablarni qo‘yadi. Bu esa o‘z navbatida an’anaviy qadriyatlar va ma’nolarni saqlash hamda himoya qilish bilan bog‘liq.

7-ekspert. Bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy va dolzarb vazifalaridan biri, zamonaviy siyosiy jarayonda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va xususiyatlarini o‘rganishdir. Bu xususan, eng yangi texnologiyalar kombinatsiyasi sifatidagi media tizimi nafaqat ma’lumot uzatish va qayta ishlash, ayni paytda keng jamoatchilik fikrini shakllantirishning muhim mexanizmiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, mediamakon yangi shakllar ishlab chiqilgan texnik va texnologik yangiliklarda an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan (bundan buyon matnda ommaviy axborot vositalari deb ataladi) farq qilishini ta’kidlash muhimdir.

3-savol. Siyosiy materiallarni qayta-qayta repost qilish ular tarqalishining ta’sirini oshiradi degan mulohazaga munosabatingiz?

Mazkur savol virtual makonda ildizsimon boshqacha qilib aytganda, ildizsimon manipulyativ ta’sirlarning qay darajada samaradorligini aniqlash maqsadida ekspertlarga taqdim etildi. Ushbu savolga ekspertlar quyidagicha javob berishdi:

10-ekspert. Samarali muloqot axborot jamiyatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Zamonaviy media-resurslar axborot harakati uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Repost texnologiyasi sodda qilib aytganda, manbasi ko‘rsatilgan holda tayyor muayyan xabarni qaytadan o‘z sahifasiga joylashtirishni anglatadi. Mazkur texnologiyaning ildizsimonlik xususiyati shundaki, u xuddi ildiz kabi ko‘plab tarmoqlar orqali keng tarqaladi. Uning haqiqiy manbasini aniqlash

murakkab bo‘ladi. Shu ma’noda repost qilingan xabarning chinligini tekshirish deyarli imkonsiz. Bu esa istalgan feyk xabarni miqdor jihatdan kengroq auditoriyalarga tarqatgan holda jamoatchilik fikrini chalg‘itish, shu asosda ularni muayyan xatti-harakatga undash imkonini beradi.

6-ekspert. Zamonaviy dunyoda an’anaviy va yangi media manbalarining simbiozi mavjud – klassik ommaviy axborot vositalari internet auditoriyasining e’tiborini jalb qilishga majbur bo‘lib, u ijtimoiy tarmoqlarni siyosiy lashtirish omillaridan biriga aylanmoqda.

Repost texnologiyasi ham auditoriya diqqatini tortishning o‘ziga xos usuli sanaladi. Chunki repost qilayotgan manipulyator o‘z auditoriyasida go‘yoki hech kim ko‘rmagan sirli, kam tarqalgan xabarni qo‘yayotgandek taassurot qoldirishga intiladi. Qolaversa, repostda manbaning ko‘rsatilishi garchi u feyk xabar bo‘lsa-da, post mazmunida aks etgan fikrlarga bo‘lgan qiziqish va ishonchni yanada orttiradi.

Shuningdek, yuqoridagi savolga ekspertlar tomonidan berilgan javoblarni umumlashtirib, internetda qo‘llaniladigan ildizsimon siyosiy manipulyatsiya texnologiyalarining quyidagi umumiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Unga ko‘ra, mazkur fenomen siyosiy virtuallikda avtonom, spontan tarzda vujudga keladi. Biroq, shuni ham nazardan chetda qoldirmaslik lozimki, ildizsimon manipulyativ texnologiyalarni yuzaga keltirish siyosiy manfaatdor kuchlar tomonidan paydo qilinmaydi degan xulosani ham uyg‘otmasligi kerak. Bundan tashqari aynan ildizsimon manipulyativ texnologiyalari o‘zining g‘oyat murakkabligi bilan ham ajralib turadi. Shu bois u internetda qo‘llaniladigan boshqa manipulyativ texnologiyalaridan ko‘ra, ko‘proq samarador sanaladi.

5-savol. Youtube, Facebook, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy mem shaklidagi xabarlarning tarqalishi ularning manipulyativ ta’sirini oshirishga qanchalik xizmat qiladi?

1-ekspert. Yaqin-yaqingacha bizga allaqachon tanish bo‘lgan “axborot urushi”, “media urushi”, “kognitiv urush” (bilim va ma’nolar urushi), “gibrid urush” kabilardan tashqari yana bitta “mem urushi” deb ataluvchi yangi tushuncha ham paydo bo‘ldi.

Oksford lugʻatida mem –jamiyatning bir aʼzosidan boshqalariga nusxa koʻchirish yordamida uzatiluvchi gʻoya sifatida taʼriflanadi. Mazkur tushunchaning yana bir maʼnosi hazil mutoyiba mazmuniga ega boʻlgan surat, rasm, matn boʻlagini ham anglatadi. Unga koʻra, memlar virtual olamda keng tarqatiladi. Bu maʼnoda internet memlarni internet folklorining elementi sifatida baholash maqsadga muvofiq. Zotan memlar oʻzida yangicha sotsiomadaniy hodisani aks ettiradi. Memlar virtual folklor shakli ekanligi gʻoyasidan kelib chiqadigan boʻlsak, ularni siyosiy texnologiya sifatida qoʻllash manipulyator maqsadlariga xizmat qiluvchi axborotning tezkorlik bilan katta hajmda tarqashiga xizmat qiladi. Jumladan, internetning oʻzbek segmentida ham memlar kinoyali yumor sifatida ayrim hollarda muayyan siyosiy voqealarni xalq tomonidan tanqid qilinishiga yoki tanqidga uchragan muayyan hodisalarga nisbatan aholi orasida yumshoq munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

7-ekspert. Mem internet makonidagi matn folklor elementini oʻzida aks ettiradi. Chunki, mazkur koʻrinishdagi matnlar xalq ogʻzaki ijodini tashkil etuvchi maishiy turmush tarzini aks ettirish, muallifliksizlik, jamiyatning barcha qatlamlari orasida keng tarqalganlik, ijodiy, estetik, badiiy asos, turli variantga egalik kabi xususiyatlarni oʻzida namoyon qiladi. Shuni nazardan chetda qoldirmaslik lozimki, internet memlarning tarqatuvchilari internet makonning ishtirokchilari sanaladi. Bu maʼnoda tadqiqotchilar memlarning seleksiyasi sifatida jamiyatda oʻrnatilgan axloq meʼyorlarini mezon sifatida baholaydilar.

19-ekspert. Mem xabarlarining asosiy xususiyati shundaki, ulardagi maʼlumotlar “molekulaga siqilgan”; u tezda oʻqiladi, “oʻzingiznikini” “begonalar”dan ajratishga imkon beradi, “jozibali” qadoqlashga ega va koʻpaytirish hamda tarqatish oson. Memlarning siyosiy nutqdagi yuqori dolzarbligi, bu boshqa narsalar qatori “internet-memlar noanʼanaviy mavzularga ruxsat berish va ragʻbatlantirish” bilan izohlanadi. Biroq, internet-memlarning siyosiy sohadagi oʻzaro taʼsir mexanizmi sifatida murojaat qilishi, ulardan ishtirok etish madaniyati doirasida foydalanish imkoniyati bilan cheklanmaydi. Hozirgi kunda turli mamlakatlar - Ispaniya, Braziliya, AQSh va boshqalarning ijtimoiy

tarmoqlarida va memosferada kuch tuzilmalari, partiyalar, siyosatchilarning imijini aks ettirish bo'yicha tadqiqotlar faol nashr etiladi.

Shunisi diqqatga molikki, ekspertlarga taqdim etilgan 10 ta savoldan aynan beshinchi ya'ni internet memlar haqidagi savolga ekspertlarning 100% yakdil bir-hil mazmunda javob berdilar. Bundan tashqari ekspertlar internet memlarning ilgari deyarli ishlatilmagan "mem urushi" metaforasi nafaqat akademik matnlarda yoki ilmiy maqolalar sarlavhalarida, balki internetning o'zida ham turli mem jamoalari vakillari tomonidan majoziy ifoda sifatida faol qo'llanila boshlanganligini ta'kidlab o'tdilar. Ammo ekspertlarning aksariyati memosfera internetning o'zbek segmentida birmuncha yangi soha ekanligi akademik doiralarda ham siyosiy manipulyativ texnologiya sifatidagi tadqiqi deyarli e'tibor qaratilmagan mavzu ekanligini ta'kidladilar. Hattoki tilshunoslik, madaniyatshunoslik, psixologiya sohasidagi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda ham ayni mavzuga qo'l urilmaganligi aytib o'tildi. So'nggi yillarda internetning o'zbek segmentida faollik birmuncha oshganligi, shunga ko'ra memosfera ham kengayib borayotganligi nazarda tutilsa, bu boradagi tadqiqotlarga zaruriyat kuchayib borayotganligi o'z-o'zidan namoyon bo'ladi.

6-savol. Soxta akkauntlar yasab shu orqali siyosiy jarayonlarga salbiy kommentariya berishni yangi manipulyatsiya turi sifatida baholash mumkinmi?

27-ekspert. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda axborot almashinuvining asosiy manbai bo'lib, buni olimlarning bir qator tadqiqotlari isbotlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlarning tarqalishi ikkita jamoalar (ommaviy sahifalar va guruhlar) va shaxsiy foydalanuvchi akkauntlari mavjud bo'lgandagina amalga oshadi. Foydalanuvchining shaxsiy akkaunti muayyan insonning virtual olamdagi analogi o'laroq axborot iste'molchilarida katta ishonch uyg'otadi. Virtual olamda shaxsiy akkauntga ega bo'lish axborot iste'molchilarida go'yoki tarqatuvchi bilan shaxsan tanishish, muloqot qilish imkonini beradi. Haqiqiy foydalanuvchilardan tashqari, soxta akkauntlar, boshqacha qilib aytganda, qandaydir maqsadga erishish yoki foyda olish uchun mo'ljallangan soxta akkauntlar mavjud. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, soxta akkauntlarni xususiyatlar (fotosuratlar,

o‘zlari haqidagi shaxsiy ma’lumotlar) bilan ta’minlash orqali ularning yaratuvchilari haqiqiy foydalanuvchilarga taqlid qilishadi. Ommaviy axborot vositalariga va ba’zi ijtimoiy-siyosiy kuchlar, tovarlar va xizmatlar foydasiga xolis bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa institutsional agentlarga ishonishdan farqli o‘laroq ushbu taqlid dastlab foydalanuvchilarning o‘zlari kabi bir hil “oddiy odamlarga” bo‘lgan ishonchiga asoslanadi.

20-ekspert. Repost orqali shaxsiy sahifalaridagi ma’lumotlar abonentlarning yangiliklar lentasidan tashqarida – har qanday jamoalarga va har qanday foydalanuvchilarning sahifalariga, shu jumladan boshqa ijtimoiy tarmoqlarga, agar resurslar o‘rtasida integratsiya tizimi mavjud bo‘lsa – boshqa saytlarga tarqalishi mumkin. Soxta akkaunt, haqiqiy foydalanuvchi kabi ma’lumotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoalarga anonim yozuvlar shaklida yoki mualliflik imzosi bilan joylashtirishni taklif qilishi mumkin. Aytaylik, materiallarning ishonchliligi masalasi, tinglovchilarning fikriga ko‘ra, akkaunt tarqatgan kontentning, to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanuvchining ko‘rsatilgan shaxsiy xususiyatlariga (shuhrat, obro‘, kasb, ta’lim darajasi va boshqalar bilan) ham bog‘liq bo‘ladi.

16-ekspert. Soxta akkauntlarni o‘zgartirishning ikkita asosiy yo‘nalishi mavjud. Birinchidan, haqiqiy o‘rtacha foydalanuvchi sahifasining dizayni va mazmuni uchun mas’ul bo‘lgan akkaunt yaratish tendensiyasi mavjud. Agar ilgari boylik, did va qandaydir ustunlikni namoyish etadigan muvaffaqiyatli odamning (yaxshi ko‘ringan xonim yoki nafis yigit) akkaunti soxta sahifa bo‘lib ishlagan bo‘lsa, bugungi kunda o‘rta statistik odam, uy bekasi, haydovchi, ustalar kabi maishiy soha vakillari qiyofasidagi soxta akkauntlar yaratish tendensiyasi trendga chiqmoqda. Chunki bunday o‘rta statistik darajadagi kishi obrazini yaratish foydalanuvchilarda “o‘zimizniki”, “unga aldashdan nima foyda”, “bizdan kam yoki ortiq joyi yo‘q” kabi taassurotlarni uyg‘otadi. Iste’molchi sifatidagi foydalanuvchi sotsial status nuqtai-nazaridan o‘ziga teng odam ko‘rinishida yaratilgan akkauntning kontentlarini iste’mol qilar ekan, unda ayni kontentda namoyon bo‘lgan xulq-atvor modeliga intilish, turmush darajasini hamda yashash vositalarini unga yaqinlashtirish hissi uyg‘onadi. Shu tariqa iste’molchi soxta

akkaunt kontentida taklif qilingan tovar yoki xizmatni sotib olishga, akkaunt kontentida namoyon bo'lgan turmush tarzi va xulq-atvor modeliga muvofiq tarzda yashashga intiladi. Masalan, soxta akkaunt orqali yaratilgan avtoblogger tomonidan foydalanilgan ehtiyot qismlarni sotib oladi yoki xuddi shunday soxta akkauntida targ'ib qilingan kitobni olib o'qiydi.

Soxta akkaunt yaratishda eng avvalo internet tarmog'idagi trendlar bilan bog'liq jihatlarga urg'u berish lozim. Masalan akkaunt dizaynini ko'pchilik foydalanuvchilarning dizayniga o'xshash shakllantirish, haqiqiy foydalanuvchilar o'z akkauntida qoldirgan ma'lumotga o'xshash shaxsiy ma'lumotlarni qoldirish, sharhlar yozishda faol bo'lish, bahslar keltirib chiqarishga intilish, ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishi aniq bo'lgan fikrlarni birinchi bo'lib ilgari surish kabi xususiyatlarga bo'lish lozim. Ijtimoiy tarmoqlar paydo bo'lganidan 10 yil o'tgach, ko'pchilik foydalanuvchilar yaxshi rivojlangan aloqa bazasiga ega, shuningdek, ma'lum miqdordagi do'stlariga ega (bir necha yuz kishidan bir necha minglab kishigacha). Shunday qilib, deyarli har-bir foydalanuvchi akkaunti reklama, tashviqot yoki boshqa kontentni yo'naltirish mumkin bo'lgan auditoriyaga ega. Boshqa narsalar qatorida, tovarlar, xizmatlar, g'oyalar xususan siyosiy qarashlarning bunday reklamasi mutlaqo bepul. Shaxsiy akkauntning bunday xususiyatlari marketing va siyosiy targ'ibot maqsadlarida foydalanish uchun istiqbolli bo'ladi. Foydalanuvchilar o'z sahifalarida shaxsiy reklama va kompaniya reklamalarini joylashtiradilar. Agar ular biron-bir kompaniyaning xodimlari bo'lsa, ular shaxsiy profilidan faol foydalanadilar. Shu bilan birga, foydalanuvchining do'stlari uchun bu odam nafaqat ijtimoiy tarmoqdagi akkaunt, balki u yoki bu tarzda ishonchni keltirib chiqaradigan haqiqiy shaxsdir.

8-savol. Internet tarmoqlarida u yoki bu siyosatchining virtual imijini yaratishning o'ziga xos jihatlari?

22-ekspert. Siyosiy imij – bu siyosatchilar tomonidan qo'llaniladigan kommunikativ strategiyalar orqali shakllangan murakkab tuzilmadir. Siyosiy imij murakkab hodisa sifatida elektoratning umidlarini qondirish, shuningek, aholining ijtimoiy stereotiplari va milliy an'analari bilan o'zaro bog'liqlik uchun

mo'ljallangan. Siyosiy omil obrazi siyosatchi va ommaviy auditoriya o'rtasidagi aloqani tartibga soladi va shuning uchun so'nggi o'n yillikning dolzarb tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Imij haqli ravishda professional muvaffaqiyatning bir qismi sifatida tan olingan, chunki imij qanchalik aniq tanlangan bo'lsa, muloqot shunchalik samarali bo'ladi. Konsentrlangan shakldagi imij insonning o'ziga xos xususiyatlarini yoki uning intilishlarini belgilaydi. Shu ma'noda imij real siyosatchining asosiy, muhim yoki kerakli xususiyatlarni aks ettiruvchi ramziy simulyatsiyasi hisoblanadi. Siyosiy nutqda imij siyosatchi aniqrog'i, uning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, niyatlari, rejalari haqida ma'lumot beradi.

Shuningdek, yuqoridagi savolga ekspertlarning 26 nafari javoblari mushtarak bo'ldi. Unga ko'ra har qanday siyosiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar, siyosiy arboblarning o'zlarining imij, qiyofalarini yaratishda manipulyativ texnologiyalardan foydalanadilar. Bu ma'noda, ayniqsa siyosiy liderlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlardan kelib chiqqan holda sotsial va psixologik qiyofalarini auditoriyaga taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual olam esa bu imkoniyatni yanada kengaytirgan holda siyosiy yetakchi va oddiy fuqaro o'rtasida bevosita aloqani yuzaga keltiradi. Internet tufayli muayyan siyosiy yetakchining follevarlari nafaqat u haqida qandaydir gazeta yoki jurnaldan o'qish, balki videotasvirda bo'lsa-da, uning o'zini bevosita ko'rish, uning virtual olamda yaratilgan shaxsiy hayoti bilan tanishish va shu orqali unga yaqinlik his etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

9-savol. Siyosiy miflardan manipulyativ texnologiya sifatida qo'llanilishiga munosabatingiz?

25-ekspert. Siyosiy miflar siyosiy ongni o'zgartirishda qo'llanilib, unda siyosiy jarayonni tushuntirishga qaratilgan faktlar manipulyator tomonidan o'ylab topilgan ayni faktlarni buzib talqin qilishga asoslangan, obrazlar, uydirmalar, narrativlar, afsonalar hamda ularga bo'lgan ishonchni shakllantirish maqsadida tatbiq qilinadi. Garchi zamonaviy siyosiy miflar jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash texnologiyasi o'laroq tatbiq qilinsa-da, ular qadimgi mumtoz shakldagi miflar bilan muayyan o'xshash belgilarga ega bo'ladi. Zero, qadimgi

mumtoz miflar ham nafaqat olam manzarasini tushuntirishi balki o'zi tarqalgan hudud va sotsiomadaniy muhitda ma'lum g'oya yoki mafkuraga nisbatan jamoatchilikda ishonch e'tiqodni shakllantirish funksiyasini ham bajargan. Shu ma'noda qadimgi miflar ham manipulyativ texnologiya sifatida tavsiflanishi mumkin. Mumtoz miflar muayyan voqea-hodisa ma'lum davrga oid tarixiy reallik va qahramonlar haqida bo'ladi. Undan farqli ravishda siyosiy miflar zamonaviy siyosiy voqelikni tushuntirishga, uni legitimatsiyalarga, muayyan mafkurani xalqqa yaqin tilda tushuntirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai-nazardan siyosiy miflar samarador manipulyatsiya texnologiyalari sifatida qo'llanilishi mumkin.

15-ekspert. Garchi axborot texnologiyalari jadallik bilan taraqqiy etib, ma'lumot olish va uning chinligini tekshirish imkoniyatlari tobora kengayib borayotgan bo'lsa-da, omma ongida siyosiy miflarga ishonish ehtiyoji kamaymayapti. Ayniqsa, bu virtual olamda ko'proq namoyon bo'lmoqda. Chunki oddiy internet foydalanuvchisi siyosiy jarayonlar va hodisalarni batafsil tahlil qilish va tushunish bilan bog'liq professional ko'nikmalarga ega emas. Qolaversa, oddiy foydalanuvchining bunga vaqti ham yo'q. Shu bois oddiy foydalanuvchi muayyan siyosiy jarayon, hodisa yoki mafkurani tushunish bilan bog'liq yaxlit, avvaldan tayyorlangan narratologik syujetlarni qabul qilishga moyilligi baland. Mazkur moyillik esa manipulyatorlar tomonidan ustalik bilan foydalaniladi. Natijada esa atrofda sodir bo'layotgan siyosiy voqelikni manipulyator maqsadlariga mos tarzda tushuntiruvchi siyosiy miflar yaratiladi. Miflardagi sun'iy tarzda hosil qilingan mantiqiy izchillik, yolg'on faktlar, avtoritetlarning fikrlari, kishining emotsiyalariga ta'sir ko'rsatuvchi badiiy ifoda usuli, vizual audioeffektlar uning mifdan ko'ra reallik sifatida qabul qilinishi uchun samarador mexanizm vazifasini bajaradi. Internetning o'zbek segmentida ham yoshlarimizning ana shunday miflarga ishongan holda turli xil destruktiv maqsaddagi guruhlarining targ'ibotiga aldanib qolish bilan bog'liq holatlari tez-tez uchrab turibdi.

30-ekspert. Qadimdanoq miflar kishilarga tushunish murakkab bo'lgan hodisalarni sodda tarzda bayon qilish vazifasini bajargan. Bugungi kunda ham

miflar xususan siyosiy miflar tanqidiy tafakkurga, salohiyati kuchli bo'lmagan oddiy foydalanuvchiga siyosiy reallikni izohlab berish da'vosi bilan yuzaga chiqadi. Miflarda yaratilgan narratologik syujetlar ishonchli bo'lishi uchun yolg'on faktlar keltiriladi yoki chin faktlar ham buzilib talqin qilinadi. Nufuzli ekspertlar qarashlari kontekstdan kesib olingan holda taqdim etiladi. Eng muhimi, zamonaviy siyosiy miflarda oddiy foydalanuvchining kundalik maishiy hayoti bilan bog'liq muammolarga murojaat qilinadi. Bu esa o'z navbatida mifning nafaqat ratsional jihatdan ishonchli bo'lishi, balki uning foydalanuvchi tuyg'ularini qo'zg'atgan holda emotsional yaqinlik uyg'otishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda internetning o'zbek segmentida tarqatilayotgan turli-hil destruktiv ruhdagi siyosiy miflar ham ayni xususiyatga asoslanadi. Birgina terroristik ruhdagi turli-hil siyosiy miflarni tahlil qilish ham fikrimizning chinligini ko'rsatadi.

8-ekspert. Miflar odatda spontan tarzda qandaydir o'tmish xotirasi bilan bog'liq hodisalar, jarayonlar yoki nufuzli shaxslar hayotiga oid tafsilotlar ko'rinishida vujudga kelishi mumkin. Garchi siyosiy miflar ham qadimgi miflar singari individual ongda vujudga kelsa-da, ko'pincha ular sun'iy tarzda manipulyator maqsadiga muvofiq yaratilib tarqatish orqali ijtimoiylashtiriladi. Individual ongda vujudga kelib, ijtimoiylashgan siyosiy miflar esa keyinchalik manipulyatsiya texnologiyasi sifatida jamoatchilik fikrini o'zgartirishda keng qo'llaniladi.

10-ekspert. Siyosiy mifning o'ziga xos xususiyati shundaki, u doimo haqiqatga aylanishga intiladi. Siyosiy mif nafaqat voqealarning u yoki bu yo'nalishini oqlashga, odamlarning amalga oshirilayotgan siyosiy harakatlarning to'g'riligiga ishonishini ta'minlashga, qolaversa siyosiy jarayon ishtirokchilarining unutilmas, yorqin obrazlarini, siyosiy hayot faktlarini, umuman muayyan pozitsiyaning qiyofasini yaratishga intiladi. Mif faqat ommaning ongiga aniq ta'sir ko'rsatadigan vositalar yordamida haqiqatga aylanishi mumkin. Siyosiy miflarning yashovchanlik muddatini oshirishda ularning mediadagi targ'iboti turli-hil hatto ba'zan tanqidiy ruhdagi talqinlarni ko'paytirish zarur.

Bundan tashqari yuqoridagi savolga boshqa ekspertlarning javoblari siyosiy miflarni manipulyatsiya texnologiyasi sifatida g'oyat yuqori psixologik ta'sirga ega ekanligini, ularni muayyan millatning mental xususiyatlari, madaniy o'zagidan kelib chiqib, sun'iy tarzda yaratilishini ifoda etadi. Ayniqsa, ushbu jihat muayyan siyosiy liderlarning qiyofalarini, shiorlarni, mafkuralarni yaratishda muhim rol bajaradi. Masalan, nom asosiy mifologik ramzlardan biridir. "Ijtimoiy hodisaga berilgan nom, nomlangan obyektning eng muhim idrokiga aylanadigan ramz bo'lib chiqadi". Biror hodisani nomlash orqali biz uni ifodalaymiz va uni qanday atashimizga qarab uning yaqqol obrazi ongimizda shakllanadi.

Zamonaviy jamiyatda internet kommunikatsiya texnologiyalari jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega ushbu hodisa quyidagilarda belgilanadi:

1. Ildizsimon texnologiyalar qo'llanilganda manipulyatsiya subyektlarini aniqlash deyarli imkonsiz ekanligi;

2. Manipulyatsiya obyektlarida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy identiklik belgilarining mavjud emasligi;

3. Internet foydalanuvchilarining ijtimoiy tarmoqlarda manipulyativ kontentlarni faol tarqatishi;

4. Internet memlar siyosiy manipulyatsiyaning asosiy texnologiyalaridan biri sanaladi. Shuningdek, internet tarmoqlari istalgan mazmun yoki miqdordagi memlarni tez va oson yuklab olishga, nusxa ko'chirishga, tarqatishga, ularni ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga joylashga imkon beradi.

Uchinchi bobga xulosa

1. Bugungi kunda siyosiy faollik real voqeyilikdan ko'ra, virtual makonda aniq namoyon bo'lmoqda. Internet kommunikatsiya texnologiyalarining interfaollik xususiyati fuqarolarning siyosiy faolligini amalga oshirishga imkon beradi. Internet kommunikatsiya texnologiyalarining aynan interfaol xususiyati kishilarning siyosiy faolligini amalga oshirishi bilan birgalikda ularni turli siyosiy manipulyativ ta'sirlarga tushish ehtimolini ham oshiradi.

2. Virtual olamdagi siyosiy faollik darajasining real hayotdagi siyosiy faollik darajasiga nisbatan balandligini internet tarmoqlarida anonim qolish imkonini mavjudligi omili bilan izohlaniladi. Bu esa o'z navbatida sun'iy virtual siyosiy faollikni uyushtirgan holda jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash uchun ham zamin hozirlaydi. Boshqa turdagi axborot manbalariga qaraganda internet tarmog'ida muqobil siyosiy ma'lumotlarning ko'pligi hamda jozibador xarakter i emotsional ta'siri tufayli ham foydalanuvchilarda internetdagi siyosiy faollik darajasi baland hisoblanadi. Ayni omil ham foydalanuvchilarni axborotning ko'p variantlilik, ko'p talqinlilik xususiyati orqali manipulyatsiyalash ayniqsa rasmiy axborot manbalarida e'lon qilingan xabarlariga muqobil go'yoki chindek taassurot qoldiruvchi xabarlar bilan manipulyatsiyalash imkonini yuzaga keltiradi. Umuman olganda internet siyosiy kommunikatsiya vositasi sifatida axborot tanqisligi, ko'p variantlilik, anonimlik tufayli nafaqat ochiqlik va shaffoflikni balki ayni xususiyatlar tufayli siyosiy manipulyatsiyalarni faol qo'llash uchun xizmat qiluvchi virtual makon ham hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda internet kommunikatsiya texnologiyalari jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu hodisa quyidagilarda belgilanadi:

1. Ildizsimon texnologiyalar qo'llanilganda manipulyatsiya subyektlarini aniqlash deyarli imkonsiz ekanligi;

2. Manipulyatsiya obyektlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy identiklik belgilarining mavjud emasligi;

3. Internet foydalanuvchilarining ijtimoiy tarmoqlarda manipulyativ kontentlarni faol tarqatishi;

4. Internet memlar siyosiy manipulyatsiyaning asosiy texnologiyalaridan biri sanaladi. Shuningdek, internet tarmoqlari istalgan mazmun yoki miqdordagi memlarni tez va oson yuklab olishga, nusxa ko'chirishga, tarqatishga, ularni ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga joylashga imkon beradi.

XULOSA

Mazkur monografiya bob va paragraflarida amalga oshirilgan tahlillar natijalarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayonini maxsus tashkillangan yashirin ta'sir, tasavvurlarni sxemalashtirish, xulq-atvorni dasturlashtirish hamda manipulyativ ta'sirga uchragan obyekt xatti-harakatlarining ehtimoliy natijalarini oldindan taxmin qilish imkonini beruvchi tizim sifatida ta'riflash mumkin. Bu esa o'z navbatida jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayoni murakkab tuzilmaga ega bo'lgan professional faoliyat degan xulosaga kelishga imkon beradi.

2. Jamoatchilik fikrini manipulyatsiyalash jarayoni ma'lumotlarga ommaviy tus berish hamda psixologik bosim bilan tavsiflanuvchi turli darajalarga ega. Shunga ko'ra ayni faoliyat siyosiy imij va siyosiy miflar yaratishda o'z ifodasini topuvchi muayyan protseduralar orqali amalga oshiriladi.

3. Keng, ko'p tillik auditoriyaga egalik, interfeyslarning oson va barchaga tushunarli ekanligi, siyosiy kontentni yaratish, iste'mol qilish va tarqatishda har bir foydalanuvchining to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etish imkoniyatiga ega ekanligi kabi o'ziga o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy tarmoqlarni internet kommunikatsiyalar o'rtasida ustunlik kasb etishiga olib keldi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari turli maqsadlar, masalan, siyosiy maqsadlarga ko'ra birlashishlari mumkin. Natijada esa bugungi kundagi eng samarador internet kommunikatsiya aktorlaridan biri bo'lgan tarmoq hamjamiyatlari yuzaga keladi.

4. Internetda qo'llaniladigan siyosiy manipulyativ texnologiyalarning namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra vektor, ildizsimon hamda konvergent kabi siyosiy texnologiyalardan iborat guruhlarga tasniflash mumkin.

5. Internet interfaollik, anonim qolish imkoniyati hamda muqobil, jozibador va emotsional ta'sirga ega axborotlarni taqdim etish funksiyalari tufayli siyosiy faollikni namoyon qilishning siyosiy kommunikativ vositasi hisoblanadi. Internet kommunikatsiya texnologiyalarining aynan interfaollik va anonim qolish xususiyatlari kishilarning siyosiy faolligini amalga oshirishi bilan birgalikda ularni

turli siyosiy manipulyativ ta'sirlarga tushish ehtimolini ham oshiradi.

6. Internetni siyosiy kommunikatsiya vositasi sifatida axborot tanqisligini kompensiyatsiyalash, ko'p variantlilik, ko'p talqinlilik xususiyatlari tufayli nafaqat ochiqlik va shaffoflikni balki siyosiy manipulyatsiyalarni faol qo'llash uchun xizmat qiluvchi global axborot makoni sifatida tavsiflash mumkin.

7. Ekspert so'rovnoma tahlili natijalari umumlashmasidan ma'lum bo'ladiki, zamonaviy folklor shakli sanaluvchi internet memlar viruslilik, ixchamlik, emotsional-yumoristik ta'sir, o'z manbaining noma'lumligi, sodda sxematiklik, dolzarblik, keng omma uchun ochiqlik, doimiy yangilanib borish kabi xususiyatlari tufayli siyosiy manipulyatsiya texnologiyalari sifatida foydalanilishi mumkin. Shuningdek, internet tarmoqlari istalgan mazmun yoki miqdordagi memlarni tez va oson yuklab olishga, nusxa ko'chirishga, tarqatishga, ularni ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga joylashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan siyosiy manipulyatsiyalarni aniqlash va ularga tezkor javob berish uchun mustaqil mutaxassislar va ijtimoiy faollardan iborat **“Jamoaviy monitoring guruhlarini tashkil qilish”** maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, har qanday tarmoq hamjamiyati, ayniqsa, yoshlar va talabalar guruhi, faqat axborot iste'molchisi emas, balki tarqatuvchiga ham aylangan. Shu bois, ular orasida **“mas'ul axborot tarqatuvchi”** g'oyasini ilgari surish va targ'ibot-tashviqot metodikasini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda manipulyatsion siyosiy memlar, videolar yoki postlar keng tarqalayotganini avtomatik aniqlab, ularni tahlil qilib, foydalanuvchilarni ogohlantiruvchi **“Siyosiy kontentning ommaviy tarqalishini monitoring qiluvchi sun'iy intellekt tizimlarini rivojlantirish”** maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, internetdagi siyosiy manipulyatsiyalarning asosiy manbai ko'pincha anonim profil va botlar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ularning

faoliyatini huquqiy jihatdan cheklovchi mexanizmlarni ishlab chiqish, masalan, real shaxsga bog‘liq identifikatsiya tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, memlar sodda, hissiy emosional ta’sirga ega bo‘lganligi sababli ularning siyosiy ta’siri kuchli. Shu sababli bunday kontent yaratuvchilarga ahloqiy kodekslar asosida yo‘riqnomalar ishlab chiqish hamda ularni maxsus platformalarda ro‘yxatga olish va monitoring qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 B.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 B.
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. T.: O'zbekiston, 2018. –B. 22.
4. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga 27.06.2019. uza.uz
5. <https://lex.uz/doss/6445145#6445423> (31-modda) (murojaat vaqti: 08.10.2023)
6. <https://lex.uz/doss/6411327> (murojaat vaqti: 24.09.2023)
7. <https://lex.uz/doss/6445145#6445423> (33-modda) (murojaat vaqti: 08.10.2023)
8. <https://n.ziyouz.som/>
9. «VKontakte» ввела закрытый тип профилей// Дождь [Электронный ресурс] URL: <https://slsk.ru/UDxRz> (murojaat vaqti: 11.04.2021)
10. Beck E. The Logis of Manipulation: 33 Teshniques of Romanian Political Manipulation/ Editura S.H.Beck// Busuresti, 2010.
11. De Aenigmate/ О Тайне. Сборник научных трудов. А.И. Фурсов (сост.). 2-е изд. М.: Товарищество научных изданий КМК. 2017.
12. FB.ru - Istoriya seti internet: v kakom godu poyavilsya i dlya chego byl sozdan//URL: <https://fb.ru/artisle/138077/istoriya-seti-internet-v-kakom-godu-roiyavilsya-i-dlya-shego-byil-sozdan> (murojaat vaqti: 17.05.2021)
13. FB.ru - История сети интернет: в каком году появился и для чего был создан//URL:

http://www.fas.harvard.edu/~histeson/informationtransmission/rarers/trust_manirulation_networks_NS.rdf (murojaat vaqti: 17.08.2021)

14. Giansarlo Elia Valori. Rolitiss of Emotions: How RolitisaL Leaders Manirulate Mass Rsyshology URL: <https://www.israeldefense.so.il/en/node/33610> (murojaat vaqti: 17.08.2021)

15. Haddow D. Meme warfare: how the rower of mass rerlisation has roisoned the US elestion// The Guardian. 4.11.2016. URL: <https://www.theguardian.com/us-news/2016/nov/04/rolitisaL-memes-2016-elestion-hillary-slinton-donald-trumr> (murojaat vaqti: 15.08.2021)

16. Herbert W.Franke. Der manirulierte Menssh: Grundlagen der Werbung und der Meinungsbildung. Broskhaus, 1964.

17. Holiday R. What is Media Manirulation?--A Definition and Exrlanation/ Ryan Holiday // URL: <https://slsk.ru/TqGg4> (murojaat vaqti: 19.03.2021)

18. Nathan J. Russell. An Introduction to the Overton Window of Political Possibilities. URL: <https://www.maskinas.org/7504> (murojaat vaqti: 11.04.2021)

19. Saran V. Media manirulation and rsyshologisaL war in Ukraine and the Rerublic of Moldova / Vladislav Saran// SES Working Rarers. – 2016. – Vol. VIII, Iss. 4.

20. Soon S. Uniting rolitisaL bloggers in diversity: Sollestive identity and Web astivism//Journal of Somruter- mediated sommunionisation. 2014. Vol.19, Iss. 3.

21. U.S. Air Forse. Rersona Management Software. URL: <https://slsk.ru/VqfL8> (murojaat vaqti: 01.07.2021)

22. Vistoria S.L.d. Media Manirulation of the Masses: How the Media RsyshologisaLly Manirulates / Samuel Lórez De Vistoria// URL: <https://rsyshsentrall.com/blog/media-manirulation-of-the-masses-how-the-media-rsyshologisaLly-manirulates#1> (murojaat vaqti: 24.04.21)

23. Voeten. E. The rrastise of rolitisaL manirulation/Erik Voeten// Sambridge University Press. 2012. №4.

24. www.managementexshange.com

25. Аверин Ю.П. Люди управляют людьми: модель социологического анализа. М., 1996.
26. Аверин Ю.П. Люди управляют людьми: модель социологического анализа. М., 1996.
27. Акулич М.М. Интернет троллинг: понятие, содержание и формы/М.М. Акулич// Вестник Тюменского государственного университета 2012. № 8.
28. Антонова А.В. Смех, юмор и речевая манипуляция/ А.В. Антонова //Вестник Пермского университета. Российская и зарубежная филология. 2010. №4.
29. Аронсон Э., Пратканис Э.Р. Эпоха пропаганды: Механизмы убеждения, повседневное использование и злоупотребление. СПб.: прайм – ЕВРОЗНАК, 2003.
30. Арпентьева М.Р. Эрративы «интернетояза» / М.Р. Арпентьева// Языки и литература в поликультурном пространстве. 2018. №4.
31. Арчаков М.В. Политический экстремизм: сущность, проявления, меры противодействия: [монография]/М.К. Арчаков. Екатеринбург: Изд-во Урал. Ун-та, 2013.
32. Бағрикенглик – барқарорлик ва тараққиёт омили / Масъул муҳаррир Очилдиев А. – Т.: Тошкент ислом университети, 2007
33. Баева Л.В. Е-НОМО SAPIENS: виртуальный микрокосм и глобальная среда обитания/ Л.В Баева, И.Ю. Алексеева //Философские проблемы информационных технологий и киберпространства. 2014. № 1.
34. Бакулев Г.П. Теория пропаганды: классики/ Г.П. Бакулев// Ученые записки Российского государственного социального университета. 2013. Т. 2. № 3 (116).
35. Бачинин В.А. Политология. Энциклопедический словарь. СПб., 2005.

36. Беспалова В. П. Роль СМИ в изменении общественного мнения. Использование СМИ как идеологического оружия / В.П. Беспалова, А.В. Федоров // Журнал The Russian Academic Journal. 2013. № 1.
37. Бехтерев В.М. Коллективная рефлексология - Пг., 1921. С.427
38. Блумер Г. Коллективное поведение // Американская социологическая мысль. М.. 1994. С.263
39. Броуди, Ричард. Психические вирусы. [Электронный ресурс]. URL: <http://booksonline.com.ua/view.php?book=74932> (мурожаат вақти: 16.08.2021)
40. Буюк алломаларимиз / Масъул муҳаррир: Исломов З. – Тошкент: «Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси», 2002
41. В.М. Лоскутникова. Хабермас и Луман: два подхода к исследованию процессов коммуникации в современном обществе /В.М. Лоскутникова// Гуманитарная информатика. 2004. № 1. С. 85.
42. Власов А. И. Политическая манипуляция. М.,1982.
43. Волкогонов Д.А. Психологическая война - М.,1983. С.290
44. Володенков С.В. Киберсимулякры как инструмент виртуализации современной массовой политической коммуникации // Информационные войны. 2014, №4.
45. Володенков С.В. Медиатизация и виртуализация современного пространства публичной политики/ С.В. Володенков// Коммуникология. 2016. №4.
46. Володенков С.В. Окно Овертона – манипулятивная матрица политического менеджмента / С.В. Володенков // Научно-Аналитический Журнал Обозреватель Observer. 2015. №4.
47. Володенков С.В. Роль информационно-коммуникационных технологий в современной политике/ С.В. Володенков// Научный ежегодник Института философии и права Уральского отделения Российской академии наук. 2018. Т. 18. № 2.

48. Володенков С.В. Социальные медиа как инструмент современной публичной политики: особенности и перспективы применения/ С.В. Володенков// Политическая наука. 2017. №5.
49. Гаджиев К.С. Политическая философия - М.,1999.
50. Гарифуллин. Р.Р. Иллюзионизм личности как новая философско-психологическая концепция. Казань, 1997.
51. Глухих В. А. Интернет-мемы как инструменты публичной политики / В. А. Глухих, С. М. Елисеев //Дискурс. 2017. № 4.
52. Грачев Г.В, Мельник И.К. Манипулирование личностью: организация, способы и технологии информационно-психологического воздействия. М., 2002. С.153
53. Гринберг Т.Э. Политическая реклама: портрет лидера. М., 1995.
54. Грушин Б.А. Массовое сознание: опыт определения и проблемы исследования. М., 1968.
55. Гуцал А.Ф., Недбаевский С.Л. Портрет политического лидера в историческом интерьере // Стратегическая панорама, 1999, № 1-2.
56. Дженусов А.И. Различие структур и уровней развития политической культуры / Социально-гуманитарные знания, 1999, № 4.
57. Диний экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий-маърифий асослари / Масъул муҳаррир Очилдиев А. – Т.: Тошкент ислом университети, 2008
58. Докинз, Ричард Эгоистичный ген / Ричард Докинз; пер. с англ. Н. Фоминой. Москва: Издательство АСТ: CORPUS, 2017.
59. Докторович А.Б. Роль социальных сетей в развитии общества и экономики России/ А.Б. Докторович, Д.Н. Монахов, Г.А. Монахова//Производство и время. 2013. №3.
60. Доценко Е.Л. Манипуляция: психологическое определение понятия // Психологический журнал т. 14 № 4 1993.
61. Дубин Б.В., Толстых А.В. Феноменальный мир слухов // Социс, 1995, № 1.

62. Ёвкочев Ш.А. Политизация религии и проблема религиозного экстремизма: Автореф. дисс. ... канд. полит. наук. – Т.: 1993

63. Ефимов, Е. Г. Социальные группы как объект исследования социальных Интернет-сетей / Е. Г. Ефимов // Известия ВолгГТУ : межвуз. сб. науч. ст. № 8(95) / Волг-ГТУ. Волгоград, 2012. (Серия «Проблемы социально-гуманитарного знания»; вып. 11).

64. Ефремова Н.Я. Манипулирование сознанием человека в рамках виртуальной реальности Территория новых возможностей. Вестник ВГУЭС. 2012. №4.

65. Зайцевский П.Г. Избирательные технологии. М., 1999.

66. Закирова Т.В. Концепция виртуальной реальности Жана Бодрийяра/ Т.В. Закирова, В.В. Кашин// Вестник Оренбургского государственного университета. 2012. №7.

67. Зелинский С.А. Указ соч. С.14-15; Его же. Манипулирование личностью и массами. Спб., 2008.

68. Зиновьева Н. А. Роль интернет-мемов в воспроизводстве интернет-культуры // Электронный научный архив УрФУ [Электронный ресурс] - URL: <https://clck.ru/WtNyF> С. 217- 223 (мурожаат вақти: 17.08.2021)

69. Имомназаров М. Огоҳ бўлайлик. – Т.: Академия, 1999

70. Ионин Л.Г. Идентификация и инсценировка // Социологические исследования, 1995, № 4.

71. Ислон ва дунёвий-маърифий давлат / Мунавваров З.И. ва Шнайдер Д.В.нинг умумий таҳрири остида. – Т.: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси, 2003

72. История, нравы и обычаи народов Северного Кавказа. Ростов-на-Дону, 1984.

73. Камовникова Н.Е. Перевод как инструмент манипуляции общественным мнением в условиях политических ограничений/ Н.Е. Камовникова// Вестник Тверского государственного университета. 2016. №2.

74. Канарская Л.Г. Щербинина Д.В. "Привет или превед": размышление о языке будущего/ Л.Г. Канарская Д.В. Щербинина// Научная дискуссия современной молодёжи: актуальные вопросы, достижения и инновации. Сборник статей II Международной научно-практической конференции: в 2 ч. 2017. Т.1.

75. Канашина С. В. Роль интернет-мемов в процессе политических выборов/ С. В. Канашина// Политическая лингвистика. 2018. № 1 (67).

76. Канетти Э. Масса и власть - М.,1997 г. С.41

77. Кара - Мурза С. Манипуляция сознанием М., 2000.

78. Кара-Мурза С.Г. Указ. Соч. С. 16.

79. Каримов Ибрагим. Философский анализ гнесеологических, психологических и социологических особенностей феномена веры: Автореф. дисс. ...докт. филос. наук. – Т.: 1993

80. Кароматов Ғ.С. Ислом фундаментализми ва унинг ижтимоий-сиёсий моҳияти: Фал. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т.: 1999

81. Кароматов Ҳ. Ўзбекистонда мозий этиқодлар тарихи. – Т.: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2008

82. Комилов К. Глобаллашув ва диний жараёнлар. – Тошкент: «Мовароуннаҳр», 2014

83. Коровин В. М. Третья мировая сетевая война. СПб.: Питер, 2014. С. 108.

84. Кушаев У.Р. Ислом дини таълимотида бағрикенглик тамойиллари // «Имом Бухорий сабоқлари» журналы. № 1. 2017

85. Лаптев Л.Г. Политический менеджмент: сущность, содержание, современные технологии. М.. 2000.

86. Лебон Г. Психология народов и масс - <http://www.duel.ru>

87. Лисова С.Ю. Манипуляция массовым сознанием в политической рекламе (региональный аспект). Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. М., 2004.

88. Манипулирование массовым политическим сознанием (Анализ репрезентации проявлений, разновидностей и технологий) В.И.Елева. Ростовский государственный университет 2003 г.
89. Маркова А.К. Психология профессионализма. М., 1996.
90. Новикова О.Н. Виртуальная игра как средство формирования личностной идентичности детей и подростков /О.Н. Новикова// Педагогическое образование в России. 2014. №2. С.150
91. Почепцов Г.Г. Информационные войны. М., 1999.
92. Почепцов Г.Г. Коммуникативные технологии двадцатого века. М. 2000. С.200
93. Пугачев В.П. Управление свободой. М., 2005.
94. Ражабова М. Диний экстремизм ва террорчилик. – Т.: Мовароуннахр, 2000
95. Революции при помощи Twitter и Facebook // Новая Европа. [Электронный ресурс] URL: <https://clck.ru/UDxem> - (муружаат вақти: 11.04.2021)
96. Роберт Джей Лифтон Технология промывки мозгов. – СПб.: «прайм-ЕВРО-Знак», 2005.
97. Русакова О.Ф. Политический медиадискурс и медиатизация политики как концепты политической коммуникативистики/ О.Ф. Русакова, Е.Г. Грибовод // Научный ежегодник Института философии и права Уральского отделения Российской академии наук. 2014. Т. 14. № 4.
98. С.Н. Бленд. Массы и манипуляция. - М., 2005.
99. Сиривля М.А. Социально-оценочное манипулирование в политическом дискурсе/ М.А. Сиривля// Философские науки. Вопросы теории и практики. 2015. №.5-2.
100. Соколов А.В. Сетевая гражданская активность в современной России/ А.В. Соколов, И.С. Маклашин // Вестник Костромского Государственного Университета. 2013. №6. Т.19.

101. Соловей, В.Д. Абсолютное оружие. Основы психологической войны и медиаманипулирования / Валерий Соловей. Москва: Издательство «Э», 2015.

102. Соловей, Валерий Дмитриевич Абсолютное оружие. Основы психологической войны и медиа манипулирования / Валерий Соловей. Москва: Издательство «Э», 2015.

103. Соскина С.Н. Специфика использования манипулятивных приемов с целью воздействия на общественное мнение (на материале президентских предвыборных кампаний США 2012 года) / С.Н. Соскина, Е.И. Сур// Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. 2015. №2

104. Социология: удвоилось число россиян, выступающих против анонимности в Интернете. Интернет-газета Znak. URL: <https://clck.ru/VqfE8> (мурожаат вақти: 01.07.2021)

105. Таранов П.С. Приемы влияния на людей. - М.: Агенство "ФАИР", 1997 г.

106. Усанова Д.О. Виртуальная реальность: проблематика настоящего в ретроспективе философско- культурологического наследия/ Д.О. Усанова// Челябинский Гуманитарий. 2011 г. №14.

107. Фейк/ Викисловарь // URL: <https://ru.wiktionary.org/wiki/фейк> (мурожаат вақти: 01.07.2021)

108. Фрейм Материал из Википедии — свободной энциклопедии// URL: <https://clck.ru/TrMAW> (мурожаат вақти: 19.03.2021)

109. Фромм, Эрих. Бегство от свободы/ Эрих Фромм. М.: АСТ, 2015.

110. Фурсов А.И. Борьба вопросов. Идеология и психоистория: русское и мировое измерения. М.: Книжный мир, 2017.

111. Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие. СПб.: Наука, 2000.

112. Ҳасанов А., Мунавваров З., Миноваров Ш., Сирожиддинов Ш. Ўзбекистон: динлараро ҳамжиҳатлик – тинчлик гарови. – Т.: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2005

113. Хуснидинов З. Ўзбекистонда диний бағрикенглик. – Т.: Тошкент ислом университети, 2006
114. Чалдини Р. Психология влияния. СПб.: Питер, 2006. С.38
115. Чекушкина Е.Н. Коммуникативная теория Ю. Хабермаса и культура информационного общества// Е.Н. Чекушкина/ Теория и практика общественного развития. 2014. № 1.
116. Что такое Internet? Основы Интернет. URL: <http://psbatishev.narod.ru/internet/12.htm> (мурожаат вақти: 17.05.2021)
117. Шапкина Е.В. Интернет в системе средств массовой информации и особенности его восприятия в общественном сознании/ Е.В. Шапкина// Вестник Кемеровского государственного университета. 2015. №2.
118. Шахматова О. М. Психологические аспекты общения в социальных сетях виртуальной реальности/ О.М. Шахматова О.М., Е.Ю. Болтага// Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В.Г. Белинского. 2014. №24.
119. Шачкова В.А. Возможности системы WEB 3.0 в современном медиaprостранстве: проблемы и перспективы/ В.А. Шачкова//Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. 2013. №4-2.
120. Шилина М. Г. Массмедиа в XXI веке: новые теоретические и образовательные концепции как условие развития индустрии и безопасности информационного пространства/ Вестник Челябинского государственного университета. 2013. №22.
121. Шиллер Г. Манипуляторы сознания. М., 1980. С.177
122. Шостр Э. Человек манипулятор. М., 1998. С.120
123. Эффект Стрейзанд. Шило в мешке как оружие интернет-сопротивления/ Аргументы и Факты // URL: https://aif.ru/teshno/web/effekt_streyzand_shilo_v_meshke_kak_oruzhie_internet-sorrotivleniya (мурожаат вақти: 19.03.2021)
124. Yusupova N. Islom huquqiga ko‘ra oilaviy munosabatlarda mulkiy masalalar. – Toshkent: «Movarounnahr», 2011